

IX Belgi

Sog'lom jamoatlarni ko'tarish harakatida

EKSPOZITSION VA'Z QILISH

*Bugun
Xudoning
So'zini qanday
aytamiz?*

DEVID HELM

A stylized line drawing in a light brown color on an orange background. It depicts a speaker standing at a podium on the right, holding a book or paper. In front of the speaker is a crowd of people, represented by simple stick figures with circular heads. The drawing is positioned in the lower right quadrant of the cover.

“Devid Helmning “Ekspozitsion va’z qilish” nomli ushbu kitobi ixcham va men shu paytgacha o’qigan shu turdagi kitoblarning eng foydalisidir.”

Met Chandler, Texas shtatining Dallas shahrida joylashgan The Village Church jamoatining bosh cho’poni; Havoriylar 29 jamoatlarni barpo qilish tarmog’ining prezidenti.

“Agar men va’z aytish borasida dars beradigan ustoz bo’lib, talabalarimga faqat bitta kitobni o’qib chiqishni tavsiya qilishim kerak bo’lsa, men faqat mana shu kitobni tavsiya qilgan bo’lardim. Bu va’z aytishni endi o’rganayotganlarga anchagina ma’lumot beradigan, shu bilan birga tajribali voizlarga ham bemalol yo’l-yo’riq ko’rsata oladigan noyob kitobdir. Devidning kamtarligiga qoyil qolaman. Uning kamtarligi orqali Xudo meni voiz sifatida fosh qiladi, menga namuna bo’lib xizmat qiladi hamda rag’batlantiradi. Umid qilamanki, bu kitob sizga ham xuddi shunday ta’sir qiladi.”

Mark Dever, Vashington shahrida joylashgan Capitol Hill Baptist Church jamoatining bosh cho’poni; 9Marks tashkilotining prezidenti

“Devid Helmning voiz sifatidagi mahoratlari va voizlarga ustozlik qilish borasidagi ulkan tajribasi tufayli uning bu mavzuda aytgan har bir o’giti juda foydalidir. Men bu kitobni dilimda minnatdorchilik tuyg’usi bilan o’qiyman, sababi, muallif o’zining va boshqa voizlarning majburiyatlarini ushbu

kitob sahifalarda aniq ifodalab beradi. Muqaddas bitiklarning asosiy xabariga diqqatni jamlash, qo'shimcha bezaklar qo'shmasdan yoki muhim qismlarini qoldirib ketmasdan matnni muntazam ravishda to'g'ri talqin qilish juda muhim. Bu nafaqat to'g'ri ko'nikmalarga ega bo'lish va donolikni, balki sodiqlikni ham talab etadi. Chunki aynan mana shu sodiqlik tufayli haqiqiy va'z paydo bo'ladi."

Brayan Chapel, Covenant Theological Seminary
(Ahd Ilohiyotshunoslik seminariyasining)
nafaqadagi fahriy prezidenti; Illinoy shtatining
Peoriya shahrida joylashgan Grace Presbyterian
Church jamoatining bosh cho'poni.

"Devid Helm bu kitobda bizga astoydil ishlab chiqilgan va mutlaqo ishonchli ma'lumotni beradi. U bizga Xudoning Kalomini sadoqat bilan va'z qilishimiz uchun nimalarni tushunishimiz va nima qilishimiz kerakligini bayon qiladi. Bu katta ahamiyatga ega bo'lgan kitob."

R. Kent Xyuz, Kollej Church jamoatining
nafaqadagi bosh cho'poni, Uiton, Illinoy shtati.

"Qo'lingizdagi ushbu ixchamgina kitobda Devid Helm Charles Simeon Trust tashkilotining seminarlarida bo'lajak voizlarni ilhomlantiradigan asosiy tamoyillar va g'oyalarni bayon qilgan. Devidning o'zi mana shu materiallar asosida ta'lim berganida, va'z qilishdan voz kechgan voizlar seminar

davomida yana mana shu sermashaqqat ishga qaytganlarini koʻrganman. Ushbu kitob orqali vaʼz qilishning samaralari yanada koʻtarilsin.”

Pol Riz, Shotlandiya, Edinburg shahrida joylashgan Charlotte Chapel jamoatining bosh choʻponi.

“Koʻpincha, voizlar ekspozitsion vaʼz qilish “Sogʻlom jamoatning 9ta belgisi”ning asosiy tarkibi ekanini bilib hayratlanadilar. Men esa ularning hayratini kuzatishni yoqtiraman. Ekspozitsion vaʼz qilishning muhimligi “Ekspozitsion vaʼz qilish” kitobida oʻz tasdigʻini topgan. Ushbu kitob uning afzalligini yaxshi tushuntirib beradi. Devid Helm barcha voizlarni Muqaddas Kitob matnida keltirilgan xabarni aniq-ravshan va toʻgʻri yetkazishga chaqiradi. Ushbu kitob Xushxabarni sadoqat bilan eʼlon qilishda turtki boʻlib xizmat qilsin, jamoatlar takomillashishiga va Xudoning ulugʻlanishiga sababchi boʻlsin!”

H.B. Charlz, Florida shtatining Jeksonvil shahrida joylashgan Shiloh Metropolitan Baptist Church jamoatining choʻponi.

SOG'LOM JAMOATLARNI KO'TARISH HARAKATIDA

EKSPOZITSION VA'Z QILISH

BUGUN XUDONING SO'ZINI
QANDAY AYTAMIZ?

DEVID HELM

CROSSWAY
WHEATON, ILLINOIS

BUILDING HEALTHY CHURCHES

EXPOSITIONAL PREACHING

HOW WE SPEAK
GOD'S WORD TODAY

DAVID HELM

CROSSWAY
WHEATON, ILLINOIS

Ekspozitsion va'z qilish: Bugun Xudoning So'zini qanday aytamiz?
Devide Helm tomonidan

Mualliflik huquqi © 2026 yil
Marvarid Xizmatlari



Expositional Preaching: How We Speak God's Word Today
By David Helm
Copyright © 2014 by The Charles Simeon Trust
Published by Crossway, 1300 Crescent Street, Wheaton, Illinois
60187

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and The Charles Simeon Trust.
This edition published by arrangement with 9Marks.
All rights reserved.

9Marks ISBN: 979-8-89218-239-3

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2024 Muqaddas Yozuvning So'zma-So'z Tarjimasidan [MYSSST] olingan. Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI

Ekspozitsion va‘z qilishning maqsadi va foydalari.....9

KIRISH

Eski suyaklar.....17

1–BOB

KONTEKSTUALLASHTIRISH23

2–BOB

EKZEGEZA.....57

3–BOB

ILOHIYOTGA OID MULOHAZA85

4-BOB

BUGUN.....119

XULOSA

Qurigan suyaklar153

ILOVA

Voizlar beradigan savollar.....155

ALOHIDA MINNATDORCHILIK159

MUQADDAS KITOBGA IQTIBOSLAR163

SO'ZBOSHI

EKSPOZITSION VA'Z QILISHNING MAQSADI VA FOYDALARI

Migel Nunez

Oxirgi o'n yillik, ehtimol undan ham ortiqroq vaqt davomida ekspozitsion va'z qilish borasida ko'pgina kitob va risolalar yozilgan. Ekspozitsion va'z yangi g'oya yoki yangi atama yo yaqindagina kashf etilgan tushuncha emas. Shaxsan Iso Masihning O'zi Luqo 24:17-47 da ekspozitsion va'z qilgan bo'lsa, havoriy Pavlus ham Havoriylar 17:22-31 da xuddi shunday va'z qiladi (*men yuqorida ikkita va'zni tilga olganimning sababi, Devid Teologik mulohazalar deb nomlangan uchinchi bobda shu va'zlar haqida gapiradi*). O'tmishda yashab xizmat qilgan ko'pgina voizlar ham ekspozitsion va'zning kuchini yaxshi anglaganlar.

Agar shunday bo'lsa, u holda nima sababdan ekspozitsion va'z qilishga endi urg'u berila boshladi? Shubhasiz, bu savolga ko'plab, o'ziga xos javoblar bor, ammo umuman aytganda, jamoatlardagi muammolarning (kasalliklarning) aksari aynan voizlarning hamda ustozlarning ekspozitsion va'z qilmaganidan kelib chiqayotganini ta'kidlash mumkin.

EKSPOZITSION VA'Z QILISHDAN MAQSAD

Qo'lingizdagi kitobda, biz ko'rib chiqadigan ekspozitsion va'zning maqsadi Muqaddas Kalom parchalaridan muallifning asl niyatini tushunish, uni hozirgi avlodga tushuntirishdan iborat. Toki ular buni tushunib Masihga o'xshash bo'lish yo'lida hayotiga qo'llasinlar. Uslub oddiy, ammo u qadar oson emas: parchani o'qiysiz, tushuntirasiz, so'ng uni hayotda qo'llaysiz. Nehemiyah davrida tafsirchi (ulamo va ruhoni) Ezra xuddi mana shu tartibga rioya qilgan holda Muqaddas bitiklarni izohlab bizga ajoyib namuna ko'rsatgan: "Shu tariqa, Xudoning Qonun kitobidan aniq va tushunarli qilib o'qishar hamda buni izohlashar edi, xalq esa o'qilgan narsalarni tushunar edi" (Nehemiyah 8:8). Bu oyatda keltirilgan uchta so'zga alohida e'tibor bering-a: aniq qilib o'qishar, buni izohlashar va xalq tushunardi. Voiz Kalomdagi parchani o'qigach, agar u sadoqatli voiz bo'lsa, u hech qachon matnga o'z nuqtai nazaridan yondashmaydi. Axir, bu parchaning yozilishiga u na ilhom bergan va na mualliflik qilgan. Bu matnning asosiy yagona muallifi Xudodir. Shuning o'zi Muqaddas bitiklarni sadoqat bilan talqin qilish hamda e'lon qilishning muhimligini ko'rsatadi.

Agar Muqaddas bitiklar Xudodan ilhomlanib yozilganiga va xatodan holi ekaniga, shuningdek, bu bitiklar Xudoning o'y-xayollarini, niyatlarini hamda irodasini ifoda etishiga ishonsak, u holda biz Undan olganlarimizga biror qo'shimcha kiritishdan yoki tushirib qoldirishdan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Eski Ahdga qaraydigan bo'lsak, Xudo Musoga yonayotgan buta ichidan turib gapirar ekan, shunday degan: "Xudo: - Boshqa yaqinlashmagin. Oyog'ingdagi poyabzalingni

yechg'in, zero sen turgan joy muqaddas yerdir, - dedi" (Chiqish 3:5). Biz Muso emasmiz va tabiiyki, Xudo bizga yonayotgan buta ichidan gapirmaydi, biroq U voizlarga O'zining benuqson so'zini to'g'ri yetkazishni ishonib topshirgan. Har safar matnni ochganimizda, biz ham muqaddas yerga kirib borayotganimizni anglashimiz kerak. Voiz har safar va'z tayyorlar ekan, Muqaddas bitiklarga hurmat-ehtirom bilan yondashishi shart. Voizning minbardan turib Xudoning Kalomiga qanday munosabatda bo'lishi Kalomning jamoatga ta'sir qilishida katta rol o'ynaydi.

Ekspozitsion va'z haqiqatni gapiradi, unda hokimiyat va qudrat bor. Bularning hech biri voizga bog'liq emas. Ular Muqaddas Ruh ilhomi bilan yozilgan Kalomga tegishli. Va'zni kuchli qiladigan narsa voizning aql-zakovati yoki egallagan notiqlik san'ati emas, balki Muqaddas bitiklarning o'zi. Bu hokimiyat diniy ta'limotga ko'ra, azalda so'z bilan bizning dunyomizni yaratgan va shu bilan birga milliardlab galaktikalardan iborat koinotni yo'qdan bor qilishga qodir bo'lgan Qudratli Zotga tegishli (Ibtido 1-2). Bugun ham aynan mana shu so'z butun dunyoni barbod bo'lishdan saqlab turibdi (Ibroniylar 1:3), u ruhan o'lik bo'lganlarga hayot baxsh etadi (1-Petrus 1:23). Shunday bo'lsa, nima sababdan biz Xudoning xabariga "suv qo'shyapmiz" (susaytirayapmiz)? Bunday qilish bilan voiz Xudoning qudrati, ilhomi bilan ma'lum bir maqsadda yozilgan Kalomni kuchsizlantiradi. Shu tobda masihiy faylasuf va ilohiyotshunos Jon Freymning ushbu so'zlarini eslash joiz bo'lardi: "Xudo nimaiki qilsa, Kalomi orqali qiladi; Xudo nima qilsa, Kalom ham shuni qiladi."¹

1 Jon Freym, *Xudo Kalomining ta'limoti* (Fillipsburg, Nyu-Djersi: P&R nashri-

EKSPOZITSION VA'ZNING FOYDALARI

Shubhasiz, ekspozitsion va'z qilish anchagina afzalliklarga ega. Biz va'z orqali birinchi navbatda Xudoni va Uning nomini ulug'laymiz. Xudoning sifatlari bevosita Uning nomiga va Kalomiga bog'liq. Xudo bu haqida Zabur 137:2 da shunday deydi: "... Sening nomingni sharaflayman, chunki Sen O'z so'zingni O'zingning barcha nomingdan ustun qo'yding." Qadimda inson ismi obro'-e'tiboriga chambarchas bog'liq edi. Shu sababdan Xudo Isroil xalqiga O'nta Amrni berar ekan, ulardan birida O'zining nomini behudaga tilga olmaslikni buyurgan. Shu bilan birga Xudo O'z Kalomini ham ulug'ladi; bordiyu, Uning Kalomi ishlamasa, u holda Uning nomi va borlig'i ham shubha ostida qoladi. Ekspozitsion va'z Xudo Kalomining tubiga sho'ng'ib, Xudo yetkazishni istagan fikrni topishga intiladi. Shuningdek, bunday va'z Xudo O'zining muqaddas fe'l-atvoridan kelib chiqadigan So'zini hurmat qilishini tan oladi.

Ikkinchidan, voiz Xudoning so'zini va'z qilar ekan, bu bilan u tinglovchilarga o'zining yoki biror bir insonning so'zlariga emas, aksincha, Xudoning Kalomigagina xos bo'lgan qudratga ishonishini va unga tayanishini ko'rsatadi.² Pavlusning Fessalonikaliklarga yozgan maktubi ushbu fikrni tasdiqlaydi: "Shuning uchun biz Xudoga tinimsiz

yot kompaniyasi, 2010), 55–bet; [John Frame, *The Doctrine of the Word of God* (Phillipsburg, NJ: P&R Publishing Company, 2010), page 55].

2 Jon Stott, *Ikki dunyo orasida: Bugungi kun voizlik muammolari* (Grand Rapids: William B. Eerdmans nashriyoti, 1982), 132–bet; [John Stott, *Between Two Worlds: The Challenge of Preaching Today* (Grand Rapids: William B. Eerdmans Publishing Company, 1982), page 132].

minnatdorchilik bildirmoqdamiz, chunki sizlar bizdan eshitgan Xudoning Soʻzini inson soʻzi sifatida emas, balki Xudoning Soʻzi sifatida qabul qildingizlar. Bu Soʻz esa siz imonlilarda kuchli harakat qilmoqda” (1–Fessalonikaliklar 2:13). Shu tariqa odamlar voiz ishonadigan va hurmat qiladigan narsaga ishonishni oʻrganadilar. Bunda Xudoning Soʻzini chuqur tahlil qiladigan ekspozitsion vaʼz katta rol oʻynaydi.

Uchinchidan, Xudo Kalomini ekspozitsion vaʼz qilish voizni matnga bogʻlaydi, shunda voiz matnni emas, matn voizni boshqaradi. Shu tariqa biz vaʼz qilayotgan soʻz – Xudoning Soʻzi ekaniga amin boʻlamiz. Voiz Xudoning haqiqatlariga tayanmasa, insoniy donolikning beqaror shamoliga ergashib, osongina maqsaddan adashadi.

Toʻrtinchidan, Xudoning Soʻzi vaʼz qilinayotganini hisobga oladigan boʻlsak, Xudo bu xabarni maʼqullaydi. Shunday ekan, voiz ulamolar kabi emas, balki hokimiyat egasi sifatida koʻrilishi kerak (Matto 7:28). Hokimiyat bilan taʼlim berish yoki vaʼz qilish hokimiyatga ega boʻlish degani emas. Chinakam ilohiy hokimiyat voizda Xudoning haqiqati bilan yonganida namoyon boʻladi. U Xudoning haqiqatini boʻlishish bilan yonganida boshqalar ham bu issiqlikni his qiladi va voiz vaʼz qilayotgan Isoni yaxshiroq bilib oladilar.

Ekspozitsion vaʼz tinglovchilarni boshidan oxirigacha Masihga yetaklaydi. Yangi Ahdda vaʼz qilishga bogʻliq toʻrtta kalit soʻz berilgan. Ularning birinchisi “kerysso”. Har safar shu soʻz ishlatilganida, deyarli har bir holatda, asosiy mavzu/nishon Xushxabar yoki Iso boʻladi.³ Ikkinchi “*euaggelizo*”

3 Uolter A. Ellvell (muharrir), *Yevangelik Teologiyasi lugʻati* (Grand Rapids: Baker Academics nashriyoti, 2001), “Vaʼz qiling va eʼlon qiling” maqolasi, muallifi

so'zi esa Iso Masih haqidagi Xushxabarni tarqatish kontekstida ishlatiladi.⁴ Keyingi so'z “*martureo*” bo'lib, bu so'z Iso Masih haqidagi haqiqat to'g'risida guvohlik berish ma'nosini anglatadi.⁵ Nihoyat, “ta'lim berish” yoki “yo'l-yo'riq ko'rsatish” degan ma'nolarni anglatuvchi “didasko” degan so'z, odatda, Isoning ta'limotiga ishora qiladi.⁶ Yuqoridagi mana shu to'rtta so'z Yangi Ahd boshidan oxirigacha Masih haqida ekanligining yorqin dalilidir.⁷ Shunday ekan biz ham jamoatda va'z qilar ekanmiz, butun diqqatimizni Masihga qaratishimiz kerak.

Beshinchidan, ekspozitsion va'z qilish Muqaddas Kitob matnini noto'g'ri talqin qilishdan, ma'nosini yetarlicha ochib bermaslikdan, ma'nosini butunlay buzib ko'rsatishdan saqlaydi.⁸ Mana shunday xatolar haqiqatni emas yolg'onni

Xobert K. Farrell; [Walter A. Elwell, ed., *Evangelical Dictionary of Theology* (Grand Rapids: Baker Academics, 2001), s.v. “Preach, Proclaim,” by Hobert K. Farrell].

4 Jozef X. Tayer, *Tayerning Yangi Ahd bo'yicha yunoncha-inglizcha lug'ati* (Peabody: Hendrickson nashriyotlari, 1996), “Euaggelizo” mavzusi bo'yicha; [Joseph H. Thayer, *Thayer's Greek-English Lexicon of the New Testament* (Peabody: Hendrickson Publishers, 1996), s.v. “Euaggelizo”].

5 Ilgari keltirilgan manbadan, “Martureo” mavzusi bo'yicha.

6 Ilgari keltirilgan manbadan, “didasko” mavzusi bo'yicha.

7 Migel Nunezning: *Xudo Kalomining millatni o'zgartirish qudrati: Lotin Amerika cho'ponlariga Muqaddas Kitob asosida va tarixiy murojaat*, asaridan olib moslashtirilgan, doktorlik dissertatsiyasi, Janubiy baptist ilohiyoti seminariyasi-ga taqdim etilgan, 2014 yil 11 noyabr; [Adapted from Miguel Núñez, *The Power of God's Word To Transform a Nation: A Biblical and Historical Appeal to Latin American Pastors*; doctoral thesis presented to the faculty of The Southern Baptist Theological Seminary, Nov. 11, 2014].

8 Ramesh Richard, *Ekspozitsion va'z tayyorlash* (Grand Rapids: Baker Books nashriyoti, 2005), 46–bet; [Ramesh Richard, *Preparing Expository Sermons* (Grand Rapids: Baker Books, 2005), page 46].

va'z qilishga sabab bo'lishi mumkin. Muqaddas Kitobni talqin qilishga jiddiy yondashadigan talaba yoki voiz mana shunday xatolarga yo'l qo'yishni istamaydi. Pavlus shogirdi Timotiyni shunday deb ogohlantiradi: "O'zingni Xudoga munosib tarzda, benuqson ishchi va haqiqat so'zini to'g'ri uqtiruvchi sifatida taqdim etishga harakat qilgin" (2–Timotiy 2:15). Xudoning So'ziga to'g'ri munosabatda bo'ladigan xizmatchi esa o'qituvchi/ustoz sifatida Xudoning oldida uyalib qolmaydi.

Nihoyat, ekspozitsion va'z uni tinglaganlarga va'zni ekpozitsion tarzda eshitishni o'rgatadi, shu tariqa u boshqa turdagi va'zlarni eshitganida, undagi xatolarni ko'ra oladigan bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, Xudoning suruviga ta'lim berish va cho'ponlik qilishning asosiy omili hisoblanadi.

Xo'sh, biz ekspozitsion va'z haqida bir oz ma'lumotga ega bo'ldik, endi bu va'zni "qanday qilish kerak?" degan savolga yetib keldik. Shu tobda menda bir savol tug'iladi: "Ekspozitsion va'z qilishning shuncha afzalliklari bor ekan, u holda nima uchun ba'zilar hali ham boshqa yo'llar bilan va'z qilishni xohlaydi?"

KIRISH

ESKI SUYAKLAR

Angliyaning Kembrij shahrida joylashgan Qirollik kolleji ibodatxonasidan bir buyuk odamning jasadi topildi. Jasad ibodatxonaning tosh yotqizilgan poli tagidan, g'arbiy eshigi yaqinidan topildi. Qabr tepasida ikkita belgi bor edi: biri ingliz tilida "CS" deb yozilgan harflar bo'lsa, ikkinchisi o'sha odamning o'lgan yili edi – 1836. Ikkala belgi ham tosh yo'lakka o'yib yozilgan va qo'rg'oshin bilan muhrlangan edi. Agar qachonlardir siz ham men turgan joyda turishga muvaffaq bo'lsangiz, bilingki, oyoqlaringiz ostida turgan bu eski suyaklar Muqaddas Kitobni Ingliz jamoatining markaziga qaytargan odamga tegishli.

1836–yilning noyabrida Charlz Simeon vafot etdi. O'sha kun uning dafn marosimiga 1500 odam yig'ilgan va ularning hammasi qayg'uda edi. O'sha davrning odatiga ko'ra, dafn marosimiga shuncha odamning kelishi misli ko'rilmagan hodisa edi. Biroq bu odamlarning bari o'zlari sevgan cho'pon va voizga hurmatlarini bajo keltirib, uni oxirgi manzilga kuzatib qo'yish uchun kelgan edilar.⁹

⁹ Charlz Simeonning dafni va qabri haqidagi tafsilotlar uchun men Vilyam Karusdan minnatdorman. Vilyam Karus, *Cho'pon Charlz Simeonning hayoti xotiralari* (London: Hatchard and Son nashriyoti, 1847), 582–583–betlar; [William Carus, *Memoirs of the Life of the Rev. Charles Simeon* (London: Hatchard and Son, 1847), pages 582-583].

Charlz Simeon o'z davri odamlariga Xudodan berilgan tuhfa edi. U bizning avlodimizga ham Xudodan tuhfa. Charlz Simeonning Xushxabarga oid sezgilarlari (instinktlari) vaqt sinovidan o'tgan va bugungi kun voizligida yangi taassurot qoldirishi mumkin. Simeonning va'zlarida bugungi kun voizligiga yetishmaydigan fazilatlar bor edi.

Xo'sh, o'sha bizga yetishmaydigan fazilatlar nima ekan? Bundan bizga qanday foyda bor?

Bu savollarning javobi oddiy, shu bilan birga, ular bizni *ekpozitsion voizlikning* mohiyatiga yetaklaydi. Buyuk insonning ta'siri asosan uning Muqaddas Kitobga bo'lgan muhabbatidan kelib chiqqan. Simeon Muqaddas Kitobni oddiy va tushunarli tarzda talqin qilish jamoat salomatligi va baxtining kaliti ekaniga ishongan. Muqaddas Kitobni tushunarli tarzda talqin qilish jamoatni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ushbu o'zgarmas ishonch Simeonni hech qachon tark etmagan. Ellik to'rt yil davomida Angliyaning Kembrij shahrida joylashgan Muqaddas Uchbirlik jamoatida cho'pon bo'lib xizmat qilar ekan, o'zini fidoyilik bilan va'z qilishga bag'ishladi. U har hafta, yillar davomida, bir necha o'n yil o'tsa hamki, o'z jamoati qarshisida turib, Xudoning So'zini oddiy, biroq qudrat bilan e'lon qildi. U Muqaddas Kitobni ekspozitsion va'z qilish kerakligiga ishongan va bu ishonchini u quyidagi so'zlar bilan ta'riflagan:

Men Muqaddas Kitobni o'qiganimda, unga hech narsani qo'shmay yoki olib tashlamay, u menga o'rgatayotgan fikrlarni tushunishga harakat qilaman. Men bu masalada juda ehtiyotkorman va unga jiddiy qarayman. Matnni va'z qilayotgan

paytimda Muqaddas Ruh o'sha matndan menga ochib berganidan ko'p ham, kam ham gapirmayman.¹⁰

Simeon har bir voiz matni tadqiq qilishi kerak, deb hisoblardi. U matn chizig'idan chiqib ketmaslikka: undan ortiq ham (matnda yozilmaganlarini qo'shish), kam ham gapirmaslikka intilardi. Aniqrog'i matnning qudrati va to'liqligini mukammal darajada ochib berishga harakat qilardi.

Bugun aynan mana shu ishonch – ushbu yetuk insonlarga xos bo'lgan vazminlik va boshqaruv ko'pincha Xudoning Kitobini va'z qiladigan odamlarga bir oz yetishmaydi. Ochig'ini aytganda, bu fikrni ko'p sonli sog'lom ta'limotga asoslangan jamoatlar ham qo'llab-quvvatlamayptilar. Muqaddas Kitob asosidagi haqiqiy va'z deb hisoblaganlarimiz ham matni talqin qilishda nazorat/cheklovning yetishmasligi tufayli haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Tan olib aytishim kerakki, men har doim ham faqat Muqaddas Kitobdan iqtibos keltirishga harakat qilmaganman. Umid qilamanki, Xudo O'z ulug'vorligi yo'lida boshqa kitoblar va risolalar qatori qo'lingizdagi ushbu ixcham kitobdan ham foydalanadi. Shuningdek, bu kitobcha Muqaddas Kitob o'qituvchilari va voizlariga Kitobni to'g'ri talqin qilish fikrini qayta kashf etishlariga hamda bu yo'lda o'qib-izlanishlariga yordam berishiga ishonaman.

Biroq, bu bilan faqat Simeonning fikri o'ylab ko'rishga arziydi, demoqchi emasman. Va'z qilish jarayonida Simeonning

10 Xendli Karr Glin Moul, *Charlz Simeon* (London: Methuen & Co. nashriyoti, 1892), 97–bet; [Handley Carr Glyn Moule, *Charles Simeon* (London: Methuen & Co., 1892), page 97].

maqsadini qayta tiklash kerak. U o'z maqsadlarini qat'iy, Muqaddas Kitobga asoslangan holda shunday ifodalagan:

Gunohkorni kamtarlikka chaqirish;
Najotkorni ulug'lash;
Muqaddaslikka chorlash.¹¹

Bundanda oddiyroq va tushunarliroq ta'rif bo'lmasa kerak. Biz bugun ham mana shu maqsadda va'z qilishimiz kerak. Bizning dunyomiz ham xuddi Simeonning dunyosiday insoniyat qanchalik razillikka botib ketganini, Iso Masih qanchalik yuksaklikka ko'tarilganini va Xudo O'z xalqidan nimani talab etishini bilishi kerak. Dunyo buni tushunib yetishiga yordam berishning eng yaxshi va yagona usuli bu Xudoning So'zini Muqaddas Ruhning kuchi bilan gapirishdir. Xo'sh, unda buni qanday qilamiz? Ekspozitsion va'z o'zi qanaqa bo'ladi?

Bu savolga javobni faqat ekspozitsion va'zdan topish mumkin. Ekspozitsion va'z – asosan Muqaddas Kitob matniga e'tibor berishdir. Shu bilan birga ekspozitsion va'z asosan matnning tuzilishi va mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim. Shu tariqa, bunday va'z voiz matnda bor deb o'ylagan narsalarni emas, Simeon aytganiday, Muqaddas Ruh matnga qo'ygan haqiqatlarni chiqarib oladi. Albatta, bu jarayon bir oz murakkab. Ushbu kitob mana shu haqida so'zlaydi.

Biz ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolar, ayniqsa,

11 Charlz Simeon, *Horae Homileticae* (Grand Rapids, Michigan shtati, Zondervan nashriyoti, 1847), xxi-bet; [Charles Simeon, *Horae Homileticae* (Grand Rapids, MI: Zondervan, 1847), page xxi].

kontekstuallashtirish borasidagi vasvasalardan kelib chiqadigan xatolar haqida fikr yuritamiz. So'ng, biz matnni tafsir qilish, ya'ni izohlab, tushuntirib berish jarayonidagi muammolar va uning talablarini ko'rib chiqamiz. Matnni butun Muqaddas Kitob asosida tushunamiz va so'ng uni o'z kontekstimizda va'z qilamiz.

Ushbu kitob ekspozitsion va'z qilish mavzusiga to'g'ri keladigan va kirish qismi sifatida yetarli bo'lsa-da, va'z aytish yoki Muqaddas Kitobni o'rgatish bilan shug'ullanadiganlar uchun o'z xizmatini tekshirishda foydali asos bo'lib xizmat qiladi. Bu "andaza" o'zingizdan "Men o'z ishimni to'g'ri bajaryapmanmi? Muqaddas Kitob matnidan faqat o'sha yerda yozilganlarini chiqarib olyapmanmi? Men qilayotgan ish tinglovchilarni kamtarlikka yetaklayaptimi, Najotkorni ulug'layaptimi, tinglovchilarni muqaddaslikka chorlayaptimi?" deb so'rashga imkoniyat beradi.

Ekspozitsion va'zning talablari va qiyinchiliklari anchagina. Shuningdek, Xudoning So'ziga sodiqlik bilan munosabatda bo'lish mahoratida o'sishimiz ham oson bo'lmaydi. Ammo men bir narsaga aminman: agar bugun voizlar, cho'ponlar va jamoat oqsoqollari Simeonning sodda e'tiqodi va maqsadlari qabrda qolib ketmay, bizgacha yetib kelishiga yo'l qo'ysalar, bugungi kundagi jamoatlarimiz sog'lom, gullab-yashnaydigan jamoatlar bo'ladi.

Demak, boshladik!

1-BOB

KONTEKSTUALLASHTIRISH

Kontekstuallashtirish matnni yaxshi ekspozitsion tahlil qilish uchun juda muhim omil hisoblanadi. Avliyo Avgustinning bizgacha yetib kelgan va'z qo'lyozmalaridan biz u kishi bu ishni juda a'lo darajada bajarganini bilib olishimiz mumkin.

Shunday qilib, Avliyo Avgustin jamiyat haqidagi fikrini olg'a surar ekan, to'g'ridan-to'g'ri ma'jusiy klassik adabiyotlardan iqtiboslar keltiradi. Uning bu g'oyalarini o'qir ekansiz Avgustin bu ishni ularning e'tiborini qozonish yoki ularni jamoatga jalb qilish uchun qilgan deb o'ylamasligingiz kerak. Bugun yerning yumaloqligi dalil bo'lganiday, u ham o'z iqtiboslarini to'g'ri ma'noda dalil sifatida keltirgan. U o'zining ko'pgina dalillarini sog'lom fikrga asoslangan holda taqdim etgan.¹²

Avgustinning kontekstuallashtirishga bo'lgan munosabati ajoyib. Uning ajoyibligi shundaki, bu munosabat bizga kontekstuallashtirish va va'z o'rtasidagi munosabat

12 Piter Braun, *Igna teshigidan* (Princeton, Nyu-Djersi: Princeton University nashriyoti, 2012), 54–bet; [Peter Brown, *Through the Eye of a Needle* (Princeton, NJ: Princeton University Press, 2012), page 54].

haqida qimmatli bilim beradi. Avgustin tinglovchilari bilan juda yaxshi til topishardi. Undagi bu sifat oldindan o'ylangan hisob-kitob yoki zamonga mos ko'rinish uchun madaniy ma'lumotlarni yig'ish natijasi emas, aksincha, hayotga bo'lgan samimiy qiziqishining natijasi edi. Ushbu bobda biz matn sun'iy tarzda kontekstualashtirilganda yuzaga keladigan muammolar haqida so'z yuritimiz.

Ushbu kitobning kirish qismida, biz ekspozitsion va'zga bir oz ta'rif berib o'tdik. Ekspozitsion va'z – Muqaddas bitiklarda bor bo'lgan, parcha yetkazmoqchi bo'lgan narsalarni chiqarib olish, Muqaddas Ruh ochmagan narsalarni matnga sun'iy tarzda kiritmaslikdir. Shu bilan birga u tinglovchilarni fosh qilishi va kamtarlikka yetaklashi, Najotkorni ulug'lashi hamda ularning hayotiga muqaddaslikni targ'ib qilishdir. Garchi bularning barini qanday amalga oshirish kerakligiga hali to'liq ta'rif berib o'tmagan bo'lsak-da, talabga javob bermaydigan va'zlarning keng tarqalgan usullariga alohida urg'u berib o'tsak.

KO'R-KO'RONA YONDASHUV MUAMMOSI



Va'zda kontekstualashtirish deganda nimani nazarda tutayotganimni bilasizmi?¹³ Oddiygina qilib aytganda, va'zda

13 Kitobda keltirilgan grafiklar mening shaxsiy talqinim bo'lib, bir necha yil

kontekstuallashtirish bu matndagi xabarni tinglovchilarga tushunarli qilib, aniqrog'i, ularning madaniy kontekstiga mos keladigan tarzda yetkazishdir. Bu tinglovchilarga qaratilgan va'z usulidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, kontekstuallashtirish bu *hozir* va *biz* haqimizda deganidir. Matnda muhokama qilinayotgan mavzuni zamonga moslashtirish va qo'llashga intilish usuli. Shuning uchun 4bobda bu mavzuga konstruktiv yondashish haqida ma'lumot beriladi.

Biroq, bugungi kundagi voizlikning muammolaridan biri bu kontekstuallashtirishga ortiqcha urg'u berishdir. Voizlar va ilohiyotshunoslar kontekstuallashtirishni ilmiy, o'rgatiladigan darajaga ko'tarib, amaliy jihatlariga haddan tashqari e'tibor qaratadigan bo'lishdi. Natijada, ba'zi voizlar matnning asl ma'nosiga beparvo bo'lib, qo'l uchida va'z qiladigan bo'lib qolishdi. Mana shu *ko'r-ko'rona yondashuv* muammosidir. Voiz o'z jamoatini ruhan o'stirish, xizmatlari ildamlashi uchun yaxshi niyat bilan va'zlariga tayyorgarlik ko'rar ekan, ijodiy va badiiy tarzda yondashadi. Shu bilan birga u o'z jamoati a'zolariga dolzarb hamda ularga tegishli bo'lgan (ular istagan) mavzularni taqdim etadi. Voiz matn bilan ishlab, uni tinglovchilarga munosib tarzda yetkazish o'rniga va'zni jamoatdagilarga yoqadigan tarzda tuzadi. Oqibatda va'z tinglovchilarning xohishlariga yo'naltirilgan

avval Edmund Klounining *Muqaddas Kitobdan Masihni va'z qilish* (Uiton, Illi-noy: Krossvey, 2003) kitobining 32–betida keltirilgan grafikning o'zgartirilgan variantidir. Men uni xuddi jamoat hamdu-sano xizmatchilari qadimgi hamdu-sano qo'shig'ini olib, unga yangi musiqiy aranjirovka yaratgani kabi yaratdim; [Edmund Clowney, *Preaching Christ in All of Scripture* (Wheaton, Ill.: Crossway, 2003)].

va'zga aylanadi. Pavlus Timotiyni aynan mana shunday va'zdan ogohlantirgan edi: "Chunki shunday zamon keladiki, odamlar sog'lom ta'limotga dosh bera olmaydilar, lekin ular o'z hirslariga binoan quloqlariga yoqimli so'zlarni gapiradigan ustozlarni o'zlariga to'playdilar. Ular quloqlarini haqiqatdan o'girib, afsonalarga buradilar" (2-Timotiy 4:3-4).

Bu haqida o'ylab ko'ring. Ba'zi voizlar ko'p vaqtlarini Xudoning Kalomini o'qib o'rganishdan ko'ra, bizning kontekstual muhitimizni o'rganishga sarflaydilar. Ko'rinib turibdiki, voizlar zamon bilan hamnafas bo'lishga intilib, dolzarb mavzular borasida va'z qilishga harakat qilmoqdalar. Shuning uchun ularning va'zlari dunyo va shaharlar haqida bo'lib qolmoqda. Natijada, voizlar ham, tinglovchilar ham matnni yuzaki o'qish bilan qanoatlanib qolmoqdalar. Biz Muqaddas Kitob matni hamma narsadan ham muhim ekanini unutib qo'yyapmiz. Muqaddas Kitob bizning bor kuchimiz bilan mulohaza qilishimizga va astoydil tushuntirishlarimizga loyiq.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar voiz Masihga ergashtirmoqchi bo'lgan kontekst (tinglovchilar va muhit) uning va'zini boshqarishiga yo'l qo'yadigan bo'lsa, u holda matnning asl mazmuni nazardan chetda qoladi. Kirish qismida ta'kidlaganimday, bu vaziyat ko'plab jamoatlarimizning qulashiga sabab bo'ladi. Ko'plarimiz anglamagan holda, kuchli va ta'sirli va'z qilishning siri Muqaddas Kitobni sinchiklab o'rganish va uni to'g'ri yetkazishda emas, aksincha, madaniy kontekstni tushunishda deb o'ylaymiz.

Kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashish
(kontekstuallashtirishdan noma'qul tarzda foydalanish)

va'zning kamida uch marta bema'ni tarzda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bema'ni deyishimning sababi, bularning hech biri yaxshi natijaga olib kelmaydi. Birinchidan, bu yondashuv Muqaddas Kitobni tadqiq qilish borasidagi qarashlarimizni buzadi. Va'zni tayyorlash jarayonida voiz Xudoning Kalomiga emas, dunyoga ko'proq diqqat qaratadi. Bu esa "taassurotlarni uyg'otuvchi", odamlarning his-tuyg'ularini manipulyatsiya qiluvchi va'zga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, va'zning asl mohiyatini o'zgartiradi – bu vaziyatda va'z Xudoning maqsadlari va rejalaridan ko'ra, bizning o'z manfaatlarimiz yo'lidagi rejalarimiz va maqsadlarimizni qo'llabquvvatlash vositasiga aylanadi. Bu "mastlik" holatidagi va'z deb ataladi. Nihoyat, uchinchi, bunday va'z bizning hokimiyat haqidagi tushunchamizni o'zgartiradi. Voizning "yangi" va "ruh yetaklovidagi" va'zi haqiqatni anglashda oldingi o'ringa chiqib qoladi. Va'zga bunday yondashuvni men "ilhomlantiradigan" va'z qilish deb atayman.

Keling, ularning har birini batafsil ko'rib chiqamiz. Ularga chuqurroq nazar tashlash jarayonida, biz yaxshi ekspozitsion deb hisoblagan ba'zi va'zlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligini ko'ramiz.

TA'SIRLANTIRUVCHI VA'Z (TAASSUROTLAR UYG'OTUVCHI VA'Z/IMPRESSIONISTIK VA'Z)

1850–yillarda tasviriy san'atning *realizm* uslubi ommalashgan edi. Bu yo'nalishga ko'ra, rassom ko'rgan narsalarini imkon qadar aniqroq, hayotiy qilib yetkazishga harakat qilardi. Bu san'at yo'nalishi fotosuratning o'sha zamondagi ekvivalenti bo'lgan. Rassomlar ko'rganlarini real

aks ettirishga harakat qilganlar. Ikki yosh yigit – Klod Mone va Per-Ogyust Renuarlar o'sha paytda endigina tasviriy san'atning realizm yo'nalishini o'rganayotgan talabalar edilar. Ular do'stlashib qolib, xuddi o'sha zamonning boshqa rassomlari kabi birga rasm chizadigan bo'lishdi. Bu yosh yigitlar, o'zlarining realizm yo'nalishida ijod qiladigan ustozlaridan farqli o'laroq, yorqin ranglardan foydalanishni, tarixiy yoki afsonaviy sahnalarni emas, aksincha, o'z zamonidagi hayotni qog'ozda aks ettirishni ma'qul ko'rardilar. Shu bilan birga bu ikki yigitning ongli ravishda o'zlaridan avval o'tgan ijodkorlar foydalangan romantizm ruhidan uzoqlashganlari e'tiborga loyiq.

1863–yili Parijda bo'lib o'tgan tanlov sifatidagi Parij ko'rgazmasi yosh rassomlarning jamoa sifatida o'zlarini namoyish qilishlariga yordam bergan voqea bo'ldi. O'sha ko'rgazma va tanlovda bu ikki rassomning ko'plab ishlari hakamlar tomonidan rad etildi, biroq bu rad etilish keyinchalik muqobil ko'rgazma – “Rad etilgan suratlar”¹⁴ ko'rgazmasi tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Ko'rgazmadan keyingi o'n yil davomida yosh rassomlar o'zlarining yangicha uslublarini namoyish etishlari uchun muqobil ko'rgazmalar o'tkazilishini so'rab bir necha bor murojaat qilishdi. Biroq ularning iltimoslari muntazam ravishda rad etilaverdi.

1873–yili Mone, Renuar va boshqa bir qancha rassomlar o'z asarlarini doimiy ravishda ommaga taqdim etish uchun anonim guruh tuzdilar. Ushbu yangi guruhning birinchi

14 Bernard Denvir, *Temza va Hadson impressionizmi ensiklopediyasi* (London: Thames and Hudson nashriyoti, 1990); [Bernard Denvir, *The Thames and Hudson Encyclopedia of Impressionism* (London: Thames and Hudson, 1990)].

ommaviy ko'rgazmasi Parijda 1874–yilning aprel oyida bo'lib o'tdi. Ammo bu vaqtga kelib ularning uslublarida sezilarli o'zgarishlar paydo bo'ldi. Renuar realizmdan uzoqlashib, yangicha uslublarni qo'llab ko'rishni boshladi. Mone esa rasmlarini o'zgacha tarzda – cho'tkasini yengil harakatlantirish natijasida hosil bo'lgan uslubda bo'yay boshladi. Bu keksa avlod ko'rishga o'rganib qolgan aniq tasvirlardan hali ham farq qilardi. U ko'rgan narsasini emas, uning umumiy shaklini tasvirlardi. Masalan, uning “Taassurot, quyosh chiqishi” suratida Gavr shahrining bandargohidan ko'tarilayotgan quyosh tasviri tushirilgan edi. Bu surati real tasvirlanmagani uchun Monedan suratning nomini so'rashganida “Quyosh chiqishi” so'zining oldiga “taassurot” degan so'zni qo'shib qo'ydi. Keyinchalik bir tanqidchi masxaraomuz tarzda ularni “impressionistlar” deb atadi. Bu tasviriy san'atning hamda rassomlarning yangi va o'ziga xos yo'nalishiga asos soldi.

Guruhning tasviriy san'atga qo'shgan dadil yangiliklaridan biri bu yorug'likdan o'zgacha tarzda foydalanish bo'ldi. Misol uchun, Renuarning “Mulen de la Galetdagi raqs” suratida Parijning Monmartr tumanidagi bir bog'da bo'lib o'tgan bazm tasvirlangan. Rasmni chizar ekan Renuar quyosh charaqlab turganini tasvirlash uchun yer yoki qahramonning ustki kiyimi ustidan oq chiziqlar yurgizadi. Yorug'likning o'zgarishi tafsilotlarning bo'rttirib ko'rsatilishiga sabab bo'ladi va bu rassom real hayotda ko'rgan tasvirni buzib yuboradi.

Impressionistik uslub ko'z ko'rgan narsani oladi-da, uni ta'riflaydi, bo'rttiradi va ba'zi real tasvirlarni ko'zdan qochiradi va oxir-oqibat asl tasvir buziladi.

Endi esa o'ylab ko'ring, va'zga tayyorgarlik ko'rayotganingizda nima qilasiz? Birinchi navbatda Muqaddas Kitobingizni ochasiz. Vaqtingiz ziq. Bugun kechqurun bitta yoki ikkita uchrashuvingiz bor. Ehtimol oilangiz bordir yoki xodimlaringizga yordam berishingiz kerakdir. Undan tashqari cho'pon sifatida qilishingiz shart bo'lgan anchamuncha ishingiz bor. Biroq shunga qaramay, yana yakshanba kuni uchun so'z tayyorlashingiz kerak. Shunday qilib, parchani o'qiyisiz-da, xuddi rassom oq matoga tezgina bo'yoq yurgizganiday, kompyuteringizga tushunganlaringizni yozib qo'yasiz, o'zingizcha matn bilan dunyo o'rtasida ko'prik yasaysiz.

Siz va'zga tayyorgarlik ko'rar ekansiz, tinglovchilaringizda o'sha zahoti ular da *taassurot qoldiradigan* fikr yoki ma'lumotni topishga harakat qilasiz. Siz mana shu bir lahzalik ta'sirlantiradigan g'oya bilan yona boshlaysiz. Tinglovchilarda taassurot qoldirish aslo murakkab emas. Tez orada asosiy fikr ham topiladi. Siz kontekstni yaxshi bilasiz, qolaversa, siz ham, yakshanba kuni jamoatga keladigan jamoatingiz a'zolari ham tarixiy voqealarga unchalik qiziqmaysizlar. Aslida sizni tinglovchilarning e'tiborini jalb qila olganingiz uchun mana shu vazifaga tayinlashgan. Siz ko'zlagan maqsadingizga qisman erishdingiz, chunki ular Muqaddas Kitobdagi voqealarni qadimiy realligidan chekinib, sizning bu xabarlarini qanchalik kuchli taassurot qoldiradigan darajada yetkazib berganingizdan hayratda qolishdi. Afsuski, matnni batafsil ko'rib chiqish unchalik muhim emas, deb o'ylaysiz.

Bu hafta ham xuddi o'tgan safargiday, asosan, matndagi

tinglovchilarni ta'sirlantiradigan dalillarga e'tibor qaratasiz. Tinglovchilarni ta'sirlantirishi mumkin bo'lgan misollar ham yarq etib xayolingizda paydo bo'la boshlaydi. Soatga qaraysiz, ishlab o'tirganingizga endigina 15 daqiqa bo'libdi.

Mana, ta'sirlantiruvchi va'z ana shunday tayyorlanadi.

Bunday va'zlarni tez-tez uchratamiz. Aslida bu bugungi kunda voizlar oldida turgan eng muhim muammo hisoblanadi. Ta'sirlantiruvchi va'z nafaqat matnning voqeligini, balki uning tarixiy, adabiy va ilohiy xususiyatlarini ham e'tiborga olmaydi. Bunday va'zning "antiqa"ligi shundaki, siz yillab o'rgangan bilim va mahoratlaringizni chetlab o'tadida, matnga birrov nazar tashlab, tezda impressionistik xulosa chiqaradi. Agar realist rassom qog'ozga (yoki matoga) bir marta cho'tka urishdan oldin, ob'ektga o'n marta qarasa, impressionist rassom ob'ektga bir marta qaraydi-yu, o'n marta qog'ozga cho'tka uradi. Ta'sirlantiruvchi va'z aytadigan voizni ham impressionist rassomga o'xshatsa bo'ladi.

Shubhasiz, ta'sirlantiruvchi va'z aytish oson va tez tayyor bo'ladi. Agar ish jadvalingizning tig'izligini hisobga oladigan bo'lsak, bu usulda va'z tayyorlash mantiqan to'g'ri deb hisoblash mumkin. Ammo oxir-oqibat siz matnni o'zingiz istaganingizcha o'zgartirayotganingizni anglab yetishingiz kerak.

Keling, bunga bir misol keltiramiz. Aytaylik, siz yosh ota-onalar guruhi uchun bir va'z tayyorlashingiz kerak. Siz Muqaddas Kitobni ochasiz-da, 1-Shohliklar 2:12-21 ni tanlaysiz. Endi mana shu parchani o'qib chiqing:

Ruhoniy Eliyning o'g'illari yaramas odamlar edilar. Ular Rabbiyni va xalq oldidagi o'z

ruhoniyluk burchlarini bilmas edilar. Kimdir qurbonlik keltirganida, ruhoniyning o'g'li uch tishli sanchqi bilan kelib, qurbonlik go'shti qaynatilayotgan paytda sanchqini qozonga yoki tovaga, yo bo'lmasa tovoqqa tiqar edi. Sanchqiga ilinganini ruhoniyl o'ziga olar edi. Ular Shilohga kelgan barcha isroilliklarga nisbatan shunday ish tutar edilar. Hatto qurbonlikning yog'ini tutatmasdan oldin, ruhoniyning o'g'li kelib, qurbonlik keltirayotgan odamga: "Ruhoniylga qovurish uchun go'sht ber! U sendan qaynatilgan go'sht olmaydi, xomidan ber", - der edi. Agar kimdir unga: "Avval qurbonlikning yog'ini tutatsinlar, keyin esa xohlaganingizcha olavering", - deydigan bo'lsa, u javoban: "Yo'q, hozir ber, bo'lmasa, zo'rlik bilan tortib olaman", - der edi. Shunday qilib, bu odamlarning gunohi Rabbiiy oldida juda og'ir edi, chunki ular Rabbiiylga qurbonlik keltirishdan xalqning ko'nglini qoldirar edilar. O'spirin Shomuil esa zig'ir efodni kiyib, Rabbiiy huzurida xizmat qilib yurar edi. Onasi har yili unga ustki kiyim to'qib, otasi bilan har yilgi qurbonlikni keltirish uchun kelganida unga olib kelar edi. Ruhoniyl Eliy esa Elqanahga: "Rabbiiylga bag'ishlagan farzandingning o'rniga Xudovand senga shu xotindan yana farzandlar bersin", - deb, uni xotini bilan duo qildi va ular o'z uylariga ketdilar. Rabbiiy Xannahni yodga oldi. U homilador bo'lib, yana uch o'g'il, ikki

qiz tug'di. O'spirin Shomuil esa Rabbiyning huzurida o'sib-ulg'ayar edi.

Ushbu matnni birinchi marta o'qiganingizdayoq uch narsa diqqatingizni tortadi:

1. Matn ikki xil toifadagi ota-onalarni: Eliy va uning yaramas o'g'illari hamda Xannah va uning Rabbiyga xizmat qilayotgan jaji o'g'li Shomuilni taqdim etadi.
2. Ularning orasidagi tafovutdan hayratlanasiz. Eliyning hikoyasi xuddi yomon ota-onalikning qo'llanmasiday ko'rinsa, Xannahning xatti-harakatlari esa yaxshi natija berganligini ko'ramiz.
3. Va'zingizga ikkita misol topildi. Birinchidan, yomon ota-onalar farzandiga juda ko'p ovqatlanishga ruxsat berishsa, yaxshi ota-onalar bunga ruxsat bermaydilar. Eliyning o'g'illari qurbonlikka keltirilgan go'shtdan yeyishi juda jirkanchli edi! Ikkinchidan esa yomon ota-onalar o'z farzandlarini Xudoga yo'naltirish uchun jamoatdagi bor imkoniyatlardan foydalanmaydilar, yaxshi ota-onalar esa aksincha doim farzandlarini Xudoga yo'naltirishga hoziru nozir. Imkoniyat bo'lganida Hannax Shomuilni jamoatga taklif qilgani qanday yaxshi!

Mana, va'z rejangiz ham tayyor. Eng muhimi, siz gapiradigan gaplar jamoatingizdagi yosh ota-onalarning hayotiga tegishli bo'lsa bo'lgani. Siz va'zingizda bolalarning jismoniy ahvoli haqida gapirishingiz mumkin. Ularning ruhiy farovonligiga ham tegishli bo'lgan misollarni/tamoyillarni topishga ham ko'p vaqt va kuch talab etilmaydi.

Keyin esa va'zingizni taqdim qilasiz. Binobarin, bunday va'zlar natijasida yangi bolalar dasturlari paydo bo'lishi odatiy hol. Bu ajoyib-ku, chunki odamlar masihiycha tarbiyaning naqadar muhimligi haqida gapirishadi, deb o'ylashingiz mumkin.

Afsuski, jamoatlarda mana shunday ta'sirlantiradigan va'zlar ko'paymoqda. Ko'rinib turibdiki, biz va'z tayyorlashga ko'p vaqt sarflamayapmiz. Bunga zarurat ham yo'q. Biz qisqa vaqt ichida va'z tayyorlaymiz va bu ish beryapti. Va'zlarimiz deyarli badihaga (va'z jarayonining o'zida paydo bo'layotgan va'z) aylanib qoldi.

Biroq, bu bilan biz Xudo Kalomining xazinasidan quruq qolyapmiz. Biz matnning asosiy mohiyatini o'tkazib yuboryapmiz. Keling, 1–Shohliklar 2:12-21–oyatlarni yana bir marta o'qib chiqamiz. Aslida bu parchaning asosiy mazmuni bolalar tarbiyasi haqida emas, *Xudoning muqaddasligi haqida*. Xuddi shunday, bu parcha Xudoning xalqini noto'g'ri boshqarish Xudoni masxara qilish bilan teng ekanligi haqidadir. Matndagi asosiy muammo Xudoni to'g'ri ulug'lamaslik yoki to'g'ri sajda qilmaslikdir. Agar biz kitobga yaxshiroq e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xudoning xalqi ichida "almashinuv" mavzusi borligini ko'ramiz. Aynan shunday vaziyatda Shomuilning tilga olinishi bejiz emas, u Eliyning

o'g'illariga muqobil sifatida Xudoning Kalomiga muvofiq sajda qiladigan ruhoniy bo'lib ko'tarilishini ko'rishimiz mumkin. Xudoning So'zi amalga oshmas ekan, Xudo O'z ishini bajara olmaydi. Garchi ba'zan umid yo'qday ko'rinsa ham, Xudo boshqa ruhoniyni ko'tarayotgan bo'ladi.

Demak, bu parchani va'z qilayotganimizda ota-onaning tarbiyasi haqida hech narsa deya olmaymizmi? Albatta, tarbiya haqida gapirish mumkin, ammo u matnning asosiy mavzusi emas. Ikkilamchi darajadagi mavzular va bu mavzuga hayotiy misollar matnning asosiy mazmuniga soya solmasligi kerak. Albatta, biz Muqaddas Kitobdan bolalar tarbiyasi haqidagi mavzularda va'z qilishimiz mumkin, biroq shu bilan birga matnning asosiy mazmuniga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz kerak. Va'zning farqi mana shunda. Muammo ham mana shunda. Biz Muqaddas Kitobdagi parchalarni o'qiyimiz-u, Muqaddas Ruh ta'kidlayotgan mavzuga e'tibor qilmaymiz. Xudoning Kalomini bor-yo'g'i xudojo'y hayot kechirish tamoyili sifatida qabul qilamiz. Shohliklar birinchi kitobida keltirilgan misolda biz Masihni chiqarib tashlab, uning o'rniga vazifasini eplay olmagan ruhoniya e'tibor qaratdik. Isoning o'rniga impressionizmga e'tibor qaratdik. Shu sabab bugun masihiy ota-onalar Muqaddas Kitob xabari asosida yashash o'rniga, ko'proq axloqiy tamoyillar bilan yashaydigan odamlarga aylanishgan.

Bu kabi impressionistik voizlik jamoatda asosan "dunyo tashvishlari"ga (Mark 4:19) e'tibor qilinadigan joyda gullab yashnaydi. Aniq natijalarga yo'naltirilgan amaliy muhitda yoki Sharqiy Osiyoday ishlashga yo'naltirilgan madaniyatlarda, rivojlanayotgan davlatlarda (masalan, mening jamoam


Janubiy Osiyoda xizmat qiladi) impressionistik va'zlar ko'p hollarda va'z qilishga tayinlangan odamlarga ko'rsatilgan pragmatik bosimlar natijasidir. Men ularni tushunaman.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, impressionistik va'z qilish asosiy muammo emas. Bu *kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashishning* tabiiy oqibati bo'lishi bilan birga, u hamma vaqtimizni o'g'iraydi. Charlz Simeon Muqaddas Kitobni o'qib o'rganar ekan, eng muhimi Muqaddas Kitobda nima deyilganini tushunish ekanligiga ishonardi. Mana shu ishonch uni chetga chiqib ketishdan, noto'g'ri talqin qilishdan saqlagan. Biz ham mana shu narsaga amal qilib, uni yodda tutishimiz kerak. Muqaddas Kitobni o'rganayotganingizda yoki va'zga tayyorgarlik ko'rayotganingizda tezda, o'zingiz anglamagan holda impressionistik yondashuvga berilib ketishingiz mumkin. Bundan ehtiyot bo'ling. Ayniqsa, agar siz tabiatan jozibali (zamonaviy yoki xippi) inson bo'lsangiz, yoki shunday bo'lishga harakat qilayotgan bo'lsangiz, bu usulga o'rganib qolishingiz mumkin. Bordiyu, siz allaqachon bu yo'nalishda bir oz tajribaga ega bo'lib ulgurgan bo'lsangiz (va odamlardan maqto'v olgan bo'lsangiz), u holda siz o'zingizni talqinchi deb hisoblay boshlagansiz. Ammo keyingi boblarda siz Muqaddas Kitobni talqin qilish boshqacha yondashuvni talab etishini bilib olasiz.

MASTONA VA'Z (MUQADDAS KITOBDAN YORUG'LIK, OCHIQLIK UCHUN EMAS, O'Z FIKRLARINI TASDIQLASH UCHUN FOYDALANISH)

Keling, ofisimizdan tashqariga chiqib, va'z qilishda Muqaddas Kitobdan qanday foydalanishimiz haqida fikr

yuritib ko‘raylik. Shotlandiyalik shoir Endryu Leng o‘z zamonasining siyosatchilarini statistik ma‘lumotlarni o‘z foydalariga ishlatganlari uchun tanqid qilib, ularga hazilona kuchli zarba bergan edi.¹⁵ Uning so‘zlarini biroz o‘zgartirgan holda, bu gapni bugungi kundagi ko‘plab Muqaddas Kitobdan ta‘lim beruvchilarga ham qaratish mumkin: “Mast odam chiroq ustuniga yorug‘likdan bahramand bo‘lish uchun emas, shunchaki yiqilib tushmaslik uchun suyanish maqsadida foydalanganiday, ba‘zi voizlar ham Muqaddas Kitobdan yorug‘lik, ochiqlik olish uchun emas, o‘z fikrlarini tasdiqlash uchun foydalanadilar.”



Bu “mast” yoki mast-alast voizdir. Sizga bunday yo‘l tutmaslik kerakligini aytishga hojat bo‘lmasa kerak. Aslida har birimiz qachondir mana shunday yo‘l tutganmiz, faqat buni bilmaganmiz.

Keling, bu qanday usul ekanini sizga tushuntirib

15 Endryu Lang haqidagi hikoya va iqtibos manbasi aniq emas, biroq u keng tarqalgan iqtiboslar to‘plamlarida keltirilgan, masalan, Elizabet M. Noulz, *Oksford iqtiboslar lug‘ati*, 7–nashr (Oksford: Oxford University nashriyoti, 2009), 478:12; [Elizabeth M. Knowles, *The Oxford Dictionary of Quotations*, 7th ed. (Oxford: Oxford University Press, 2009), 478:12].

beraman. Biz tinglovchilar qarshisida turib, aytmoqchi bo'lgan fikrlarimizni tasdiqlash uchun Muqaddas Kitobdan oyatlar/dalillar keltirganimizda (suyanganimizda), faqat Muqaddas Kitob bizga aytmoqchi bo'lgan ma'noni aytish o'rniga mast odamday yorug'lik olish o'rniga chiroq ustuniga suyangan mast odamday harakat qilganmiz. Voiz uchun eng to'g'ri ish bu "chiroq ustuni tagida turib" – matnning nuridan to'g'ridan to'g'ri bahramand bo'lishdir. Zero, biz va'z qilayotganlar emas, balki aynan Muqaddas Kitob Ruhning Kalomidir (Ibroniylar 3:7; Yuhanno 6:63 ga qarang).

Bunday yondashuvga eng aniq va halokatli misollardan biri bu *farovonlik xushxabari* deb nomlanadigan soxta ta'limot hisoblanadi. Men Keniya bo'ylab sayohat qilganimda va Afrikaning qolgan davlatlarida ham xuddi shu narsani eshitganimda, janubdagi ko'plab voizlar odamlarga Muqaddas Kitob yerdagi hayotimiz davomida va'da qilmagan sog'lik va boyligni va'da qilayotganlarini angladim. Ehtimol, voizning kundalik hayoti shunday o'tar. Ammo bu Muqaddas Bitikda yozilganlariga to'g'ri kelmaydi.

Men ko'p yillardan buyon voizlik qilaman va hozir ortga qarab, men ham ko'p marotaba mast odamning va'ziga o'xshash va'zlar qilganimni eslayman. Men o'z fikrlarimni bitiklardan tasdiqlash uchun Muqaddas Kitobga murojaat qilganman. Bunday usul menga juda qo'l keldi. Muqaddas Kitob men o'ylaganlarimni amalga oshirishimga yordam berdi. Ba'zida, aslida men Xudo ilohiy maqsadi yo'lida foydalanishi kerak bo'lgan vosita bo'lishim kerakligini nazardan qochirdim. Mening vazifam ma'lum bir matnda berilgan xabarni odamlarga yetkazishdir.

O'tmishda men qilgan xatoni har birimiz takrorlashimiz ehtimoli bor. Xuddi mast odam chiroq ustunidan foydalanganday Muqaddas Kitobdan foydalanishning ko'plab usullari bor. Ehtimol, sizning doktrinal qarashlaringiz aql bovar qilmaydigan darajada kuchlidir. Bu qarashlaringiz matn nima haqida bo'lishidan qat'i nazar, siz va'z qilayotgan har bir parchaning ma'nosiga aylanishi mumkin. Ehtimol, matndagi Muqaddas Ruh uzatayotgan fikrni e'tiborga olmasdan o'z siyosiy, ijtimoiy yoki terapevtik xulosalaringizni olg'a surayotgandirsiz. Aslida, ekspozitsion va'z qilish o'rniga bizning xuddi mast odamning uslubiga o'xshash va'z qilishimizga moyilligimiz bir narsadan kelib chiqadi: biz Muqaddas Kitob matniga o'zimizning ichki istaklarimiz, rejalarimiz va qarashlarimizni tiqishtiramiz/yuklaymiz. Biz shunday qilganimizda, Muqaddas Kitob biz aytmoqchi bo'lgan narsamizni qo'llab-quvvatlaydigan vosita bo'lib qoladi, xolos.

Bu uslubning qanchalik tez sodir bo'lishiga shaxsiy hayotimdan bir misol keltiraman. Bir necha yil ilgari men Korinfliklarga 2–maktubdan va'z qilganman. Ushbu kitobning 8-9–boblariga kelganimda, ularni qoldirib, to'g'ridan-to'g'ri 10–bobdan va'z qilishga qaror qildim. Sababi juda oddiy. Men 8-9–boblarni keyinroq va'z qilishga qaror qildim. Bu boblar pul mablag'lari haqida, shunday emasmi? Men o'zimcha: “Bir kun oqsoqollar kelib mendan manbalardan to'g'ri foydalanish haqida va'z qilishimni so'rashadi”, deb o'yladim. O'sha paytda jamoatimiz moddiy jihatdan gullab-yashnayotgan payt edi. Shuning uchun men bu boblarni keyinroqqa, moddiy mablag'ga muhtoj bo'lgan paytimizga olib qo'yish to'g'ri bo'ladi, deb o'yladim. Matn ketma-ketligiga qat'iy amal

qiladigan menday voiz uchun 8-9–boblarni qoldirib ketish deyarli noodatiy ish edi.

Chindan ham o‘shanday vaqt keldi. Men Korinfliklarga 2–maktub 8-9–boblarni ochdim. Astoydil o‘tirib saxiylik bilan berishning qanchalik muhimligi haqida va‘z qilish maqsadida tayyorgarlik ko‘rishga kirishdim. Endi bir narsaga diqqat qiling, men o‘z ofisinga kirib ketayotganimda allaqachon va‘zda nima haqida aytishimni aniq bilardim. Men va‘zimni saxiylik bilan berishning foydalariga e‘tibor qaratadigan uchta oyat asosida rivojlantirishni o‘ylab qo‘ygandim:

Shuni aytib qo‘yayki, xasislik bilan ekadigan xasislik bilan o‘rib oladi: saxiylik bilan ekadigan esa saxiylik bilan o‘rib oladi. Har kim qayg‘u yoki majburiyat bilan emas, balki yurak xohishi bilan bersin, chunki Xudo quvonib beruvchini sevadi. Sizlar hamisha hamma narsada har qanday qanoatga ega bo‘lib, har qanday xayrli ishlarga boy bo‘lishingiz uchun Xudo sizlarni har qanday inoyati bilan boy qilishga qodirdir.

Yozilganidek:

“Sarflab, kambag‘allarga berdi; uning haqligi abadiy turadi”. (Korinfliklarga 2–maktub 9:6-9)

Birinchidan, men Xudo bizdan pulga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishimizni xohlashini aytishdan boshlayman. Ushbu bobning 6–oyatida saxiylik bilan bergan saxiylik bilan o‘rib oladi, deb yozilgan (Men va‘zimni shu tarzda boshlasam yaxshi, chunki shu orqali tinglovchilarni Xudoga berishga

chaqiraman, deb o'yladim). Undan keyin, 7–oyatda, Xudo quvonib beruvchini yoqtirishini aytadi. Berish uchun chorlov (Xudo sizga mo'l-ko'l qilib qaytaradi) va'zimning ikkinchi bandi bo'ladi, deb o'yladim. Chunki 8–oyatda shunday deyilgan: "... har qanday xayrli ishlarga boy bo'lishingiz uchun Xudo sizlarni har qanday inoyati bilan boy qilishga qodirdir." Oxirida esa saxiylik bilan berishga ruhan dalda berish uchun Zaburdan bir necha oyatni iqtibos tariqasida keltiraman. Chunki Zabur 111:9 Xudoning O'zi "tarqatib yubor"ganini va "kambag'allarga bo'lishib ber"ganini ko'rsatib turibdi (Zabur 111:9). Mening uch bosqichli rejam quyidagicha ko'rinishda edi:

1. Korinfliklarga 2–maktub 9:6-7 – Xudoga bering (U bizning shunday qilishimizni istaydi).
2. Korinfliklarga 2–maktub 9:8 – Xudodan barakalar olishga tayyor bo'ling (bu chorlovimizga to'g'ri keladi).
3. Korinfliklarga 2–maktub 9:9 – Berish orqali biz Xudoga taqlid qilamiz (Eski Ahd shunday deydi).

Garchi matnni o'rganishga ko'p vaqt sarflamagan bo'lsam-da, bu va'z tinglovchilar tushunadigan darajada oson va yoqimli bo'lishiga ishonchim komil edi. Men juda amaliy va ruhan ta'sirli xabarni yetkazishga tayyor edim. Men jamoatimiz odamlariga qanday mavzudagi va'zni yetkazishim kerakligini bilardim va Muqaddas Kitobdan shunchaki fikrimni tasdiqlash uchun foydalandim.

Ammo qiziq bir narsa sodir bo'ldi. Hali yakshanba kelmasidan oldin, va'zga kirishishimdan oldin, bu parchalarni chuqurroq o'rganib chiqishni boshladim. Bu boblardan o'rganganlarim avvalroq va'z qilishga tayyorlab qo'ygan fikrlarimning hammasini chippakka chiqardi. Men 1–Korinfliklarga 16:1-4 va Havoriylar faoliyatlari 11:27-30 dan bu parchada ba'zi jamoatlardagi ochlik va muhtojlik bilan bog'liq voqea yoritilganini bilib oldim. Bu boblardagi saxiylik bilan berish mavzusi men o'ylaganday, jamoatlarda muntazam ravishda saxiylik bilan ushr va ehson berish haqida emas edi. Bu parcha dunyoning boshqa burchagidagi, asosan yahudiylardan iborat bo'lgan va ochlikdan qiynalayotgan jamoatlarga yordam berish haqida ekan.

Bu ham yetmaganday, men yana bir narsani bilib oldim. Korinfliklarga 2–maktub 11:5 va 12:11 dan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktubdagi asosiy bahs Pavlusning xizmati haqida ekan. Aftidan, Korinf jamoatidagilar boshqa oliy havoriylar Pavlusdan ko'ra ko'proq kuchga ega deb o'ylashgan va maktubda aynan shu masala tilga olingan edi. Pavlus so'zda johil odam edi (11:6), doim o'zini past olib kelgan (11:7), har doim muhtoj ahvolda bo'lgan (11:9) va moliyaviy manbaga ega emas edi (12:14-15). Demak, bu boblarning konteksti asosan xayr-ehson qilishga qaratilgan. Bu boblarni sinchiklab o'qiganimdan so'ng bir fikr xayolimga chaqmoqday urildi. Bu xayr-ehson shunchaki sinov bo'lgan! Agar Korinfliklar saxiylik bilan berishni boshlashsa, bu ularning "zaiflik" qanday bo'lishini tushunishlarini hamda zaif bo'lganlarning ehtiyojlarini qondirishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi. Ammo, agar ular qizg'anib berishsa, ular bor-yo'g'i bularning

bariga ega bo'lgan odamlar bilan birgaligini ko'rsatardi. Shunda birdaniga, men butun bir kitobni noto'g'ri talqin qilish xavfi yoqasida turganimni angladim!

Keyin esa hammasi ostin-ustun bo'lib ketdi. Men Korinfliklarga 2–maktub 9:9 da Zabur kitobida keltirilgan iqtibos bizga Xudoday saxiy bo'lishni o'rgatadi deb o'ylagan edim. Aslida bu oyat bizga “solih inson” kabi bo'lishni o'rgatar ekan. Pavlus Korinfliklarni Xudoga taqlid qilish uchun saxiylik qilishga undamagan. Aksincha, saxiylik Xudoga ergashganlarning umumiy xususiyatidir.

O'sha damda qiyin ahvolga tushib qolganimni angladim. Men jamoat byudjetida yuzaga kelgan taqchillikni hal qilish maqsadimga erishish uchun Muqaddas Kitobga asoslangan ajoyib rejani ishlab chiqqan edim. Ammo, afsuski, bu ishda men xuddi chiroq ustuniga yorug'likdan bahramand bo'lish uchun emas, shunchaki suyanish uchun foydalangan mast odamning ishini qildim.

Endi men javob berishim kerak bo'lgan quyidagi savollar qolgan edi: xo'sh, bu vaziyatda endi kim Shoh bo'ladi? Menmi? Yoki Muqaddas Kitob matnimi? Bu hafta men Muqaddas Kitobni boshqaramanmi yoki Muqaddas Kitob meni boshqaradimi? Men shunchaki o'z maqsadlarim va rejalarimni amalga oshirish uchungina Muqaddas Kitobdan foydalanamanmi, yoki chiroq ustuni ostida Muqaddas Ruh menga parcha orqali tinglovchilarimning ongini va yuraklarini yoritishiga yo'l qo'yamanmi?

Oxir-oqibat, Charlz Simeonning yetuk inson sifatidagi sabr-toqati va o'zini nazorat qila olish xislatiga bo'lgan havas men uchun hal qiluvchi omil bo'ldi. “Men bu masalaga o'ta

ehtiyotkorlik bilan yondashaman: men talqin qilmoqchi bo'lgan matn orqali Muqaddas Ruh nimani aytmoqchi bo'lsa, faqat o'shani aytaman, undan ortiq ham, kam ham aytmayman.”¹⁶

Men o'z tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, mening noto'g'ri/mast odamning va'zi kabi voizlik qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarim doimo *kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashuvga* asoslangan. Lekin shunga amin bo'ldimki, jamoatimning ruhiy ehtiyojlari yoki odamlarning istaklari emas, Xudoning turtkisi mening va'zimni boshqarishi kerak. Muqaddas Kalomni istagan ko'yimizga sola olmaymiz. U – Xudoning So'zi. U – oliyhukmron Kitob. U har doim g'olib chiqishi kerak. Uning haqiqatlari ustuvor bo'lishi kerak.

Bizning voiz va Muqaddas Kitob o'qituvchilari sifatidagi vazifamiz – Muqaddas Ruh tomonidan avval yozib qoldirilgan so'zlarga asoslanish, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, chiroq ustuniga yorug'lik uchun kelish va yorug'likdan bahramand bo'lishdir. Demak, bugungi kundagi vazifamiz Xudo avval nima degan bo'lsa, o'shani aytish. Chunki Xudo hali ham O'z Kalomi orqali gapiradi.

“ILHOMLANGAN” VA'Z

Biz ekspozitsion va'z qilishda kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashish qanday ikkita salbiy oqibatga olib kelishini ko'rib chiqdik. Birinchidan, bu yondashuv voizning

16 Xendli Karr Glin Moul, *Charlz Simeon* (London: Methuen & Co. nashriyoti, 1892), 97–bet; [Handley Carr Glyn Moule, *Charles Simeon* (London: Methuen & Co., 1892), page 97].

tayyorgarlik jarayoniga qanday ta'sir qilishini o'rgandik. Bunday usul bilan tayyorgarlik ko'rish natijasida tasavvurga asoslangan, ya'ni *ta'sirlantiruvchi/impressionistik* va'z kelib chiqadi. Ikkinchidan, kontekstualashtirishga ko'r-ko'rona yondashish voizning Muqaddas Kitobdan foydalanish usuliga qanday salbiy ta'sir qilishini ko'rdik. Har hafta "dolzarb masala"larni va'z qilishim kerak degan bosim oqibatida *mast odamning va'ziga* o'xshash, asl ma'nodan uzoqlashgan va'zlar paydo bo'lishi mumkin.

Endi esa men voizni o'z kabinetidan va jamoatdan tashqariga olib chiqib, u Muqaddas Kitobni shaxsan qanday o'qishiga diqqatingizni qaratmoqchiman. Chunki aynan shunday paytlarda, aniqroq qilib aytadigan bo'lsam, uning sokin vaqt paytida qo'llaydigan zamonaviy o'qish usullari Xudoning Kalomini omma oldida va'z qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslida, agar siz sokin vaqt paytida qo'llaydigan usullaringiz bilan kontekstualashtirishga ko'r-ko'rona yondashish usulini qo'shadigan bo'lsangiz, men "*ilhomlangan va'z*" deb ataydigan va'z paydo bo'ladi.

Keling, buni yaxshiroq tushuntirib beraman. Muqaddas Kitob ilohiy ilhom bilan yozilgan oliyhukmron So'zdir va doim shunday bo'lib qoladi. Biroq, afsuski, bugungi kunda ba'zi voizlar Muqaddas Kitobni sokin vaqt paytida o'qish jarayonida nimani his qilsa, o'sha his-tuyg'ularni Xudoning ilhomi deb qabul qilishmoqda. Bugungi kunda Muqaddas Kitob o'qituvchilariga: "Muqaddas Kitobni o'qiyotgan paytingizda yuragingizga nimadir ta'sir qilsa, demak *Muqaddas Ruh* diqqatingizni shunga qaratmoqda va buni ommaga ham aytishingiz kerak", deb o'rgatilyapti.

Bunday o'qish uslubining paydo bo'lishiga bir misol keltiraman, u ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Bu usul "Lectio Divina" deb ataladi. Bu Benedikt tartibiga xos an'anaviy Muqaddas Kitobni talqin qilish usuli bo'lib, asosiy maqsadi Xudo bilan yaqin aloqa (ruhan birlik) o'rnatish bo'lgan. Muqaddas Kitobni chuqurroq o'rganishga esa kamroq e'tibor qaratilgan. Bu usul Muqaddas Kitob matnlarini o'rganiladigan yozma so'zlar sifatida emas, balki "Tirik So'z" sifatida qabul qilishni afzal ko'radi. U sokin vaqt paytida an'anaviy o'qish usuliga quyidagi to'rt qadamni kiritadi: o'qish, mulohaza qilish, ibodat qilish va kuzatish. Bu jarayon paytida qalbingizni tinchlantirib, Kalomni oddiy o'qishni boshlaysiz. So'ng, birorta so'z yoki ibora ustida fikr yuritasiz. Bu bosqichda parchani tahlil qilishga (analitik yondashuvga) ongli ravishda yo'l qo'yilmaydi. Bu usulda, asosan, parchaning ma'nosini Muqaddas Ruh ochib berishini kutasiz. Bu holatda Iso kelib, yuragingizga murojaat qiladi, deb ishoniladi. Ma'no ayon bo'lganidan so'ng, ibodat bosqichiga o'tasiz. Chunki ibodat – Xudo bilan muloqotdir. Xudo O'z So'zi orqali gapiradi, inson esa ibodat orqali javob qaytaradi. Oxirida esa bu ibodat chuqur, kuzatuvchi ibodatga aylanadi va bu orqali inson chuqurroq ilohiy haqiqatlarni anglash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bu usul juda ajoyib ilohiy usulday tuyuladi. Hatto bu usulni Muqaddas Kitobning o'zi ham tasdiqlayotganga o'xshaydi: "Bizga esa Xudo buni O'z Ruhi bilan oshkor qildi. Chunki Ruh hamma narsani, hatto Xudoning teranliklarini tekshirib ko'radi" (1-Korinfliklar 2:10). Bu parchada havoriy Pavlus aslida nima demoqchi ekanini bir oz keyinroqqa

qoldirib, *Lectio Divina* Muqaddas Kitobni tizimli o'rganishdan voz kechib, ruhiylikka tayanishiga e'tibor qaratsak. Bu usul Kalomni ekspozitsion talqin qilish o'rniga ichki tuyg'uga/intuitsiyaga tayanadi. U muhit va hissiyotni, ya'ni kayfiyatni uslubli va aqlga asoslangan tahlildan ustun qo'yadi. Uning xavfli tomoni insonning o'z ruhini Muqaddas Ruhga tenglashtirib qo'yadi.

Kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashuv usuliga bu juda qo'l keladi! Bugungi kunda odamlar Xudodan ko'proq bizning qashshoqlashgan ruhiy hayotimizga ozuqa beradigan "yangi xabar"ni eshitishni istaydilar.

Aslida *Lectio Divina* tarixda rim-katolik cherkoviga xos tafsir, ya'ni izohlab berish usuli bo'lgan. Biroq, so'nggi yillarda, ayniqsa, yevangelik protestantlar orasida bu usul qayta ommalashmoqda. Garchi bu usulning nomi ishlatilmasada, yosh voizlarni va'zga tayyorlashda qo'llanadigan usulga juda o'xshaydi. Ularga sokin vaqt olib Muqaddas Kitobni tinchlikda o'qishni, Muqaddas Ruhning gapirishini kutishni o'rgatishadi. "Ishonchingiz komil bo'lsin, Xudo sokin vaqt paytida qalbingizga solgan ochiqliklarini boshqalarning hayotida ham qo'llaydi. Shuning uchun buni va'z qiling! Xudo qalbingizga gapirgan narsa mana shu", deyishadi.

Keling, ko'pincha taqvimlarga (kalendarlarga) yoziladigan (va oshxonangizda ilinib turadigan) ajoyib oyatlardan biri Filippiliklarga maktub 4:13 ni olaylik: "Meni qo'llab-quvvatlayotgan Iso Masihda men hamma narsa qila olaman."

Bu oyatga qanday yondashamiz? Biz bu oyatni shaxsan o'zimizga tegishli qabul qilamiz, xuddiki, havoriy Pavlus

buni bizga qarata aytganday. Keyin esa biz bu oyatdagi “hamma narsa” degan soʻzni “istalgan hamma narsa” deb qabul qilamiz. Biz “albatta, bu oyat hamma narsa deyapti”, deymiz. Hayotimizga qandaydir qiyinchiliklar kelsa (qanday boʻlsa ham), Xudo bularni yengib oʻtishga bizga kuch beradi. Ish joyimda koʻtarilishim kerakmi? Xudo kuch beradi. Oʻyin maydonida soʻnggi yigirma soniya ichida bizga uch ochko kerakmi? Xudo kuch beradi. Qanday ajoyib ilhom! Biz muvaffaqiyatga erishishimiz kerak boʻlgan paytlarga mukammal tarzda mos keladigan oyat. Biz Muqaddas Kitobni oʻqish jarayonida uni shunday tushunganimiz uchun jamoatdagilar oldida ham mana shunday vaʼz qilishga moyil boʻlamiz.

Biroq, muammo shundaki, agar biz bu parchani salgina koʻproq koʻrib chiqadigan boʻlsak, bu parchaga chuqurroq nazar tashlaydigan boʻlsak, Pavlus “hamma narsa”ni nazarda tutmayotganini bilib olamiz. Agar biz oyatning tepasidagilarni va davomini oʻqiydigan boʻlsak, bu oyat Pavlusning qamoqdagi azoblari haqida gapirgan parchasining bir qismi ekanini tushunib olamiz. U omon qolish haqida gapiryapti. U yuqori lavozimga koʻtarilish, oʻyinda gʻalaba keltiradigan ochkolar haqida emas, Xushxabar yanada koʻproq yoyilishi uchun qiyinchiliklarga dosh berish haqida gapiryapti (Filippiliklar 1:12 ga ham qarang). Deyarli ilhomlangan va juda astoydil oʻqib chiqargan xulosangizni yoʻqqa chiqarish uchun koʻp narsa kerak emas – ikkita, uchta oyatni oʻqish kifoya.

Agar bunday “ilhomlantirgan” vaʼzni oʻyin deb oladigan boʻlsak, bu juda xavfli oʻyin. U mutlaqo subʼektiv (shaxsning oʻzigagina tegishli va oʻziga xos fikri), yaʼni faqat insonning

shaxsiy tuyg'ulariga asoslangan. Agar biz Muqaddas Ruh bergan so'zlarni tushunish yo'lidagi jiddiy mehnatdan voz kechib, faqat "Ruhning niyati"ni his qilishga berilsak, u holda so'nggi so'zni Xudo emas, o'zimiz aytadigan bo'lib qolmaymizmi?! Biz parchaning ma'nosiga Muqaddas Kitobda o'z tasdig'ini topmagan yoki unga asoslanmagan o'zimizning "haqiqatlar"imizni va "maslahatlar"imizni tiqishtira boshlaymiz. Ehtimol, biz buni yaxshi sabablarga ko'ra qilarmiz. Masalan, jamoatimiz a'zolarining axloqiy holatidan xavotirda bo'lganimiz uchun yoki yashab turgan jamiyatimizga yangilanish olib kelishni chin dildan istaganimiz uchun shunday qilishimiz mumkin. Ammo, baribir, biz to'g'ri ta'limot chegarasidan chiqib ketamiz. Natijada biz "Xudo shunday gapirmoqda" deyish o'rniga, "mening fikrim quyidagicha" deyidigan bo'lib qolamiz. Biz jamoatimiz a'zolariga Xudoning So'ziga ishonish o'rniga bizga ishonishni taklif qilamiz.

Endi, Muqaddas Kitob haqida gap ketganda, ehtimol, siz ham, men ham bu nazariyaga ishonmasmiz. Biroq, o'zimiz anglamagan holda, ko'pincha, xuddi mana shu nazariyaga ishonadiganday ish ko'ramiz.

Xo'sh, bu qanday ko'rinishda bo'ladi? Ko'plab voizlar, ayniqsa, yosh voizlar matnni o'zlari o'qib-o'rganishlari uchun yoki ruhiy o'sish uchun o'qiydilar. Mohiyatan bu noto'g'ri emas, sokin vaqt paytida o'rganganlarini va'z qilish ham yomon emas. Muqaddas Ruh bizni fosh qilishiga va har birimiz asta-sekin matnda ko'rsatilgan Masihning suratiga o'xshab borishimiz kerak. Ammo muammo shundaki, biz osongina "Ruh ta'sirlantirgan" usulga o'tib olishga moyilmiz. Shu tariqa Muqaddas Ruh menga shunday demoqda, demak,

mening tinglovchilarim orasida ham shunday ishlashni istayapti, degan xulosaga kelamiz. Bu impressionistik va'zga o'xshaydi. Lekin amaliy ko'rinishda emas, "ruhga to'lgan/taqvo" ko'rinishdagi usul.

Shunday go'yo taqvodor yoki "ruhga to'lgan"day ko'rinadigan voizlikning yana bir namunasini janubiy mamlakatlarda, xususan, Lotin Amerikasidagi ba'zi xarizmatik jamoatlarda ko'rish mumkin. Animizmga asoslangan dunyoqarashlar endi shunday bir mistik (sirli) yondashuvga yo'l ochganki, u doimiy ravishda dolzarb bo'lib turishi uchun kanon bo'lgan Muqaddas Kitobning o'zi kifoya qilmaydi.¹⁷ "Ruhga to'lgan" taqvodor voizlar esa shunda yangi "vahiylar"ni maslahatlar, ta'limotlar va ijtimoiy tamoyillar shaklida taqdim etadilar. Agar shu tarzda ketadigan bo'lsa, "ruhiy maslahatlar" beradigan voiz yangi vahiylarni taqdim etishi hech gapmas. Bu kabi doiralarning ko'pchiligida ushbu odamlarga xizmat qilishga chaqirilgan kishining belgisi sifatida qaraladi. Natijada, ham o'qishdagi oddiy va ratsional yo'nalishdagi sub'ektiv izohlar ham, yangi vahiy taqdim etuvchi bunday voizlik shakli ham masihiycha "ruhga to'lganlik" niqobi ostida, Muqaddas Yozuvlarning yetarliligi (kifoyaligi) ni shubha ostiga qo'yadi.

Chalkashlikka yo'l qo'ymaslik uchun aniqlashtirib o'tay: men ekspozitsion (ya'ni, mazmunli va matnga asoslangan) voizlikda Muqaddas Ruhga o'rin yo'q, *demoqchi emasman*.

17 Bundan ko'proq ma'lumot olish uchun Migel Nunezning 2015 yil 4 martda Kaliforniya, San Vellidagi Grace Community Jamoatida bo'lib o'tgan Cho'ponlar va xizmatchilar konferensiyasidagi nutqini tinglashingiz mumkin. Uning nutqini quyidagi saytdan topasiz: <https://www.gracechurch.org/sermons/10912>

Bunday deyish juda noto'g'ri bo'lar edi. Shubhasiz, ekspozitsion va'z orqali odamlar imonga keladilar va ruhan o'sadilar. Lekin inson gunohini anglashi, Ruhdan qayta tug'ilishi, tavba qilishi va Masihga imon keltirishi hamda butun umri davomida imonda sobit turishi uchun Muqaddas Kitobning Muqaddas Ruh bilan uyg'unlikdagi ishiga muhtojmiz. Yoki buni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, "Shuning uchun ekadigan va sug'oradigan hech narsa emasdir, o'stiradigan Xudo hamma narsadir" (1-Korinfliklar 3:7).

Ma'lum bo'lishicha, Muqaddas Kitobni sokin vaqt paytida ibodat bilan o'qish va va'z qilish o'rtasidagi bu "yaqinda paydo bo'lgan" hamkorlik, xususan, kontekstuallashuv (ya'ni, sharoit va vaziyatlarga moslashish) orqali ruhan o'sishga urinish bilan bog'liq talqin, aslida, o'ylaganimizdek yangi paydo bo'lgan narsa emas ekan. Buning bir ko'rinishi XX-asrning boshlarida reformatorlar ichidagi Karl Bart va neoortodoks harakati kabi shaxslar va oqimlar orasida namoyon bo'lgan. Nemis oliy tanqidchilari Muqaddas Kitob matni buzilgan, degan fikrni "isbotlab" qo'ygan edilar — yoki hech bo'lmaganda shunday deb o'ylar edilar. Agar matn buzilgan bo'lsa, demak, imonli endi muallifning asl niyatini bila olmaydi, degan xulosaga kelingan. Bart va neoortodoks harakati umumiy ma'noda Muqaddas Kitobni yuksak qadrlagan bo'lsalar-da, so'zma-so'z vahiy borasida Kitobning ayrim qismlarida oliy tanqidchilarning fikrlariga qo'shilganlar. Natijada, neoortodoks jamoatlarida: Muqaddas Kitobga nisbatan "Bu — Xudovandning Kalomidir", deb baralla aytilmaydigan bo'lib qolgan. Uning o'rniga, imonli shunday deyishi mumkin edi: "Xudovandning Kalomiga quloq

tuting.” Bu yerdagi asosiy tushuncha shundaki: “agar bizda faqat Ruh qolgan bo‘lsa, demak, biz Undan eshitgan voizga quloq solishimiz lozim.”

Hali bir avlod o‘tib-o‘tmay, ba’zi yevangelik masihiylar ilhomlangan va’z yoki Ruh tomonidan boshqariladigan va’z ilinjida Bartdan ham ilgarilab ketmoqdalar. Bizga ishonib bo‘ladimi o‘zi? Muqaddas Ruh, shubhasiz, ishonchli va U mo‘jizaviy tarzda O‘z niyatlarini bizning qalbimizga sola oladi. Lekin bu narsa bizni matnni tahlil qilishdek mashaqqatli ishdan ozod etadimi? Agar shunday bo‘lsa, unda Uning avval boshdanoq Muqaddas Kitobni yozishlari uchun maxsus odamlarni ilhomlantirishiga qanday zarurat bor edi? Muqaddas Ruh har ikkala usulda – ekspozitsion izlanish va ibodat bilan mulohaza qilish orqali ishlay olmaydimi? Agar “ilhomlangan” voizlikka sub’ektiv yondashsak, u holda biz Xudo O‘z Kalomida nimani nazarda tutganini e’tiborsiz qoldirib qo‘ymaymizmi? Biz Uning So‘zi teranligiga emas, aksincha, zamona zayliga moslashishga harakat qilib qo‘ymayapmizmi?

DAVOM ETISHDAN OLDIN HAMMASINI JAMLASH

Voizlar uchun haqiqiy, katta muammo bu kontekstuallashuv (ya’ni madaniy yoki ijtimoiy muhitga moslashish)ga ko‘r-ko‘rona yondashish bo‘lib qoldi. Bu bizni matnni chuqur tahlil qilmasdan, faqat dolzarblikni saqlab qolishga urinishga undaydi. Agar shunday qiladigan bo‘lsak, u holda biz matn bo‘yicha juda yuzaki ish olib boradigan bo‘lib qolamiz. Ushbu bobda biz bu muammoni uch xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqdik.


Birinchisi, agar va‘zimizni madaniy kontekst asosida

shakllantiradigan bo'lsak, u holda voiz o'z kabinetida matn ustida ishlar ekan, u matnning haqiqiylikini yo'qotib, va'zini faqat shaxsiy *taassurotlar* asosida ifodalaydi.

Ikkinchisi, kontekstuallashuvga ko'r-ko'rona yondashish ko'pincha Muqaddas Kitobdan noto'g'ri foydalanishimizga sabab bo'ladi. Biz, voizlar ko'pchiligimiz amaliylikka o'rganib qolganmiz – ya'ni odamlarga hayotida to'g'ridan to'g'ri foydasi tegadigan, amalda qo'llashi mumkin bo'lgan va'zlarni berishga intilamiz. Shu bilan birga odamlarimiz nimani eshitishi kerakligini o'zimiz oldindan xulosa qilib, o'sha narsani aytishga harakat qilamiz. Shunday qilganimizda biz *“mast” holdagi voizlik* shishasidan “ichib qo'ygan” bo'lamiz.

Uchinchisi, bunday ko'r-ko'rona yondashuv borgan sari voizlarning shaxsiy sokin vaqtida olgan “ochiqliklar”i bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Voizlar “yangi” va “ruhiy” narsani xohlaydilar. Keyin o'sha shaxsiy ruhiy tuyg'ularini Xudoning xabari sifatida taqdim qiladilar. Natijada, *“ilhomlangan”* deb atalgan voizlik haqiqiy, mazmunli va matnga tayangan ekspozitsion voizlikning o'rnini egallab qo'yadi.

Shu o'rinda savol berishga haqlimiz: Kontekstuallashtirish borasidagi istagimizning nimasi noto'g'ri ekanini oddiyroq tushuntirishning iloji bormi? Menimcha bor.



Yuqoridagi rasmning o'ng tomonida: *to'g'ri tushunish* degan jumla bor. U voiz Xudoning So'zini to'g'ri tushunishga

javobgar ekanini ko'rsatadi. Bizning asosiy ishimiz ham shundan iborat. Biz hammamiz sadoqatli bo'lishni istaymiz, to'g'rimi?! Muqaddas Kitob esa bizga tirik Xudoning so'zlarini o'rgatadi. Bu rasmning chap tomonidagi: *yetkazib berish* jumlasida esa bizning yana bir javobgarligimizni ko'rsatadi. Bu ham juda muhim. Oramizda kim samarali xizmatchi bo'lishni istamaydi. Voiz har hafta mana shu ikkita javobgarlikning o'rtasida turadi. Bu ikkita javobgarlik uni siquvga oladi, ularning har ikkisi ham vaqt va e'tibor talab qiladi. Ko'p hollarda voiz birini yaxshi bajarib, boshqasini yaxshi bajara olmaslikdan qo'rqadi.

Oqibatda, voiz o'zi bilan o'zi suhbatlashadi. Taxminan bu suhbat mana shunday ko'rinishda bo'lishi mumkin: "Agar men *to'g'ri tushunish* yo'nalishiga ko'proq vaqt ajratsam, juda chuqurlashib ketaman, tinglovchilarim uchun bu og'irlik qiladi, haddan tashqari murakkablashib *to'g'ri yetkazish* qismi hayotiy ta'sirini yo'qotadi. Oxir-oqibat, agar men "Kalom voizi" sifatida tanilsam-u, biroq bu mening "Ruhga to'lgan voiz" sifatidagi obro'imga putur yetkazadigan bo'lsa, men bunga yo'l qo'yolmayman. Axir, mening mas'uliyatim faqat aqlga emas, balki qalbga ham so'zlash emasmi? Mening va'zlarim hayotiy, haqiqiy va ta'sirli bo'lishi kerak. Men faqat ruhan tug'ilish haqida o'ylaydigan, va'z qiladigan voizlardan charchadim. Aytmoqchimanki, to'g'ri ishonch muhim, albatta. Lekin agar kontekstuallashuv – ya'ni sharoitga moslashuv – meni boshqarmasa, men hech qachon o'rganganlarimni to'g'ri qo'llaydigan bo'la olmayman. To'g'ri, men matnning asl ma'nosini ochib beryapman, lekin oxir-oqibat bu yerda mening vazifam – bugungi kundagi masihiylarga ta'sir o'tkazishdir."

Xudo voizlikka chaqirgan insonning qalbi va aqlida mana shunday tortishuv bo'lsa, ya'ni "matnni to'g'ri tushunish" va "uni ta'sirli yetkazish" go'yoki bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, uyg'unlashishi qiyin bo'lgan ikkita narsaday tuyulsa, u holda ishonch bilan aytish mumkinki, bu voiz kontekstuallashuvga ko'r-ko'rona ergashish bo'sag'asida turibdi. Shu bilan birga bu voiz shaxsiy taassurotlariga asoslangan, ruhiy mast holdagi va "ilhomlangan" va'z qilishga tayyor turibdi.

Shubhasiz, bu ikki javobgarlik: matnni to'g'ri tushunish va uni to'g'ri yetkazish ikki xil, mutlaqo bir-biriga uyg'unlasha olmaydigan vazifalar emas. Charlz Simeon hamda har bir yetuk ekspozitsion va'z qiladigan voiz har ikkisiga ham sadoqat bilan ergashish yo'lini topishgan. Umid qilamanki, keyingi uchta bobda siz shunday va'z tayyorlash usulini bilib olasiz. Shunda siz ham Xudoning So'zini sadoqat bilan samarali, aniqrog'i ekzegetik tarzda/ekspozitsion tarzda tushuntira olish yo'lida yuqoridagi yetuk voizlar qatoriga qo'shilasiz.

2-BOB

EKZEGEZA

Biz matnni to'g'ri tushunish va uni to'g'ri yetkazishning ikkisini ham to'g'ri qo'llashning iloji borligini aytib birinchi bobni yakunlagan edik. Biz birini yoki boshqasini tanlashimiz shart emas. Biz ikkalasini ham qila olamiz va ularni yaxshi bajarishimiz mumkin.

Ammo qanday qilib? Matndagi xabarga sodiq qolgan holda bugungi kunga to'g'ri keladigan va'zlarni qanday tayyorlashimiz mumkin? Kontekstuallashtirishga ko'r-ko'rona yondashmay turib, buni qanday qilishimiz mumkin?

Buning yo'li bor. Yaxshi talqinchilar shu yo'ldan foydalanadilar. Keyingi uchta bob ana shu usulga asoslangan uch bosqichli jarayonni bayon qiladi: 1) ekzegeza, ya'ni matnni asl ma'noda talqin qilish, 2) ilohiy fikr-mulohaza va 3) bugungi kunga qo'llash yoki amaliy xulosalar chiqarish.

ENG MUHIMLARIGA E'TIBOR QARATISH

Har bitta va'z ekzegezadan, ya'ni matnni tahlil qilishdan boshlanishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, kontekstuallashuv, ilohiy fikrlash va bugungi kun bilan bog'liq muammolar keyingi o'rinda turadi. Chunki biz tayyorgarlik jarayonida doim eng muhimiga ahamiyat berishimiz kerak. Aniqrog'i, sadoqatli voiz va'zni tayyorlash davomida

matnning asl auditoriyasiga va o'sha o'quvchilar uchun matn nima demoqchi bo'lganiga e'tibor qaratadi. U uch xil yo'l bilan asosiy auditoriyaga e'tibor qaratadi. Qanday bo'lmasin, voiz ...

1. Muqaddas Kitob konteksti (o'zining konteksti emas) butun matnning ma'nosini boshqarishiga ergashadi.
2. O'qiyotgan parchasi butun kitob xabariga qanday mos kelishini kuzatadi va diqqat bilan tinglaydi.
3. Matnning tuzilishiga va u nimaga urg'u berayotganiga e'tibor qiladi.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, yuqoridagi bandlarning hech biri kontekstualashtirish bilan bog'liq emas. Kontekstualashtirish muhim albatta, biroq 4–bobda ko'ramizki, yaxshi talqinchilar bu bosqichni keyinga qoldirishni o'rganishadi.



Kontekstuallashtirishni yaxshi hamkor deyish mumkin, ammo u yomon boshqaruvchi. Va'zga tayyorgarlik ko'rish jarayonida uni ekzegetik qadamlardan oldin qo'yadigan bo'lsangiz, tez orada muammolar paydo bo'ladi. Muammo shundaki, ko'pchiligimiz ekzegetik qadamlarni tayyorgarlikning oxiriga qoldiramiz va eng avvalo madaniyatga va buni qanday bog'lashga e'tibor qaratamiz.

Shu sababdan ko'pchiligimiz uchun eng katta qiyinchilik – nimani birinchi o'ringa qo'yishimiz kerakligini qayta ko'rib chiqish bo'ladi. Ekspozitsion (matnga asoslangan) va'z tayyorlash sari qo'yiladigan birinchi qadam shuki, kontekstuallashuvni (ya'ni madaniy muhitga moslashuvni) o'zingizga yaqin bir hamkor deb biling va uni o'z o'rnida ishlatib. Bu jarayonni teskari ishlatmaganingiz ma'qul. Men hozirgacha, aynan mana shu tartibga amal qilishim kerakligi haqidagi fikr ongimda shakllangan kunni va o'sha paytda qayerda o'tirganimni aniq eslayman.

MEN TUSHUNISHNI BOSHLAGAN KUN

Do'stim va cho'pon Stiv Bikley meni Dik Lukas bilan tanishtirganida 29 yoshda edim. Hozir Lukas Londondagi Muqaddas Yelena Bishopsgeyt Jamoatining rektorlik vazifasidan nafaqaga chiqqan. Bikley Lukasning bir kunni biz bilan – Kent Xyuz rahbarligidagi Kollej cherkovi cho'ponlik bo'limi xodimlari bilan o'tkazishiga kelishib qo'ydi. Bu kun men aslida nima qilayotganimni tushunmayotganimni anglay boshlagan kunim bo'ldi.

Qisqa fursat ichida Xudo Lukasni va'z tayyorlashdagi an'anaviy usulimizga qarshi chiqish uchun ishlatdi. Juda tez

o'tgan ikki soat ichida (juda tez o'tib ketdi) u bizni o'zimizga tanish bo'lgan Korinfliklarga birinchi maktub 13–bobni yangicha tarzda tushuntirib berdi. U bizni va'z qilishga tayyorlab bo'lgach, tayyorgarligimiz yangicha tus oldi. U bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatdi va men hozirgacha mana shu yo'l bilan va'z tayyorlab kelaman.

Birinchiidan, Lukas bizdan *muhim narsalarga e'tibor qaratahlimizni* so'radi. Bu men tasavvur qilganimdan ham qiyinroq edi. Men Korinfliklarga birinchi maktub 13–bobni “sevgi bobi” deb eshitganman. Men buni faqat to'y marosimlarida eshitardim. O'shanday tadbirlarda voiz matnga kontekstual yondashar edi. To'y kunlari, odatda, dalda va shodlik kabi mavzular olg'a suriladi va men eshitgan va'zlar ham aynan shunday his-tuyg'ular bilan to'yingan bo'lardi. Boshqacha qilib aytganda, voizning qarshisidagi tinglovchilar o'sha lahzaning qoidasini belgilardi. Maktub aslida kimga yozilgani bilan esa hech kimning ishi yo'q edi.

Ikkinchiidan, Lukas bizni kuzatish bosqichiga yetakladi. U bizdan matn nimani anglatayotganini yoki bugungi kunda matndan o'rganganlarimizni qanday qo'llashimiz mumkinligi haqida xulosa qilishga shoshilmay, avval o'sha parchaning *adabiy konteksti* (ya'ni matnning o'z atrofida) haqida fikr yuritishimizni so'radi. Biz u aytganiday qilganimizda, Korinfliklarga 1–maktub 13–bob ikki bob orasida joylashganini ko'rdik. Bu boblarda ruhiy in'omlar, va ayniqsa, ruhiy yetuklik bilan ular orasidagi munosabat muhokama qilingan edi (12:1, 4, 9, 28, 30, 31; 14:1, 37 ga ham qarang).

Uchinchiidan, Lukas bizdan ushbu maktubning avvalgi qismlaridan “ruhiy in'omlar” va “ruhiy yetuklik” atamalarini

topishimizni so‘radi. U bizdan matnimiz butun kitobning umumiy mavzusiga qanday bog‘liq ekanini tushunganimizga qadar *diqqat bilan kuzatib, tinglashni o‘rganishimizni* istadi. Bu kuzatish va tinglash bizni 1–bob 4-7–oyatlarga yetakladi. U yerda Pavlus Korinfliklarni in‘omlarga boy bo‘lgan jamoat deb ataydi. Aslida, ularda in‘om tanqisligi yo‘q edi. Biroq, 3–bob 1–oyatda, Pavlus aynan mana shu juda iqtidorli jamoatni ruhan yetuk bo‘lmaganlikda ayblagan. Hatto ularni “ruhiy go‘daklar” deb atagan (1-2–oyatlar).

Shu onda biz tushuna boshladik. Korinfda ba‘zilar ruhiy in‘omlar bilan ruhiy yetuklikni chalkashtirib yuborgan edi. Ular muayyan bir in‘omlar (bu vaziyatda noma‘lum tillarda gapirish) ularga ruhan yetuklikni taqdim qiladi, deb o‘ylay boshlagan edilar.

Birdaniga fikrlar oqimi quyilib kela boshladi. Savol tug‘iladi: havoriy Pavlus 13–bobda chindan ham sevgi haqida yozganmi? Bu maktubi bilan u Korinf jamoatidagilarga bemehrliigi uchun tanbeh bermoqchi edimi? Biz “sevgi haqidagi bob” deb o‘ylagan bobdan Muqaddas Ruhning maqsadi ularni rag‘batlantirish emas, yoki aksincha, ularning his-tuyg‘ulariga ta‘sir qilish orqali bo‘lsa ham tuzatish edimi?

To‘rtinchidan, Lukas bizga butun bir maktubning konteksti 13–bobdagi so‘zlarga qanday bog‘langanini ko‘rsatdi. Masalan, 13–bobdagi “sevgi mag‘rurlanmaydi” degan so‘zlarni eslang. Bu so‘z maktubning boshrog‘ida ishlatilganmi? Albatta. U maktubning boshida ularni ayab o‘tirmay “Sizlar esa bundan mag‘rurlanib yuribsizlar”, deydi (5:2).

So‘ng Lukas bir oz to‘xtab bizga eshitganlarimizni chuqur


mulohaza qilib ko'rishimiz uchun vaqt berdi. Shunda bu bob Korinf jamoatidagilar uchun o'sha paytda xuddi bombadek ta'sir qildi, degan fikrga keldik. Pavlusning aynan sevgi haqida gapirishidan maqsad, Korinf jamoatidagilarga shu xislat yetishmasdi! Ehtimol ular qobiliyatli va iste'dodli jamoat bo'lgandir, lekin ruhiy jihatdan olib qaraganda, ular hali ham voyaga yetmagan go'daklarday yashayotgan edilar. Pavlus ularni ulg'ayishga, o'zlarida sevgi xislatini rivojlantirgan, o'ziday "balog'atga yetgan kishi"lar bo'lishga chaqirdi. Chunki uning nazarida haqiqiy yetuklik bu sevgi edi.

Biz o'sha kuni o'zimizni Pavlusning zamoniga borib qolganday, Korinfliklar bilan birga turganday his qildik. Pavlusning tanbehlarini shaxsan eshitganimizni his qildik. Eng ajablanarlisi, shu bilan birga bu uchrashuv biz uchun Chikagodagi jamoatda dolzarb va mantiqiy va'z aytish uchun asosiy tayyorgarlik vaqti bo'ldi.

Men esa aynan o'sha paytda hammasini aniq-tiniq tushuna boshladim. Va'z tayyorlashda har bir voizga zarur bo'ladigan asosiy tarkibiy qismlarni ko'ra oldim. O'sha kuni Xudo bizga kuchli ta'sir o'tkazdi va va'z qilish uslubimizni qayta shakllantirdi. Biz hammamiz bu uchrashuvdan butunlay o'zgargan holda chiqdik. Xudoning Kalomiga bo'lgan ishtiyοqimiz yanada kuchaydi va muqaddas matnni tushuntiruvchi (ekspozitsion voiz) bo'lish uchun zarur bo'lgan harakatlarga amal qilishga qaror qildik.

Va'zga tayyorgarlik qilish jarayonida yoki umuman Muqaddas Kitobni o'rganish jarayonida eng avvalo birinchi o'quvchilar haqida fikr qiladigan bo'lsangiz, parchaga mutlaqo boshqacha qaraysiz. Keling, buni sizga teleskop

misolida tushuntirib beraman. Bilasizki, teleskoplar bizga olis osmondagi jismlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Italian fizik olimi, faylasufi va astronomi Galileo Galiley teleskop ixtiro qilib, uning ommalashib ketishiga sababchi bo'lgan. U teleskop yordamida oydagi kraterlarni hamda Somon yo'li galaktikasining millionlab, hatto milliardlab yulduzlarini ko'ra olgan. Bu u qadar qiyin ixtiro emas. Ikkita linza – biri kattaroq boshqasi kichikroq bo'lsin. So'ng ularni aylantirganda siljiydigan silindrga joylashtiring. Katta linza botiqroq bo'lib, uzoqdagi tasvirni kattalashtirib beradi. Kichikroq ob'ektiv/linza esa shunchaki ko'zoynakka o'xshash narsa bo'lib, uzoqdagi narsalarni yaqinlashtirib, batafsilroq ko'rish imkonini beradi. Agar teleskopni to'g'ri ushlasangiz, u sizga aql bovar qilmaydigan narsalarni kashf qilishingizga yordam beradi. Biroq uni noto'g'ri tutsangiz, ob'ekt g'alati, kichraygan va noaniq holatda namoyon bo'ladi. Siz ko'rmoqchi bo'lgan ob'ektning go'zalligi va shakli yo'qoladi.



Bu tamoyilni va'zga tayyorgarlik ko'rish jarayoningizga ham qo'llash mumkin. Agar siz Muqaddas Kitobni to'g'ri talqin qiladigan voiz (yaxshi ekspozitsion voiz) bo'lishni istasangiz, eng avvalo o'zingizda ilk tinglovchilarga e'tibor qaratish odatini shakllantirishingiz lozim bo'ladi. Shunday qilsangiz, matnning shakli buzilmaydi, Muqaddas Ruh

tinglovchilaringizga aytmoqchi bo'lgan haqiqatni ko'rish imkoniga ega bo'lasiz.

Bundan tashqari, bu bir qarashda ko'rinadigan darajada oson emas. Men o'zim Muqaddas Kitobdagi qandaydir parchani talqin qila olishimga ishonmayman. Shuning uchun har safar Muqaddas Kitobni o'rganish uchun o'tirganimda, eng avvalo ibodat qilaman. Garchi parchani o'rganishning odatdagi vositalari mavjud bo'lsa-da, menga bu jarayonda Muqaddas Ruhning yordami kerak. Keyingi sahifalarda sizlarga parchani o'rganish jarayonida qo'llashingiz mumkin bo'lgan ba'zi amaliy vositalarni taqdim qilaman, biroq shunga qaramay, siz parchani o'rganish paytida baribir Muqaddas Ruhning rahmshafqatiga muhtoj ekaningizni anglab yetishingiz kerak.

1 - SIZNI MUQADDAS KITOBNING KONTEKSTI BOSHQARSIN

Parchani talqin qilishga kelganda shaxsan o'zimga kontekst haqida ikki xil tarzda fikr yuritish foydali bo'lgan: *adabiy kontekst* va *tarixiy kontekst*. Bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq va ko'p hollarda bir-biriga aralashib ketadi. Lekin yaxshi voiz uchun ular o'rtasidagi farqni tushunib olishi juda muhim.

Tarixiy kontekst – matnning yozilishiga turtki bo'lgan vaziyat yoki holatlarni o'z ichiga oladi. Buning uchun sizdan qadimgi (antik) madaniyatni tushunish ham talab etiladi. Ehtimol, mana shu bosqichda sizga Muqaddas Kitob tarixi haqidagi bilimlaringizni mustahkamlab olishingizga to'g'ri kelishi mumkin. Yo bo'lmasa, birinchi o'quvchilar duch kelgan vaziyatni yaxshiroq tushunishingiz uchun butun bir kitobni

o'rganishingizga ham to'g'ri kelishi mumkin.

Adabiy kontekst esa, aksincha, u siz o'rganayotgan matn atrofidagi matnlardir. Bu kontekst muallifning yozish yoki tahrir qilish strategiyasini hisobga oladi va nima uchun shu tarzda yozganiga e'tibor qaratadi. Matndan oldin va undan keyin kelgan so'zlar uning nimani anglatishini tushunishimizga yordam beradi.¹⁸

Keling, matn ma'nosini o'z istaklarimiz emas, aynan uning konteksti belgilashi kerakligini ko'rsatuvchi bir misolni ko'rib chiqamiz. Korinfliklarga 2–maktub 6:14-15 da shunday deb yozilgan:

Imonsizlar bilan birga o'zga bo'yinturuqqa qo'shilmanglar. Zero haqlik va qonunbuzarlik orasida qanday muloqot bor? Nur bilan zulmat orasida qanday umumiylik bor? Masih bilan Beliar orasida qanday muvofiqlik bo'lishi mumkin? Yoki imonli bilan imonsiz orasida qanday sheriklik bor? (2–Korinfliklarga 6:14-15)

18 Tarixiy va adabiy kontekstni qanday muvozanatlashtirishingiz va matnga qanday savollar berishingiz, qisman siz va'z qilayotgan kitobga bog'liq bo'ladi. Masalan, maktublarda siz uni qabul qilgan jamoat yoki maktub yuborilgan shaxsning tarixiy holatini bilishingiz kerak. Ammo, Xushxabar kitoblarini bunday o'qishingiz shart emas. Agar Xushxabar kitoblari butun dunyo bo'ylab tarqatilish uchun yozilgan bo'lsa, unda har bir muallifning birinchi tarixiy auditoriyasi unchalik muhim emas, balki muallifning Xushxabarni adabiy tarzda tuzgani, ya'ni adabiy konteksti muhimroqdir. Xushxabar kitoblari kimga yozilgani haqida batafsil bilish uchun quyidagi manbaga murojaat qiling: Richard Baxkem, tahrir, *Barcha masihiylar uchun Xushxabar kitoblari* (Grend Rapids, Michigan shtati: Eerdmans nashriyoti, 1998); [Richard Bauckham, ed., *The Gospels for All Christians* (Grand Rapids, MI: Eerdmans, 1998)].

Bir paytlar men bu matnni va'z uchun ishlatgan bo'lardim. Men undan jamoatim a'zolari nikoh yoki biznes hamkorlari bilan bog'liq muammolarga uchramasliklari uchun mana shu oyatlar haqida o'ylab ko'rishga undagan bo'lardim.

Muammo shundaki, agar tarixiy kontekstni bir oz chuqurroq o'rgansak, muallif bevosita bizga emas, boshqa tinglovchilarga murojaat qilayotganini ko'ramiz. Bu parcha orqali havoriy Pavlus Korinfliklarning qilayotgan ishlari to'g'ri emasligini, chunki ular har doim har qanday muammodan chiqish yo'lini izlaydigan mashhur va mag'rur o'qituvchilarni tayinlayotganlarini aytgan edi. Bu "oliy havoriylar" odamlarni Xushxabardan va Pavlusdan uzoqlashtirayotgan edilar. Pavlus esa ularni qaytarib olmoqchi edi! U ularning o'zi bilan bir yo'ldan borishini (ya'ni haqiqiy ta'limotga qaytishini) istagan.

Shuning uchun, tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, bu matnga boshqacha yondashishimiz kerak. Biz Pavlus ogohlantirayotganiday, o'zimizni soxta ustozlar bilan "bog'lab" qo'yishdan ehtiyot bo'lishimiz kerak. Demak, bu parcha avvalambor kimga turmushga chiqish yoki kim bilan biznes hamkor bo'lish haqida emas.

Bu oyatlarning adabiy konteksti ham aynan shu ma'noni tasdiqlaydi. Bu oyatlardan oldin Pavlus korinfliklarga qalbi ular uchun ochiq bo'lganini aytadi. Ularning qalbi esa yopiq holda qolganini ta'kidlaydi. Pavlus "ichingizni keng qilinglar" (6:13) deb, korinfliklarni uning "bo'yinturug'iga qo'sh"ilishga chaqiradi. Keyingi bobda Pavlus quyidagi oyat bilan, yana o'sha iltimosini takrorlaydi, "bizni qabul qilinglar" (7:2).

Tarixiy va adabiy kontekstni yaxshi bilish sizning va'z qilish borasidagi fikrlaringizni o'zgartirib yuboradi.

Muqaddas Kitobni yaxshi talqin qiladigan voizlar aynan mana shu kontekstlar matnning ma'nosini belgilashiga, va'z tayyorlash jarayonida ular va'z tayyorgarligini boshqarishiga yo'l qo'yadilar. Shuning uchun siz qilishingiz kerak bo'lgan birinchi ish siz tanlagan parchadan oldin va keyin keladigan oyatlarni va boblarni o'qish bo'lishi kerak. O'zingizga boshqacha yo'nalishdagi savollar berishni o'rganing:

- Nega aynan bu parcha bu yerda joylashgan?
- Men tanlagan parcha kattaroq bo'lim ichida qanday ahamiyatga ega?
- Bu parchaga ko'ra birinchi tinglovchilar yoki (janriga qarab) birinchi o'quvchilar qanday vaziyatda bo'lgan?

2 - MATN OHANGIGA QULOQ TUTISH

Men ushbu bobning avvalida matnning eng muhim jihatlariga e'tibor qaratish uchun uchta amaliy usulni qo'llash lozimligini aytgan edim. Biz birinchi usulni ko'rib chiqdik (ma'noni matnning konteksti belgilasin). Endi esa, keling, ikkinchi usulni ko'rib chiqamiz: matn butun kitobning umumiy mazmuniga qanday to'g'ri kelishini bilish uchun uni diqqat bilan tinglash kerak.

Yaxshi voizlar, odatda, yaxshi tinglovchilar bo'lishadi. Ular matnni tadqiq qilishga kirishar ekan, butun diqqatini matnning asosiy mazmunini tinglashga qaratadilar. Agar bizning vazifamiz Muqaddas Kitobni to'g'ri talqin qilish bo'lsa, u holda biz nafaqat ongimiz bilan, balki quloqlarimiz bilan

ham ishlashni bilishimiz kerak. Men biladigan yaxshi voizlar o'zi o'rganayotgan, talqin qilayotgan kitobda Xudo aytmoqchi bo'lgan alohida xabarni eshitishga intiladilar. Bir necha yillar oldin, Dik Lukas bu usulni shunday izohlagan edi:



Musiqiy qator – qo'shiqda takrorlanib, turlicha ifodalanadigan, o'ziga xos bir qismni tashkil etadigan qisqa musiqiy qator hisoblanadi. U asosiy kuyning bir bo'lagi bo'lishi va qo'shiq davomida bir necha marta takrorlanib kelishi mumkin. Muqaddas Kitobdan o'rin olgan kitoblarning ham o'z ohangi bor. Har bir kitob o'z musiqiy qatoriga, aniqrog'i, kitobning o'ziga xos maqsadini belgilaydigan asosiy mazmun va mohiyatiga/asosiy g'oyaga ega. Kitobdagi har bir parcha mana shu “musiqiy qator”ga (asosiy g'oyaga) ma'lum ma'noda xizmat qiladi. Buni yana shunday tasavvur qilsangiz bo'ladi: aytaylik bir ip bor va bu ip kitobning har bir qismidan o'tgan, uning to'qimasiga singib ketgan. Yo bo'lmasa, uni pardani tutib turuvchi bir karniz deb tasavvur qiling. U kitobning har bir parchasini tutib turibdi. Shuning uchun va'z tayyorlash chog'ida biz o'zimizga shunday savol berishimiz mumkin: kitobning asosiy mohiyati nimada? Shuningdek, “Men o'rganayotgan bu parcha kitobning mohiyatiga qanday hissa qo'shyapti va kitobning mohiyati uni qanday to'ldiryapti?”

Voizlar uchun bu usulning afzalligi shundaki, agar

biz butun kitob nima haqidaligini aniq bilsak, har bir parchani yaxshiroq tushunamiz va to'g'ri talqin qila olamiz. Shuningdek, bu usulning yana bir muhim foydasi bor: agar biz va'zda kitobning "musiqiy qatori"dan foydalansak, garchi jamoatimiz a'zolari bir oz vaqt o'tib va'zning nima haqida bo'lganini eslamasalar ham, ular asta-sekin kitobning mazmunini o'rganib oladi.

Xo'sh, unday bo'lsa, kitobning "musiqiy qatori"ni qanday topish mumkin?

Keling, buni tushuntirish uchun men o'zim kitobning asosiy mazmunini qanday topganimni misol tariqasida keltiraman. Men katta sinfga o'tganimda bizga bir necha marta katta-katta kitoblar va romanlarni o'qishimizni aytishgan. Tabiiyki, o'qituvchilarimiz imtihon yaqinligini ham eslatib o'tardilar. Hamma ishning qisqa va osonroq yo'lini qidiradigan o'quvchi bo'lganim uchun men kitobning asosiy g'oyasini tez topishning yo'lini topdim. Buning uchun men avvaliga kitobning kirish qismidagi bir parchadan uning tezisi yoki maqsadiga oid fikrni qidirardim. So'ng, birinchi va oxirgi boblarni o'qirdim. Keyin esa o'qiganlarimga asoslanib, kitobning mazmunini boblarning sarlavhalari bilan bog'lash maqsadida, yana bir marta mundarijaga ko'z tashlardim.

Men ichki hisga tayangan holda kitobni *boshidan oxirigacha* o'qib chiqish, yoki faqat kitobning *boshi va oxirini* o'qish, *takrorlanib kelayotgan muhim so'zlarni, fikrlarni va iboralarni* izlash va muallif kitobni yozishdan *maqsadini bayon qilgan joylarni* topish kabi strategiyalardan foydalanardim.

Aynan shunday usullar sizga ham Muqaddas Kitobning "musiqiy qatori"ni topishga yordam berishi mumkin. Men

bir necha yil oldin aynan shu strategiyalarni va'z tayyorlash jarayoniga qo'llashga qaror qildim va ularning anchagina foydali ekanini kashf etdim. O'shanda men Yahudoning maktubidan va'z tayyorlashni istadim. Oxirida bitta emas, bir nechta va'z tayyorlab jamoatimga taqdim etdim. Aytishim mumkinki, men bu maktubdan o'rganish jarayonida har bir daqiqadan rohat oldim. Biroq maktubning "musiqiy qatori"ni topish uchun anchagina ter to'kishimga to'g'ri keldi.

Boshidan oxirigacha

Yahudo maktubi bo'yicha va'zlar turkumini tayyorlashimdan ancha oldin, men bu maktubni o'qish rejamga kiritgan edim. Uni boshidan oxirigacha bir marta o'qib chiqqan edim. Bu atigi bitta bobdan va bor-yo'g'i 25 ta oyatdan iborat maktub, shuning uchun uni o'qib chiqish qiyin bo'lmadi. Siz birorta kitobdan va'z qilmoqchi bo'lsangiz, avval o'sha kitobni boshidan oxirigacha o'qib chiqishingizni tavsiya qilaman. Kitobni bir marta to'liq o'qib chiqish va'z qilishga tayyorgarlik ko'rish jarayoniga har doim yordam beradi. Shunday qilsangiz, kitobning umumiy mazmuni bilan tanishish sizga qiyin bo'lmaydi. Muayyan bir kitobni o'z shartlari bilan o'qish, uni diqqat bilan tinglash, sizga o'sha kitob asosida yaxshi va'z qilishga yordam beradi.

Boshini va oxirini o'qish

Bastakor ko'pincha o'z musiqiy asarini muayyan bir musiqiy qator bilan boshlaydi va hatto bu qatorni musiqiy asar davomida rivojlantirsa ham, yana shu qator bilan

yakunlaydi. Xuddi shunday holat Muqaddas Kitobda ham kuzatiladi. Men Yahudo maktubi bo'yicha voizlik qilishimni bilganimda, alohida vaqt ajratib avval uni to'liq o'qib chiqdim, keyin maktubning faqat boshi va oxirini qayta-qayta o'qidim. Shu orada bitta asosiy "ohang" yohud so'z namoyon bo'ldi: "saqlagan." Birinchi oyatda Yahudo "Iso Masih saqlagan" imonlilarga deb yozadi. Yigirma to'rtinchi oyatda esa "Sizlarni yiqilishdan saqlab qolishga ... qodir bo'lgan" Zot deb yozadi. O'sha damda, va'zga tayyorgarlik ko'rish jarayonining o'sha bosqichida Yahudo asosan nima haqida yozganini taxmin qilishga tayyor edim. Taxminimcha, u *Xudo bizni Iso Masih uchun saqlab kelayotgani* haqida yozgan.

Takrorlanadigan so'zlar, tushunchalar va iboralar

Parchani ekzegetik tahlil qilish jarayonining mana shu bosqichida men o'zim chiqargan dastlabki xulosani sinovdan o'tkazish uchun xat mazmuniga diqqat bilan quloq soldim. *Xudoning imonlilarni Masih uchun asrashi* g'oyasi maktubning asosiy qismida qay darajada ahamiyatga egaligini ko'rmoqchi bo'ldim. Chindan ham shunday ekan. Yahudo 1-oyatda ishlatgan "saqlagan" so'zi (24-oyatdagi "saqlab qolishga" so'zi bilan ma'nodosh) yana to'rt marta takrorlanadi: ikki marta 6-oyatda (Muqaddas Yozuv tarjimasida "saqlamasdan" va "zanjirband qilib" deb berilgan), bir marta 13-oyatda (Muqaddas Yozuv tarjimasida "tayyorlab qo'yilgan" deb berilgan) va yana bir marta 21-oyatda "saqlanglar" deya buyruq shaklida ishlatilgan.

Buni kashf qilganimdan juda quvongan bo'lsam-da, so'zning takrorlanishi mening dastlabki "musiqiy qatorim"ni

qayta o'ylab ko'rishga majbur qildi! Yahudo kitobining boshi va oxirida Iso uchun asralganlar haqida aytilgan bo'lsa, maktubning asosiy qismida imonlilarga o'zlarini Xudoning sevgisini yuraklarida asrash buyurilgan. Bu esa o'zini asrab qolmagan va shuning uchun ham hukmga duchor bo'lgan “adashgan yulduzlar”, aniqrog'i yovuzlikka yuz tutgan farishtalar va soxta ustozlarga qiyoslanadi. Agar o'sha paytda kimdir mendan Yahudo maktubi nima haqida deb so'rasa, men: *“Xudo Iso Masih uchun saqlayotgan imonlilar yuraklarida Xudoning sevgisini asrab qolishga chaqirilganlar”*, deb javob bergan bo'lardim.

Maqsad bayoni

Nihoyat, men maktubni yana bir marta o'qib chiqib, undan maktubning maqsad bayoni nima ekaniga quloq soldim va uni topishga umid qildim.¹⁹ Maqsad bayonini topish unchalik qiyin bo'lmadi. Uchinchi oyat diqqatimni tortdi: *“Sevganlarim, men sizlarga umumiy najotimiz haqida yozishga g'ayratim ko'p bo'lib, bir narsa haqida nasihat qilib yozishni lozim ko'rdim: Bir vaqtlar muqaddaslarga topshirilgan **imon uchun astoydil kurashinglar.**”*

Bu so'zlar menga Yahudoning “ohang”ini aniqlash imkonini berdi. “Musiqiy qator” qanday bo'lishidan qat'i nazar, unda shoshilinchlik hissi bo'lishi kerak edi. Chunki jamoatning ruhiy sog'lomligi va muqaddasligi xavf ostida edi!

Yahudoning maktubi Xudoning oliyhukmronligi va

¹⁹ Ko'pincha maktublarda maqsadni bayon etuvchi ifoda shakl masalasi sifatida kiritiladi. Luqo 1:1-4 va Yuhanno 20:30-31 maqsadni bayon etishga yordam beruvchi misollar hisoblanadi.

inson mas'uliyati o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan "saqlanish va o'zini saqlash" mavzularini o'rgatadigan shunchaki befoyda ilohiy matn emas. Yo'q, u qisqa, ammo ta'sirchan maktub – samimiy musiqiy kompozitsiyadir.

Shu sababdan, men "musiqiy qatorim"ni uchinchi marta qayta ko'rib chiqib uni aniqlashtirishimga to'g'ri keldi: ***Hozirgi davrning xavfli ekanini hisobga oladigan bo'lsak, jamoat sog'lom va muqaddas bo'lishi uchun, Xudo Iso uchun asrayotgan imonlilar yuraklarida Xudoning sevgisini saqlagan holda imon uchun kurashishlari kerak.***

Nihoyat, men asosiy g'oyani topdim. Bu maktubni o'rganish jarayonida men yana ikkita muhim saboqni o'zlashtirdim. Birinchidan, agar men har bir parcha yoki matnni kitobning umumiy ma'nosi bilan bog'lay olsam, unda har bir parcha bo'yicha voizligim ham yaxshiroq chiqar ekan. Ikkinchidan, ekzegetik jarayonning shu bosqichida qo'llanadigan har bir tinglash usuli mening umumiy tushuncham uchun katta ahamiyatga ega ekan. Kitobning "musiqiy qatori"ni topish uchun bittagina usul yetarli emas.

3 - STRUKTURA VA URG'UNI KO'RA OLISH

Muqaddas Matnni ekspozitsion talqin qiladiganlar va'zga tayyorgarlik ko'rishning ekzegetik bosqichida yana bir ish qiladilar. Ular matnga nafaqat Muqaddas Kitob konteksti nuqtai nazaridan yondashadilar va "musiqiy qatori"ni eshitadilar, balki shu bilan birga, o'zlari talqin qilmoqchi bo'lgan matnning ustunli strukturasi ham aniqlashga harakat qiladilar. Ular matnga shunday savol beradilar: Muallif matnni qanday tuzgan? Bu tuzilishga ko'ra muallif

qaysi g'oyaga urg'u beryapti?

“Kitobni qanday o‘qish kerak” kitobining muallifi Mortimer Adler shunday deydi:

Har bir kitobning o‘ziga xos skeleti/strukturasini bor. Har bir “skelet” kitobning asosiy strukturasini taqdim etadi. Siz esa ekzegetik o‘quvchi sifatida aynan o‘sha strukturani kashf etishingiz kerak bo‘ladi. Kitob sizning qo‘lingizga suyakka qoplangan go’sht yoki kiyimga o‘rangan tana ko‘rinishida keladi. U boshdan-oyoq kiyimda. Siz bu kitobni o‘qir ekansiz, ko‘zlaringiz xuddi rentgen kabi ishlashi kerak. Chunki har qanday kitobni yaxshi tushunishimiz uchun uning strukturasini ko‘ra olishimiz kerak.²⁰

Agar Adlarning fikri to‘g‘ri bo‘lsa, u holda biz o‘rganayotgan kitobimizning strukturasini tushunmagunimizcha, matnning asosiy g‘oyasini tushunolmaymiz. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, Muqaddas Kitobni to‘g‘ri va yaxshi talqin qilishimiz uchun biz Muqaddas Kitobdagi matnning “suyaklari” va “iligi”ni o‘zimiz ilg‘ab olishimiz kerak bo‘ladi.

20 Mortimer Adler va Charlz Fon Doren, *Kitobni qanday o‘qish kerak: Tushunib, tahlil asosida o‘qish uchun an‘anaviy qo‘llanma* (Nyu York: Touchstone nashriyoti, 1940), 75–bet; [Mortimer Adler and Charles Van Doren, *How to Read a Book: The Classic Guide to Intelligent Reading* (New York: Touchstone, 1940), page 75].



Va'z qilish masalasiga kelsak, biz yana quyidagilarni qo'shimcha qilishimiz mumkin:

- Har bir matn o'ziga xos strukturaga ega.
- Matnning strukturasi muallifning asosiy fikrini (nimaga ko'proq urg'u berayotganini) ochib beradi.
- Shu matnning shakli va undagi asosiy fikr haqli ravishda men tayyorlayotgan va'zni boshqaradi.

Ekzegezaning bu jihati bizga men kirish qismida keltirgan ekspozitsion voizlikning ta'rifini yodimizga soladi. Bu – shunday bir va'zki, u matnning shakli va asosiy fikrini to'liq qabul qiladi va unga bo'ysunadi. Shunda va'z haqiqiy kuch va ta'sirga ega bo'ladi.

Aslida, ko'pchiligimizning muammoimiz ham shunda. Biz va'z aytish uchun minbarga chiqamizu, matnning ichki tuzilishini anglamaymiz. Buning natijasida matnning ma'nosi haqida ham hech qanday aniq tasavvurga ega bo'lmaymiz. Shuning uchun, biz va'zni tugatib minbardan tushganimizda, tinglovchilarimiz ham bu va'zdan hech qanday foyda olmagan bo'ladi. Xo'sh, shunday ekan, matnning strukturasi qanday topamiz?

Har bir parchada qo'l keladigan o'qish strategiyalaridan foydalaning

Siz tanlangan Muqaddas Kitob matnining strukturasi topishga harakat qilar ekansiz, avvalo oddiy, qaysi joyini o'qimang, hamma yerda ish beradigan strategiyalardan boshlaganingiz ma'qul.

Birinchi navbatda, agar iloji bo'lsa, matnning so'zma-so'z tarjimasi bilan ishlang. Agar ona tilingizda Muqaddas Kitobning bir nechta tarjimasi mavjud bo'lsa, eng to'g'ri, ya'ni eng "so'zma-so'z"iga yaqin Kitobni tanlang. Chunki so'zma-so'z tarjima (semantik tarjimaga nisbatan) odatda har bir so'zni izchilroq ifoda qiladi, bu esa matnning strukturasi ko'proq ochib beradi. Shu bilan birga, hech qaysi tarjima bu vazifani to'liq bajara olmaydi. Shuning uchun, bir paytning o'zida, bir nechta turli tarjimadan foydalansangiz, siz uchun foydali bo'ladi.

Shu yerda asosiy fikrdan chetga chiqmasligimiz kerakligini eslatib o'tay: biz bu yerda matnning strukturasi topishga qaratilgan shaxsiy tayyorgarlik haqida gapiryapmiz. Va'z qilishga kelganda esa so'zma-so'z emas, semantik tarjimalardan foydalanish to'g'ri bo'lishi mumkin. Bunga anchagina yaxshi sabablar bor.

Ikkinchidan, agar sizda Muqaddas Kitob matnlarini asl tilda o'rganish imkoni bo'lsa, ana shu imkoniyatdan foydalaning. Men matnni o'zim tarjima qilganimda bu menga parchani yaxshiroq tushunishimga yordam bergan. O'zim tarjima qilganimda parchani ekzegetik o'rganishimga ancha vaqt ketadi, o'rganish jarayonini sekinlashtiradi, ammo shu bilan birga, muallif nima demoqchi bo'layotganini va har

bir parchaning katta matn bilan qanday bog'liqligini ko'ra boshlayman.

Uchinchidan, matnni o'qing, qayta-qayta o'qing. Sekin va ovoz chiqarib o'qing. Matn ustida qancha ko'p vaqt o'tkazsangiz u qanday tuzilganini shuncha yaxshiroq anglaysiz.

To'rtinchidan, o'qiyotgan paytingizda takrorlanib kelayotgan so'zlar, iboralar va tushunchalarga e'tibor bering. Agar maqsadingiz parchaning strukturasi va uning asosiy fikrini topish bo'lsa, u holda tez-tez takrorlanib kelayotgan so'zlar yoki iboralar, odatda, qaysi nuqtaga urg'u berilganini ko'rishda muhim yo'lko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Matn qaysi adabiy janrga mansub ekanini aniqlang

Ba'zi o'qish usullari butun Muqaddas Kitob bo'ylab yaxshi ish berishiga qaramay, to'g'risi, barcha adabiyot janrlarida birday ishlamaydi. Masalan, siz gazetani she'r o'qishda qo'llaydigan usullar bilan o'qimaysiz-ku, to'g'rimi? Yoki romanni oshpazning retseptiday o'qish ham to'g'ri bo'lmaydi. Shuningdek, Muqaddas Kitobning har bir kitobini ham bir xil usulda o'qish mumkin emas.

Muqaddas Kitobda turli janrlar bor: Eski Ahd hikoyalari (hikoya janri), Bashorat yo'nalishidagi adabiyot, Apokaliptik (Vahiy kitobi), Pand-nasihati yo'nalishidagi janr (Hikmatlar va Zabur), Maktublar, Xushxabar kitoblari va Havoriylar faoliyatlari. Ushbu janrlarning ichida uchta asosiy matn turi bor: *diskurs (nutq)*, *hikoya* va *she'riyat*.

Odatda, siz Xushxabar kitoblaridagi matnda (asosan hikoya yoki diskurs) foydalaniladigan o'qish uslublarini

Sanolar/Zabur parchasiga (she'riyat) ishlata olmaysiz. O'sha o'qish uslublari bilan Zaburning strukturasi tushuna olmaysiz. Har xil turdagi matnlarning strukturasi bilish uni tushinishda qaysi usullar samarali ekanini anglashga yordam beradi.

Umuman olganda, *diskurs* – bu og'zaki nutqqa xos matn. U mantiqiy va izchil tartibda beriladi. Muqaddas Kitobdan joy olgan maktublar bu janrga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, Eski Ahdning tarixiy kitoblarida, payg'ambarlarning bashoratlar va apokaliptik kitoblaridagi nutqlarda, shuningdek, Xushxabarlar va Havoriylar faoliyatlari kitoblarida keltirilgan va'zlarda ham uchraydi.

Diskursning tuzilishini anglash uchun matnni qog'ozga muharrirlar tomonidan berilgan satr boshilarsiz (abzatslar) va oyat raqamlarisiz qog'ozga ko'chirib yozish juda foydali bo'ladi.

Bu jarayonda asosiy e'tibor grammatikaga qaratilishi lozim: qaysi so'zlar takrorlanayapti, qaysi iboralar kalit hisoblanadi, qaysi so'zlar g'oyalarni bog'lab turibdi, fikrlar qay yo'sinda oqib kelmoqda, qaysi jumlar mustaqil, qaysi biri tobe. Shuningdek, matn “men”, “sen” yoki “u” shaklida berilganmi, unda savollar, tasdiqlar yoki buyruq gaplar bormi – ana shu jihatlarni kuzatish zarur.

Bu jarayonni oddiyroq qilib “jumla tahlili” deyish mumkin. Agar siz ushbu vositalardan to'g'ri foydalana olsangiz, ko'pincha matnning asosiy shakli va asosiy urg'usini osongina topa olishingiz mumkin bo'ladi.²¹

21 Yujin Motu, *Gaplarni chizish: Diagramma chizish uchun qo'llanma* (Luisvil: Butler Books nashriyoti, 2010); [Eugene Moutoux, *Drawing Sentences: A*

Hikoya — bu voqea bayoni. Har qanday hikoya, odatda, o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi. Shuning uchun, maktublarni tushinishda grammatikaga e‘tibor berish qanchalik muhim bo‘lsa, hikoyani anglashda *sahnalar*, *syujet* va *qahramonlar* voizga matnning asosiy shakli va urg‘usini topishga yordam beradi.

Avvalo, matndagi turli sahnalarni aniqlab olish — masalan, voqea joyi o‘zgargan parchalar — eng to‘g‘ri boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Agar voiz uzun hikoyaviy parchani tahlil qilib, undan ma‘ruza tayyorlamoqchi bo‘lsa, aynan shu sahna o‘zgarishlari matnning ichki tartibini ochib beradi.

Sahnalar ichida (va ba‘zan ular orasida ham) syujetlarga e‘tibor berish kerak bo‘ladi. Syujet, odatda, besh qismdan tashkil topadi:

- *Manzara (joy)*: Hikoya odatda voqea joyi, vaqti, mavsumi va qahramonlarning tanishtirilishi bilan boshlanadi.
- *To‘qnashuv (Ziddiyat)*: Bu qism hikoyaga dramatik keskinlik bag‘ishlaydi, ya‘ni hal qilinishi lozim bo‘lgan masala paydo bo‘ladi. U aniq-ravshan (masalan, zo‘ravonlik tahdidi) yoki juda sezilar-sezilmas (masalan, ruhiy iztirob) bo‘lishi mumkin.
- *Kulminatsiya (Hikoya rivojining cho‘qqisi)*: Bu to‘ntarish yoki burilish nuqtasi bo‘lib, dramatik keskinlikning uzilishi ro‘y beradi.

- *Yechim*: Kulminatsiyadan keyingi voqealar rivoji, ya'ni mojaro qanday hal etilganini ko'rsatadi.
- *Yangi manzara (yangi joy)*: Hikoya yakunlangach, voqea yangicha "me'yor"ga qaytib, undan keyingi syujet uchun zamin yaratiladi.

Syujetning ushbu qismlarini aniqlash jarayonida albatta quyidagi savollar berilishi kerak: Bu yerda qanday to'qnashuv bor? Dramatik keskinlikka/bosimga nima sabab bo'lyapti? Buriilish nuqtasi qayerda? Bu keskinlik qanday hal etilyapti?

Fikrimcha, asarning asosiy urg'usi aynan *kulminatsiyada*, shu bilan birga, *to'qnashuv* va *yechimning* ayrim qismlarida mujassam bo'ladi.

Albatta, muallif qahramonlarni – hikoyadagi shaxslarni – qanday tasvirlaganini anglash ham juda muhim. Muallif qaysi qahramonni qachon sahnaga olib chiqishini kuzating. Ular qanday o'zgarishiga, qanday rivojlanishiga diqqat qarating. Shuningdek, muallif ular orasida bo'layotgan voqelarni qanday hikoya qilib berayotganini ham nazardan qochirmang. Agar siz syujet va qahramonlarni yaxshilab anglay olsangiz, hikoyaning umumiy shakli va asosiy urg'usi ham ravshan bo'ladi.

She'riyat – bu uchinchi turdagi janr hisoblanadi. Muqaddas Kitobdagi she'riy asarlarga Eski Ahddagi Sanolar kitobini va Sulaymonning hikmatlari kitobini va Payg'ambarlar kitoblarini misol qilib keltirish mumkin. She'riy matnning tuzilishini anglash uchun, avvalo, so'zlarning yoki butun bir

misralarning takrorlanishiga e'tibor berish zarur. Masalan, Zabur kitobidagi 41 va 42–sanolar aynan shu misralar atrofida rivojlantirilgan: *“Nega qayg‘urasan, ey, jonim, nega oh-nola qilasan? Xudoga umid qil, chunki Xudoning huzuridan kelgan najot uchun men Uni yanada ulug‘layman.”*

Shuningdek, obrazlar (tasvirlar) o‘zgarishiga va grammatik usullardagi siljishlarga, masalan, shaxs yoki nuqtai nazarning o‘zgarishiga ham e'tibor berish kerak.

Biroq, she'ning shakli va asosiy urg‘usini topishning eng samarali yo‘li bu – *parallelizmi* kuzatishdir. *Parallelizm* – ibroniy she'riyatiga xos bir uslub bo‘lib, unda misralar ko‘pincha juft yoki uchlik holda keladi va ma'lum ma'noda bir-biri bilan uyg'un yoki qarama-qarshi munosabatda bo'ladi.

Ba'zan ikkinchi misra birinchi misradagi asosiy fikrni takrorlaydi va unga ozgina kuchaytirish ham qo'shadi. Ba'zan esa ikkinchi misra birinchi fikrni inkor qiladi yoki unga qarama-qarshi ma'noni beradi. Yoki ikkinchi misra birinchi fikrni to'ldirib yakunlaydi.

Misralar o'rtasidagi aynan shunday munosabatlar – birinchi va ikkinchi misra o'rtasidagi aloqalar – she'rdagi turli xil *parallelizmi* hosil qiladi. Ana shunday *parallelizm* turlarining o'zgarib borishini anglay olsangiz, matnning shakli va urg'usini ham ravshan ko'ra olasiz.

YAKUNLADIM DEB O'YLASHNING XAVFI!

Umumiy yondashuvlar va matn janriga xos strategiyalarni puxta o'zlashtirish matningizning tuzilishi va uning asosiy fikrini aniqlash uchun to'g'ri qadam hisoblanadi. Kitobning konteksti va umumiy xabari (g'oyasi)ni aniqlash

ham ekzegezaning muhim jihatlaridandir. Yodingizda bo'lsin, siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

1. Matn ma'nosini topishga kirishar ekansiz, tayyorgarlik jarayonida o'z shaxsiy kontekstingizni emas, balki Muqaddas Kitobning kontekstini olg'a surishingiz kerak.
2. Matningiz kitobning umumiy xabariga qanday mos tushishi va unda qanday o'rin tutishini anglab olguningizcha, matnni diqqat bilan "tinglang".
3. Matnning tuzilishi va asosan nimaga urg'u berilganini ko'ra biling.

Qolaversa, siz hali voizlik qilishga tayyor emassiz, deb o'ylayman.

Faqat ekzegezaning o'zi yetarli emas. Izolyatsiyada amalga oshirilgan egzegeza haddan tashqari *aqliy (ilmiy)* yoki *buyruq ohangida bo'lgan* va'zga olib kelishi mumkin.

Aqliy (ilmiy) va'z – bu ilk (o'sha davrdagi) tinglovchilarni oxirgi maqsad qilib olganingizda yuzaga keladi. Bu shunday holatki, siz juda ahamiyatli matnni olasiz-da, uni akademik sharhga o'xshash va'zlar yozish orqali ahamiyatsiz qilib qo'yasiz. Siz ekzegeza ishlarini qilasiz-u, shu yerda to'xtab qolasiz. Natijada, zerikarli, izohlar bilan to'lib-toshgan samarasiz va'zlar paydo bo'ladi.



Ko'pincha, yosh voizlar shunday voizlik qilganlariga ko'p marta guvoh bo'lganman. Ular do'stim Mayk Bulmor aytganidek, o'sha haftada matn haqida o'rgangan barcha ma'lumotlarini jamlab qo'yadigan bir "ombor" deb o'ylab adashadilar. Ammo va'z bu bilimlar ombori emas. Siz shunchaki, ortiqcha aql o'rgatishga asoslangan va'z tayyorlashdan ehtiyot bo'lishingiz kerak.

Ekzegezani alohida qo'llashning yana bir xavfi shundaki, voiz faqat *buyruqqa asoslangan* va'zlar qila boshlaydi. Albatta, Muqaddas Kitobda ko'plab amrlar bor va ular hayot uchun dolzarb. Lekin ular Muqaddas Kitobga xos tarzda to'g'ri qo'llanmasa va ularda ilohiy kontekst bo'lmasa, noto'g'ri yo'nalishga ham olib ketishi mumkin. Eng xavfli jihati shundaki, agar biz ilohiy-tafakkur bosqichini chetga surib qo'ysak (bu haqda keyingi bobda to'xtalamiz), u holda hatto

to'g'ri tahlil qilingan amrlar ham oddiy *axloqiy buyruqbozlikka* aylanib qoladi. Bu esa jamoatlarimizda qonunchilik ruhini kuchaytiradi.

Shuning uchun va'z tayyorlashda albatta ilohiyotga oid mulohaza bosqichiga e'tibor qaratilishi kerak. Bu esa bizni va'z tayyorlashning keyingi bosqichiga olib boradi.

3-BOB

ILOHIYOTGA OID MULOHAZA

Avvalgi bobning oxirida ko'rganimizdek, ekzegezika bilan cheklanib qolgan izohli (ekspozitsion) va'z oxir-oqibat faqat aqliy yoki haddan tashqari buyruqqa asoslangan bo'lib qoladi. Va'z qilish akademik yoki axloqiy va'zga aylanadi. Shuning uchun va'zga tayyorgarlik ko'rishda keyingi bosqichga – ilohiyotga oid mulohazaga o'tish zarur. Bu bosqichga e'tibor qilmasangiz, u holda siz hali haqiqiy va'z qilishga tayyor emassiz.



Ilohiyotga oid mulohaza nima o'zi? Oddiygina qilib aytganda, bu intizom – matn bilan Xudoning qutqarish

rejasi orasida qanday aloqa borligi haqida mulohaza yuritish uchun ibodat bilan alohida vaqt ajratish degani. Ibodat bilan mulohaza qilish jarayonida men o'zimga savol beraman: Bu parcha butun Muqaddas Kitobga, ayniqsa, Xudoning Iso orqali qilgan ishiga qanday bog'liq?

MUQADDAS KITOBNI ISONING NUQTAI NAZARIDAN O'QISH

Iso tirilganidan keyin Emmausga, Quddusdan taxminan o'n chaqirim uzoqlikdagi qishloqqa ketayotgan ikkita shogirdiga (O'zini tanitmay) hamroh bo'ladi. Ular bilan suhbat davomida, Iso ularga Musodan tortib, barcha payg'ambarlar kitoblarida O'zi haqida aytilganini so'zlaydi (Luqo 24:25-27). Keyinroq, o'sha kechada U boshqa o'n bir shogirdiga ham ko'rinib, ularga Muqaddas Yozuvlarni tushunishlari va Musoning qonunlarida, Payg'ambarlar kitoblarida va Zaburda U haqida yozilganini va yozilganlarining barchasi amalga oshishi kerakligini ko'ra olishlari uchun ularning ongini ochib yuboradi (44-45–oyatlar). Shuningdek, U O'z havoriylariga Quddusdan boshlab dunyoning eng olis yerlarigacha U haqida guvohlik berishni amr etadi. Nima haqida guvohlik berilishi yozma tarzda Xushxabar kitoblarida hamda Havoriylar faoliyatlarida kitobida va maktublarda berilgan.

Isoning so'zlarida muhim bir tamoyil bor. Butun Eski Ahd kitoblari, shuningdek, Yangi Ahd ham U haqida va U bilan bog'liq muayyan voqealar haqida gapiradi. Luqo 24-bob 46-47–oyatlar aynan qaysi voqealar haqida so'z borayotganini aytadi: "... ularga dedi: "Shunday yozilgan edi va Masih shunday azob chekishi hamda uchinchi kuni tirilishi kerak edi.

Shuningdek, Yerusalimdan boshlab barcha xalqlarda Uning nomi haqi tavba qilish va gunohlar kechirilishi voizlik qilinishi kerak.” (Luqo 24:26 dagi “azob” va “tirilish” soʻzlariga eʼtibor qiling). Ushbu soddagina jumlada chuqur maʼno yashiringan. Oyatda berilgan “Masih” soʻzida mujassam boʻlgan yashirin shohlik, Uning hukmronligi va “barcha xalqlar”ning ushbu shohlikka kiritilishi beqiyos darajada boy gʻoyalardir. Jumla oddiy, ammo shu jumla Xushxabarning markazidir. Isoning nuqtai nazari bilan qarasa, Xushxabarni butun Muqaddas Kitobning hamma joyidan topish mumkin. Xushxabar butun Muqaddas Kitobni birlashtiradigan zanjirga oʻxshaydi. Shu bois, uni butun Muqaddas Kitobni Xushxabar asosida oʻqishimiz kerak.

MUQADDAS KITOBNI PAVLUSNING NUQTAI NAZARIDAN OʻQISH

Xudoga shukurki, butun Muqaddas bitiklar Iso haqida gapirishini Pavlus ham davom ettiradi. Isoning namunasini Pavlus ham qoʻllaydi. Havoriylar faoliyatlari kitobida yozilishicha, “Pavlus oʻz odatiga koʻra ularning oldilariga kirib, uch shabbat kuni ular bilan Yozuvlar boʻyicha *mulohaza qildi*. Masihning azob chekishi va Uning oʻliklardan tirilishi lozim boʻlganini *ochib berib* hamda buni *isbot qilib*, u: “”Shu Masih – men sizlarga voizlik qilayotgan Isodir”, – deb aytar edi” (Havoriylar 17:2-3). Shuningdek, Havoriylar kitobida Pavlus Afinada (17:17), Korinf shahrida (18:4) va Efesda (18:19; 19:8) ham shunga oʻxshash munozaralar olib borgani haqida bayon etilgan.

Pavlus oʻz ishiga juda jiddiy va ongli ravishda yondashgan.

Uning bu uslubi bizga ham Muqaddas Kitobni qanday o'qish kerakligini o'rgatadi. Birinchidan, Pavlus Masih haqida butun Muqaddas Kitobdan va'z qilar ekan, Iso haqida fikr yuritadi, Uning Masih va Najotkor ekanligi haqida ishonchli dalillar keltiradi. Pavlus ishlatgan so'zning har biri Yunon falsafasi zahirida chuqur axloqiy ma'noga ega bo'lib, Pavlusning puxta va chuqur fikrlashini ko'rsatadi. Ikkinchidan, u bu usullarni turli muhitlarda: masalan, sinagogalarda, bozorlarda, yahudiylar bilan suhbatlarda ham, yunonlar bilan ham ishlatgan. U hamma joyda har bir kishiga bir xilda gapirgan. Uchinchidan, Pavlus Muqaddas Kitob haqida hech qanday bilimga ega bo'lmagan odamlar orasida ham Xushxabarni va'z qilish yo'lini topgan. Demak, Muqaddas Kitob haqida hech qanday tushunchaga ega bo'lmagan odamlarga ham ularning holatiga mos ravishda va'z qilish mumkin ekan.

Pavlus ham xuddi Iso kabi butun Muqaddas Kitob Isoning o'limi va tirilishiga ishora qilishiga ishongan. Shuningdek, Pavlusning xizmatidagi yuqorida keltirilgan uchta jihat ilohiyotga oid mulohaza haqida fikr yuritish jiddiy mehnatni talab etishini ko'rsatadi.

MUQADDAS KITOBNI CHARLZ SPERJENNING NUQTAI NAZARIDAN O'QISH

Iso Masih hamda Pavlusning uslubida, aniqrog'i, Muqaddas Kitobni o'qishda Isoni diqqat markazda tutish usulida ish ko'rgan, bizga yaqinroq davrda yashagan shaxsning namunasiga qarash ham bizga bu borada foydali bo'lishi mumkin. Baptist hamda buyuk voiz – Voizlar shahzodasi, deb nom olgan Charlz Haddon Sperjen bu g'oyani quyidagicha

ifodalagan:

Angliyadagi har bir shaharchadan, har bir qishloqdan va hatto eng kichik ovuldan ham Londonga olib boruvchi yo'l borligini bilmaysizmi?! Xuddi shunday, Muqaddas Kitobning har bir qismi bizni Masihga yetaklaydi. Aziz birodarim, har bir matnga e'tibor qaratganingizda, "Bu Masihga qanday ishora qilyapti?" deb so'rang. Men hali biror marta Iso haqida eslatmaydigan matnni uchratmadim. Agar shunday matn bor bo'lsa (bunday matn yo'q), matn u yoki bu tarzda Iso haqida gapirmasa, unda bu parcha o'qishga arzimaydi.²²

Sperjen topshiriqni to'g'ri bajardi – u Muqaddas Kitobga to'g'ri ichki his (instinktlar) bilan yondashdi. U matnni o'qir ekan, shunday savol berardi: "Men o'qigan matn Xushxabariga qay tarzda ishora qiladi va unga to'g'ridan-to'g'ri qanday bog'liq?" Men uning ba'zi va'zlaridagi u qo'llagan uslubga – matndan Xushxabarga o'tish uslubiga doim ham qo'shilmasligim mumkin, ammo u qo'ygan savol eng to'g'ri savol bo'lgan. Bu savolga qanday javob berishimiz juda muhim.

22 Charlz Haddon Sperjen, "Iso imonlilar uchun juda qadrli" (va'z, Surrey (grafik) Musiqiy Zali, Surrey qirollik bog'lari, 13 mart 1859), <https://www.spurgeon.org/resource-library/sermons/christ-precious-to-believers/#flipbook/>; [Charles Haddon Spurgeon, "Christ Precious to Believers" (sermon, Music Hall, Royal Surrey Gardens, March 13, 1859), <https://www.spurgeon.org/resource-library/sermons/christ-precious-to-believers/#flipbook/>].

Har bir matnni Iso va Xushxabar nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'rganish uchun kamida uchta muhim va ta'sirli sohada ishonchli bilimga ega bo'lishimiz kerak. Ularsiz haqiqiy talqin qiluvchi (ekspozitsion o'rganuvchi) bo'lishning iloji yo'q: *tarixiy-tanqidiy uslub* (matnlarni ular yozilgan vaqt, joy va tarixiy sharoitni hisobga olgan holda tahlil qilish), *Kalomiyl ilohiyotshunoslik va tizimli ilohiyotshunoslik*.

TARIXIY-TANQIDIY USLUBNING MASHAQQATLARI

Agar siz menga o'xshagan akademik muhitda bo'lsangiz, bu bobning birinchi satridagi *"ilohiyot"* so'zini o'qishingiz bilan xayolingizda "ogohlik chirog'i" yonishi tabiiy. Aslida ham shunday bo'lishi kerak. Chunki *ilohiyot* bilan birga *tarix* masalasi ham ko'tariladi. Ya'ni, biz ko'pincha matnni to'g'ri talqin qilishdagi (ekzegetikadagi) mas'uliyatni yetarlicha qadrlamaymiz, natijada tarixiy voqealarning vaqti va joyiga jiddiy yondashmay qo'yamiz.

Bunday holda biz ortiqcha soddalashtirilgan ilohiy fikrlarga berilib ketamiz: yo matnga sun'iy tarzda sayoz va chala bir "xushxabar"ni qo'shib qo'yamiz, yoki umuman matnni va'z qilish o'rniga ta'limotni va'z qilamiz. Ayniqsa, har hafta shunday va'z qilish odatga aylansa, bu juda xavfli holatdan darak beradi. Chunki bunday yondashuv masihiylikni tarixdan uzib qo'yadi.

Agar biz va'z qilishda Eski Ahddagi matnning tarixiy holatini ahamiyatsiz deb hisoblab, uni Xushxabarga yetaklaydigan shunchaki bir zinadek ko'rsak, bunda Muqaddas Kitobni o'rganishda tinglovchilarimizga "Tarix ahamiyatga ega emas" degan fikrni singdirib qo'yamiz. Bunday holda tarix

ilohiy diniy aqida (dogma) uchun shunchaki muhit (fon)ga aylanib qoladi. Agar shunday qilishda davom etsak, bizdan keyingi avlod qayta tirilishga tarixiy voqea sifatida emas, balki mavhum bir ruhiy voqea sifatida qaray boshlaydi. Xuddi shu tarzda, Muqaddas Kitob haqiqat emas, balki axloqiy afsona sifatida ko‘riladigan bo‘ladi.

Qisqasi, Iso Masih haqida har bir parchadan voizlik qilishni maqsad qilib olgan ayrim yosh voizlar, o‘zlari bilmagan holda, masihiy voizlikning asosiy poydevorini yiqitib qo‘yishlari mumkin.

Tarixning muhimligi haqidagi bu masala yaqinda paydo bo‘lgan emas. Jon Ouen o‘zining *Kalomiy ilohiyot* asarini 1661–yili lotin tilida nashr qilganidayoq bu muammoni ko‘targan. Jon Ouen XVII–asrda Angliyada yashab o‘tgan cho‘pon va ilohiyotshunos (teolog) edi. U kitobning dastlabki uch bobida “ilohiyot” tushunchasini Muqaddas Kitob matni va uning tarixi ustiga sun‘iy ravishda qo‘shib qo‘yilgan narsa sifatida ko‘rib chiqadi. Bu masala bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayrim nufuzli akademik ilohiyot maktablari (jumladan, mening hududimdagi maktablardan biri ham) aynan shu sababli hanuzgacha professor-o‘qituvchilar tarkibiga (shtatga) ilohiyotshunos mutaxassisni qabul qilishdan bosh tortib kelmoqda.

Jeyms Barr – masihiylarning har bir narsani Isoning nuqtai nazaridan talqin qilish istagini eng yaxshi tanqid qiladigan qobiliyatli tanqidchilardan biri edi. U asosan XX–asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan va Eski Ahd bo‘yicha mutaxassis edi. Barr har bir va‘zning markazida Iso bo‘lgan va‘zlarga shubha bilan qaraydi, chunki uning fikricha,

bunday va'z, ko'pincha, Eski Ahd o'z ma'nosini ifodalashiga yo'l qo'ymaydi. Balki unga masihiylikni (ya'ni har bir va'zga Masih va Uning qurbonligini) majburan yuklab qo'yadi. Bu esa, natijada, Eski Ahdning masihiylik uchun qiymatini va ta'sirini kamaytiradi. Barrning so'zlari bilan aytganda: "Agar masihiylik Eski Ahdga tashqaridan kiritilsa yoki unga tiqib qo'yilsa, uning masihiylikka foydasi va ta'siri kamayadi. U masihiy natijalar berishi mumkin, lekin sun'iy ravishda 'Masihga moslashtirilmasligi' kerak. Lekin buning iloji bormi?"²³

Jeyms Barr qanchalik tanqid qilmasin, bu masalani savol ostiga oladi. Buning iloji bormikan? Aniqrog'i, Eski Ahddagi matnlarni ularning asl ma'nosini buzmasdan, Masihni markazga qo'yadigan matn sifatida va'z qilish mumkinmi? Albatta, bu juda muhim savol.

Tassavur qilyapman, agar Barr ayrim voizlar Habaqquq 3–bobda Xudo haqidagi tasvirni soddalashtirib va'z qilayotganlarini ko'rganida, nima deb o'ylagan bo'lardi? O'sha bobni o'qisangiz, Xudo ko'z qamashadigan darajada nur ichida, xuddi g'olib jangchiday tasvirlangan. U yerga tushganida dushmanlari tomonidan xo'rlangan va ezilgan xalqni mo'jizaviy tarzda xalos qiladi.

Ammo, tajribasiz, faqat "har bir matn Masihga yo'naltirilgan bo'lishi kerak" degan g'oyaga ko'r-ko'rona ishonadigan voiz bundan shunday xulosa chiqaradi: "Bu

23 Jeyms Barr, *Kalomiyl ilohiyot tushunchasi: Eski Ahd nuqtai nazaridan* (London: SCM Press nashriyoti, 1999), 253-254–betlar; [James Barr, *The Concept of Biblical Theology: An Old Testament Perspective* (London: SCM Press, 1999), pages 253-254].

yerda Iso Masih haqida gap ketmoqda, U qudratli tarzda gunohkorlarni qutqarib, g'alaba qozondi". Biroq shu payt, Barr shunday deb so'rashi mumkin: "Ey voiz, siz qaysi huquq bilan Xudoning Isroilga dunyoviy dushmanlari haqida aytgan va'dasini hamma xalq uchun ruhiy dushmani ustidan g'alaba deb talqin qilyapsiz?" Bu bilan siz *tarixiy voqelikni chetga surib*, matnni *ruhiy-mifologik* ma'noga aylantirib qo'ymayapsizmi?



Habaqquq 3–bobdan keltirilgan bu misol bizni yana o'sha savolga qaytaradi: voizlar Eski Ahddagi matnlarni ularning asl tarixiy ma'nosini yo'qotmagan holda, Iso Masihga bog'lab tushuntirishlari mumkinmi?

Iso Luqo 24–bobda aytganidek, barcha Yozuvlar "Musodan tortib, barcha payg'ambarlarda O'zi haqida aytilgan" degan tamoyildan chiqib ketmagan holda, shu bilan birga, matnni tarixdan uzib qo'ymaydigan yo'lni topish mumkinmi?

Bu savolni faqat Eski Ahdga emas, Yangi Ahdga ham qo'yish mumkin. Chunki ba'zan odam ikkinchi ma'bad davri yahudiyligi yoki Yunon-Rim dunyosi tarixi kabi fonlarga shunchalik berilib ketadiki, o'sha matnning haqiqiy ma'nosi Xushxabarga qanday aloqador ekani haqida unutadi.

Haqiqatan ham, tarixiy-tanqidiy tahlilning eng katta muammosi “qanday qilib?” degan savolda. Ya'ni: *qanday qilib* Muqaddas Kitob matnidagi tarixiy bog'liqlikni buzib qo'ymagan holda, u haqida ilohiy mulohaza yuritish mumkin?

Eng avvalo, ilohiyot bo'yicha mulohaza qilish ibodat bilan boshlanishi shart. Aniqrog'i, ibodat qilmay turib ilohiyot bo'yicha mulohaza qilishning iloji yo'q. Masihning kim ekanini anglash uchun – Xudoning Muqaddas Kitobda bergan va'dalari Masihda amalga oshganini ko'ra olish uchun sokin vaqt olib ibodat qilish kerak bo'ladi.

Luqo Xushxabarida muallif bu bog'liqlikni bir necha bor ko'rsatadi. Masalan, Iso: “Sizlar-chi, Meni kim deb hisoblaysizlar?” deb so'raganida, Butrus: “Sen Xudoning Masihisan!”, deb javob beradi. Bu oyatdan oldin esa Isoning yolg'iz O'zi ibodat qilayotgani yozilgan (Luqo 9:18-20). Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Luqo Isoning Butrusga ibodat orqali zohir bo'lganini bildirmoqchi. Shuningdek, Isoning yuz-ko'rinishi o'zgargani va kiyimlarining ham oppoq bo'lib porlashi voqeasi – U Xudoning O'g'li va Tanlangani sifatida shon-shuhratda namoyon bo'lishi ham Iso Butrus, Yoqub va Yuhannoni toqqa ibodat qilish uchun olib chiqqanidan keyin sodir bo'ladi (Luqo 9:28-36).

Xushxabarning boshiga qaytadigan bo'lsak, Shimon va Hanna haqida ham shunday deyiladi: ular “haq va diyonatli”

kishilar sifatida ta'riflanadi. Xudo ularga Isoni namoyon qilishidan oldingi oyatlarda ularning aynan shu sifatleri ta'kidlab o'tiladi (Luqo 2:25, 37; yana 2:28-32, 38). Yana Luqo Xushxabarida qayd etilishicha, hatto Isoning suvga cho'mdirilishida ham, Xudo uni O'g'lim deb e'lon qilgan paytda, osmon aynan Iso duo qilayotgan vaqtda ochilgan (Luqo 3:21-22).

Luqo bu haqiqatni aniq-ravshan ta'kidladi: Xudo Isoni odamlarga ibodat orqali namoyon qiladi. Shunday ekan, agar biz va'zlarimizda Isoning namoyon bo'lishini chin dildan istasak – Isoni butun Muqaddas Yozuvlarning markazi sifatida ochib berishni xohlasak – unda tayyorgarlikni ibodatdan boshlashimiz shart. Faqat shundan keyingina biz jiddiy ilohiyot mulohazalari bosqichiga kirisha olamiz. Faqat shundan keyingina biz Kalomiy ilohiyot va tizimli ilohiyot ustida ishlashga o'tishimiz mumkin.

KALOMIY ILOHIYOTNING FOYDALARI

Kalomiy ilohiyot bizdan bir qadam ortga chekinib, Xudo nima deganini va nima qilganini kengroq – bir butun holda ko'rishni talab etadi. Shunda bularning hammasi Xudoning ilohiy haqiqatiga – Iso Masihning o'limi va tirilishiga bog'lanishini ko'ra olamiz. Men bu sohani (Kalomiy ilohiyot) shunday deb tushunaman: Muqaddas Kitobni shunday o'qish kerakki, unda Xudoning odamzod uchun qutqarish rejasi Iso orqali asta-sekin ochib borilishi ko'rinib tursin.

Kalomiy ilohiyot sohasi va'z qilishning eng muhim qismi hisoblanadi, sababi u va'zning shunchaki aqliy mulohaza yoki odob-axloq haqidagi ma'ruzaga aylanib qolishidan saqlaydi.

Ijobiy tomoni shundaki, Kalomiy ilohiyot har bir oyat yoki parchadan sizga Iso Masih Xushxabarining negiziga yetib borish imkonini beradi. Isoning O'zi ham Luqo 24–bobda shunday qilgan. U butun Muqaddas Kitobni O'zi bilan bog'lab tushuntirgan. Shuning uchun ham Kalomiy ilohiyot muhim ma'lumotni muhimligicha saqlab qoladi.

Shunday ekan, Kalomiy ilohiyotni amalda qanday qo'llash mumkin? Uni va'zlarimizda qanday qilib to'g'ri qo'llashimiz mumkin? U va'z tayyorlash jarayonida bizga qanday yordam beradi? Buning uchun, menimcha, quyidagi uchta muhim ishni bajarishimiz kerak bo'ladi:

- Kalomiy ilohiyot bo'yicha mulohaza yuritishni o'rganing.
- Yangi Ahdning boshqaruviga ergashing.
- Xushxabar bilan to'g'ri bog'lanishlar qiling.

1 - Kalomiy ilohiyot bo'yicha mulohaza yuritishni o'rganing.

O'zimizda yo'q bo'lgan narsani qo'llay olmaymiz, to'g'rimi? Shuning uchun birichi qadam – Kalomiy ilohiyot bo'yicha mulohaza yuritishni o'rganish bo'ladi. Bunday mulohaza qilishni o'rganishning eng yaxshi yo'li bu Muqaddas Kitobni to'liq va muntazam ravishda o'qib borishdir. Shunday qilsangiz butun Muqaddas Kitobni chuqur va ichidan anglay oladigan, matnlar orasidagi bog'lanishlarni ko'ra oladigan bo'lasiz. Shu bois, Muqaddas Bitiklarni muntazam ravishda ibodat bilan o'qib borishni odat qilib oling. Undagi har bir

kitobni o'qiganingizda, ularning musiqiy qatorini qidiring. Siz Muqaddas Kitobni o'qib, to'liq yoki yaxlit manzarani ko'rishga qancha ko'p vaqt sarflasangiz, katta manzarani shuncha aniqroq ko'ra oladigan bo'lasiz.²⁴

Albatta, o'zingizda keng qamrovli Kalomiy ilohiyot bo'yicha mulohaza qilish mahoratini shakllantirib borish bilan birga, har hafta va'z tayyorlaganingizda ham bu bog'lanishlarni topishingiz kerak bo'ladi. Biroq, buni Muqaddas Kitobning tarixi va adabiy xususiyatlarini inobatga olgan holda bajarish kerak. Har bir parchaning talqini "mening matnimda Iso qayerda?" degan oddiy savolga javob berish bilan cheklanmaydi. Iso biror bir toshning ostiga yoki biror bir daraxtning orqasiga yashirinib olmagan-ki, uni topib olsak. Biz yuqoridagi savoldan ko'ra bir oz chuqurroq savollardan

24 Kalomiy ilohiyotni tushunish uchun yaxshi ikkilamchi manbalar ham mavjud. Men shunday manbalardan Gerardus Vosning "Kalomiy ilohiyot" asarini o'qishdan boshladim. Vos Muqaddas Kitobni davrlar (Muso, payg'ambarlar davri va Yangi Ahd) nuqtai nazaridan tushungan va o'z asarida batafsil tushuntirib bergan. Keyin Jonatan Edvardnsning "Qutqarilish tarixi" asarini o'rganishga o'tdim. U ham insoniyat tarixini uch asosiy davrga bo'lgan: birinchi gunoh qullikdan Masihning kelishigacha, Masihning tanada kelishidan tirilishigacha, so'ng tirilishdan dunyoning oxirigacha. Bu asardan keyin esa Grem Goldsvor-tining "Xushxabar va Shohlik" asarini o'qidim. Unda muallif "Shohlik" g'oyasini butun Muqaddas Kitobni birlashtiruvchi markaziy mavzu sifatida ta'riflaydi (menga o'xshab ilohiyotni o'rganmoqchi bo'lganlarga aynan mana shu asarni tavsiya etaman). Agar sizga soddaroq tushuntirilgan asar kerak bo'lsa, Van Robertsning "Xudoning buyuk manzarasi" asarini o'qing. Bordi-yu, sizga yanada soddaroq, yosh bola darajasida sodda tushuntirilgan asar kerak bo'lsa, "Muqaddas Kitobning katta manzarasi" asarini tavsiya qilaman; [Geerhardus Vos, *Biblical Theology*; Jonathan Edwards, *A History of the Work of Redemption*; Graeme Goldsworthy, *Gospel and Kingdom*; Vaughan Roberts, *God's Big Picture*; David R. Helm and Gail Schoonmaker, *The Big Picture Story Bible*].

boshlashimiz kerak. Masalan:

- Bu matnni tushunishimga Xushxabar qanday ta'sir qiladi?
- Mening matnim Xushxabarning kelishiga qanday ishora qiladi, yoki uni qanday namoyon qiladi?

Biroq, yaxshiroq savollar qo'yish ham yetarli emas.

2 - Yangi Ahdning boshqaruviga ergashing.

Agar ikki Ahdni o'zaro bog'lash nuqtai nazari bilan aytadigan bo'lsak, ilk "Kalomiy ilohiyotchilar" aynan Yangi Ahd mualliflari bo'lgan. Yangi Ahd sahifalarini varaqlasangiz, deyarli har bir betida Eski Ahddan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirilganini yoki son-sanoqsiz ishoralarni ko'rasiz. Bu esa Kalomiy ilohiyot bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har qanday kishi uchun beqiyos yordam hisoblanadi. Shu ma'noda Yangi Ahd haqiqiy xazinaga o'xshaydi — u ilohiyotchilik usullarini ko'rsatib beradi. Agar siz o'rganayotgan matn boshqa bir matnga ishora qilayotgan bo'lsa (ayniqsa, ikki Ahdni bog'lab turgan bo'lsa), demak, siz to'g'ri yo'ldan boshlagansiz.²⁵

Men bu bobning boshida Pavlusning Havoriylar faoliyatlari kitobidagi uslubi orqali Eski Ahd va Yangi Ahd oyatlarini Iso Masihning o'lim va tirilish voqeasi bilan bog'lash katta diqqat va puxta yondashuvni talab qilishini

25 Men deyarli har hafta foydalanadigan qulay vosita – Nestle-Aland 28–nashr indeksidir. Buning uchun Yunon tilini bilish shart emas, chunki unda Yangi Ahd-da tilgan olingan Eski Ahddagi har bir ishora va iqtiboslar keltirilgan.

aytib o'tgan edim. Lekin, nazarimda, uning Afinada aytgan nutqiga (Havoriylar 17:22-31) birrov ko'z tashlasak, u shu bog'lanishlarni qanday qilib amalga oshirgani haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Garchi bu nutq Muqaddas Kitobning muayyan bir matnini batafsil sharhlab bermagan bo'lsa-da, u butun Kitobning Xushxabarga xos mohiyatini ochib beradi. Bu mohiyat, ayniqsa, Pavlus o'z nutqida muayyan ilohiy tushunchalarni ta'kidlaganida yaqqol ko'rinadi.

Kirish

- Pavlus sajdagohlardan foydalanib Xudo haqida so'z ochadi (22-23–oyatlar).

Asosiy qism

- Pavlus suhbatini Xudo olamni va undagi hamma narsani yaratgani bilan boshlaydi (24–oyat).
- Keyin esa insoniyatning umumiy muammosi butparastlik ekanini ma'lum qiladi (24-25–oyatlar).
- U Xudoning abadiyligini hamda biz bilan munosabatda bo'lishni istashini ta'kidlaydi (26-28–oyatlar).
- Xudo insoniyatning aybdorligini e'lon qilib ularni tavba qilishga chaqiradi (29-30–oyatlar).

Xulosa

- Pavlus o'lib tirilgan Iso haqida gapirib, Unga sodiq bo'lishimiz kerakligini aytadi (31-oyat).
- So'ng, Xudo dunyoni adolat bilan hukm qiladi, deb va'zini yakunlaydi (31-oyat).

Pavlus atigi sakkizta oyatda butun Muqaddas Kitob tarixini – Ibtidodan Vahiygacha bo'lgan hikoyani tushuntirib berdi. U Xudoning Yaratuvchi sifatidagi maqomi, insoniyatning gunohga botgani, Masihning tirilishi va Uning osmonda belgilangan kunda insoniyatni hukm qilish uchun qaytib kelishini bir-biriga bog'lab bayon qildi. Shu ma'noda uning bu va'zi Muqaddas Kitob tarixining ulkan manzarasini qisqa vaqtda samarali tarzda qanday yetkazish mumkinligiga eng yaxshi namunadir. Pavlusning bu va'zi bizga anchagina saboq beradi: biz qaysi oyat yoki kitobni o'qishimizdan qat'i nazar, uning namunasiga ergashishimiz mumkin.

Va'z tayyorlashda Kalomiy ilohiyotdan foydalanishning mana shu ikki usuli muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki sizga Muqaddas Kitob haqida umumiy qarash, uning butun tarixini va qay tarzda bir-biriga bog'lanishini tushunish zarur bo'ladi. Shu bilan birga, siz Yangi Ahdning Eski Ahd bilan qanday bog'liqligini va Eski Ahdning Yangi Ahdga qanday yo'l ochib berganini anglab yetishingiz kerak bo'ladi. Lekin, eng muhimi, hatto Yangi Ahdda Eski Ahddan aniq iqtibos keltirilmagan hollarda ham, matnlar orasida bog'lanish yasash uchun maxsus “vositalar”, ya'ni usullar va bilimlarga ega bo'lishingiz zarur.

3 - Xushxabar bilan to'g'ri bog'lanishlar qiling.

Agar mening so'nggi bo'limlarda aytgan fikrlarim to'g'ri bo'lsa, u holda sizning asosiy vazifangiz siz va'z qilmoqchi bo'layotgan matndan Xushxabar bilan to'g'ri bog'lanishlarni topishdir.

Fikrimcha, bu borada sizga quyidagi to'rtta asosiy yo'nalish yaxshi yordam beradi:

- Bashoratning amalga oshishi
- Tarixiy yo'nalish
- Asosiy mavzu va g'oyalar
- O'xshatishlar va taqqoslovchi qismlar

Albatta, bu yo'nalishlar ko'p joylarda o'zaro bir-biriga qo'shilib ketadi. Masalan, bashoratning amalga oshishi mavzuga qo'shilib ketishi yoki o'xshatish orqali berilishi mumkin. O'xshatishning o'zi matn mavzusini ochib berishi ham mumkin. Mavzu esa tabiiyki tarixiy yo'nalish bilan bog'liq bo'ladi. Yana boshqa bir oz farq qiladigan yo'nalishlar ham bor. Lekin eng muhimi — ularni qanday aniqlash yoki tartibga solish emas, balki ularning haqqoniy va asosli bo'lishidir. Shu yo'nalishlar bor-yo'g'i yo'l boshidagi qadamlar, xolos.

Bashoratning amalga oshishiga e'tibor qarating

Shubhasiz, eng aniq bog'lanishlar matndan aniq ko'rinib turadiganlaridir. Yaxshi bilasizki, Eski Ahdda Xudo kelajakda Masihni yuborishga va'da bergan va bunga anchagina misollar bor. Yangi Ahdga kiritilgan kitoblarning mualliflari esa ana shu bashoratlarga tayanib, ularning Iso Masih shaxsida va

hayotida qanday amalga oshganini ochib berganlar.

Bashoratning bajarilishiga eng oddiy misol qilib Matto Xushxabaridagi “*bajo bo'lmoq*” so'zining ishlatilishini ko'rsatish mumkin. Bu so'z Matto Xushxabarida turli shakllarda qo'llangan. Muallif Xushxabarni hikoya qilar ekan, taxminan 10 yoki undan ham ko'proq marta hikoyalar orasida to'xtab, Iso Masih Eski Ahd payg'ambarlari qilgan bashoratlarini qanday amalga oshirganini ta'kidlab o'tadi. Misrga ketish voqeasidan tortib, Isoning masallar orqali so'zlashigacha (Matto 2:14-15; 13:35), Uning hayoti ko'p jihatdan to'g'ridan-to'g'ri Eski Ahd payg'ambarlari qilgan bashoratlar amalga oshganini ko'rsatadi. Hatto Iso Masihning O'zi ham Xushxabarning eng muhim nuqtalarida bu haqda ochiq aytadi:

Yoki o'ylaysanki, Men Otamga iltijo qila olmaymanmi va U Menga o'n ikki legiondan ortiq farishtalarni yubormaydimi? U holda, bularning sodir bo'lmog'i kerakligi haqidagi Yozuv qanday *bajo bo'ladi?*” Shu payt Iso xalqqa dedi: “Sizlar Meni qo'lga olish uchun xuddi qaroqchining oldiga chiqqandek qilich va tayoq bilan qurollanib chiqibsizlar, biroq Men ma'badda ta'lim berib, har kuni sizlar bilan birga o'tirar edim, sizlar esa Meni qo'lga olmas edingizlar”. Bularning hammasi payg'ambarlarning yozuvlari *bajo bo'lishi uchun* sodir bo'ldi. Shunda hamma shogirdlari Uni tashlab, qochdilar. (Matto 26:53-56)

Matto Xushxabarida Eski Ahddagi bashoratlar Iso Masihning shaxsi va hayotida amalga oshirishining to'g'ridan-to'g'ri va oddiy, shu bilan birga, aniq-ravshan usulini qo'llagan. Faqat Mattogina emas, Luqo bilan Yuhanno ham o'zlari bayon etgan Xushxabarlarida xuddi shu usulni qo'llaganlar. Bu usul keyinchalik ilk jamoatlarda havoriylar xizmatining bir qismiga aylandi. Masalan, Havoriylar faoliyatlari kitobining 3–bobida Butrus o'z va'zlaridan birida juda muhim apologetik himoyani amalga oshiradi: “Xudo esa O'zining hamma payg'ambarlarining og'zi bilan Masihning azob chekishini oldindan qanday xabar qilgan bo'lsa, shunday bajo keltirdi” (Havoriylar 3:18; qiyoslang: 13:27). Yoqub ham Ibrohimning imoni orqali oqlanishi haqida gapirar ekan, shu usuldan foydalanadi (Yoqub 2:23).

Albatta, bu taqqoslash usulini Yangi Ahddan Eski Ahdga qaratib emas, aksincha, Eski Ahddan Yangi Ahdga qaratib qo'llash ham mumkin. Ya'ni, siz Eski Ahddan boshlab Yangi Ahdda bu va'dalar Iso Masih shaxsida va hayotida qanday amalga oshganini aniq ko'rishingiz va ko'rsatishingiz mumkin. Masalan, Muso Isroil xalqiga Xudo unga o'xshagan – Xudoning So'zini yetkazadigan yana bir payg'ambarni yuborishini aytgan. Keyin Butrus bizga Iso aynan shu va'dani bajarganini ta'kidlaydi (Qonunlar 18:15-22; Havoriylar 3:22-26).

Matndan tarixiy yo'nalishni izlang

O'rganayotgan matningizni Xushxabar bilan bog'lashning ikkinchi usuli bu tarixiy voqealarning rivojlanishini yoki *tarixiy yo'nalish*ni topishdir. Bashoratlarning amalga oshishi

usulida bo'lgani kabi, matnning tarixiy yo'nalishini izlash ham "Xudo O'zini asta-sekin, bosqichma-bosqich oshkor etadi" degan g'oyaga tayanadi. Shunga ko'ra, najot tarixi hikoyasi ham muayyan yo'nalishga ega bo'lib, uning cho'qqisi xochda namoyon bo'ladi. Ammo bu usul bizdan najot tarixining yagona tarixiy yo'lini, aniqrog'i, asosiy syujetini ko'ra bilishni va undagi hal qiluvchi fikrlarni ajratib olishni talab qiladi.²⁶

Masalan, najot tarixini quyidagicha qisqacha ifoda etish mumkin: **Yaratilish** → **Gunoh** → **Qutqarilish** → **Yangi Yaratilish**. Muqaddas Kitobdagi har bitta matn aynan shu bosqichlardan biri haqida gapiradi. Shunday ekan, matnni o'rganish jarayonida biz o'sha matnni najot tarixi ichida joylashtirish imkoniga ega bo'lamiz. Demak, matnni Xushxabar bilan bog'laganimizda u mana shu katta tarixiy yo'nalishning qaysi nuqtasiga to'g'ri kelishi oson va yaqqol ko'rinadi.

Bu juda oddiy usul. Masalan, birorta kompyuter dasturida yoy shaklini chizish uchun kamida uchta yoy shaklini chizishda qo'l keluvchi nuqtalar bo'lishi kerak. Bu geometrik masala. Xuddi shu tarzda, Muqaddas Kitobda tarixiy yo'nalishlarni chizish va uning Xushxabarga qanday bog'liqligi borligini ko'rish uchun sizga ham uchta nuqta kerak. Mening tajribamga ko'ra, buni ko'rishning eng oson usuli Muqaddas Kitobdan bitta parchani olib, Najot tarixi ichida undan oldingi bir nuqtani va undan keyingi bir nuqtani

26 Sidney Greidanus, *Eski Ahddan Isoni va'z qilish: Zamonaviy germeneytik uslub* (Grand Rapids, Michigan shtati: Eerdmans nashriyoti, 1999), 234-240-betlar; [Sidney Greidanus, *Preaching Christ from the Old Testament: A Contemporary Hermeneutical Method* (Grand Rapids, MI: Eerdmans, 1999), pages 239-240].

belgilab olish kerak. So'ng esa ana shu uch nuqta yordamida men tarixiy yo'nalishni chizaman va shu tarzda men tanlagan matn Xushxabarga qanday bog'liq ekanini aniq ko'ra olaman.

Masalan, Voiz 12–bob 1-8–oyatlari Yaratuvchini yodda tutishga alohida urg'u beradi. Rimliklarga maktubning 1–bobi ham xuddi shu g'oyani ta'kidlaydi. Har ikki matn najot tarixi ichidagi muayyan bir nuqtani ko'rsatadi, qolgan butun najot tarixi esa ana shu nuqtadan oqib chiqadi. Siz Muqaddas Kitobdagi voqealarga qaytib, haqiqiy yaratilishni (Ibtido 1-2) ko'rib chiqishingiz yoki kelajakka qarab, yangi yer va osmonning yaratilishi g'oyasiga (2–Korinfliklarga 5:17) o'tishingiz mumkin. Buning har ikkalasi ham najot tarixi ichidagi muhim davrlar bo'lib, ular orqali najotning markaziga bog'lanish mumkin. Agar siz o'rganayotgan parchada oxirzamonga oid mazmun yoki apokaliptik ruh bo'lsa, matnlarni mana shunday yo'l bilan bog'lash juda foydali bo'ladi. Chunki yangi yer va osmonning yaratilishi Masihning qaytib kelishini va unga bog'liq barcha oqibatlarni o'z ichiga oladi.

Mavzularga diqqat qiling

Muqaddas Kitobning barcha qismlarini yana bir usul bilan – ilohiy *mavzular* orqali bog'lash mumkin. Xudo O'zini Muqaddas Bitiklar orqali asta-sekin muayyan mavzular yoki ramzlar vositasida namoyon qiladi. Umumiy hisobda yigirmadan ortiq shunday mavzularni bilamiz. Ammo eng asosiylaridan ayrimlari: Shohlik, Ahd, Ma'bad/Ruhoniy/Qurbonlik va Chiqish/Surgun/Tinchlik mavzularidir.

Mavzularning qanday ishlashini tushunish juda muhim.

Masalan, Misrdan chiqish voqeasi Chiqish kitobida qayd etilgan tarixiy hodisadir. Biroq, uning ma'nosi shu bilan cheklanib qolmaydi, balki Muqaddas Kitob bo'ylab qayta-qayta takrorlanadigan bir fikrga aylanadi: Xudo O'z xalqini qullikdan olib chiqib, sinovlardan o'tkazadi va ularni O'z marhamati huzuriga yetaklaydi. Eski Ahd payg'ambarlari asirlikka olinish va asirlikdan qaytish haqida yozar ekan, uni "yangi chiqish" sifatida tasvirlaydilar. Demak, chiqish mavzusi Iso Masihning o'limi va tirilishida o'zining oliy nuqtasiga yetadi (Luqo 9:30-31 ga qarang).

Esimda, bir safar men Luqo 22:14-30 ni o'rganayotgan edim. Bu yerda "shohlik" mavzusi juda aniq ko'rinib turardi. Chunki bu so'z mazkur parchada to'rt marta takrorlanadi va Luqo Xushxabarining qolgan qismlarida ham asosiy mavzu bo'lib qoladi. Biroq, matnni o'qib chiqar ekanman, yana bir mavzuni payqadim: **ahd**. Qarang Luqo, 22–bob 20–oyat bu haqida nima deydi: "Shuningdek, kechlikdan keyin Iso kosani olib dedi: «Bu kosa sizlar uchun to'kilayotgan Mening qonimdagi Yangi Ahddir.»

"Ahd" so'zi Luqo Xushxabarida faqat ikki marta uchraydi: mana shu oyatda va Luqo 1:72 da. Shuning uchun men Muqaddas Kitobda tasvirlangan turli ahdlar ustida izlanishga kirishdim. Nuhdan tortib Ibrohim va Dovudgacha — *ahd mavzusi* ko'p uchraydi va bu juda muhim mavzu. Biroq Luqo Xushxabarida ishlatilgan bu so'z, albatta, o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki bu so'z bilan Luqo shunchaki bir ahd haqida emas, balki "**Yangi Ahd**"ni nazarda tutayotgan edi. Yangi Ahd 1–Korinfliklarga 11:25 dagi oxirgi kechki taomga ham bog'langan. Biroq, bu mavzu meni, eng avvalo, Muqaddas

Kitobda bu soʻz ilk marta ishlatilgan joyga – Yermiyah 31:31-34–oyatlarga olib bordi.

Mana, shunday kunlar kelmoqda, – deydi Rabbiiy, – Men Isroilning xonadoni va Yahudoning xonadoni bilan Yangi Ahd tuzaman. Bu Ahd – Men ularning otalarini qoʻlidan ushlab, Misr yeridan olib chiqqan kunlarimdagi ular bilan tuzgan Ahdga oʻxshamaydi. Men ularga sodiq xoʻjayin boʻlsam ham, ular Mening oʻsha Ahdimni buzdilar. Lekin mana, oʻsha kunlardan soʻng Men Isroilning xonadoni bilan tuzadigan Ahdim shuki, – deydi Rabbiiy, – Men Qonunimni ularning ichiga joylayman, uni ularning yuraklariga yozib qoʻyaman. Men ularning Xudosi boʻlaman, ular esa Mening xalqim boʻladilar. Hech kim oʻz yaqiniga va hech kim oʻz birodariga: «Rabbiyni tanib-bilinglar», – demaydi. Chunki hamma: kichikdan kattagacha Meni tanib-biladi, – deydi Rabbiiy, – zero Men ularning qonunbuzarliklarini kechiraman va ularning gunohlarini boshqa esga olmayman. (Yermiyah 31:31-34)

Voizlik xizmatimda Yangi Ahdning Yermiyah 31–bob bilan bogʻliqligini tushunib yetish menga foydali boʻldi. Chunki bu menga vaʼz qilishga yordam beradigan kamida yana uchta bogʻliqlikni ochib berdi. Birinchi bogʻliqlik shohlik axloqi haqida. Luqo asosan mana shu mavzuga urgʻu beradi. Yermiyah 31:34 da Xudo Yangi Ahddan bahramand

bo'ladiganlarni “katta” va “kichik”lar sifatida tilga oladi. Luqo Xushxabarida Iso bu fikrni ko'p marta tilga oladi (masalan, 7:28 va 9:48). Shuningdek, U “oxirgilar birinchi, birinchi bo'lganlar oxirgi bo'ladi” degan tamoyilni ham ta'kidlaydi (yoki kamtar bo'lish – Luqo 13:30; 14:11; 17:7-10 ga qarang). Luqo 22–bobda esa Iso shogirdlariga Yangi Ahdning asosiy ne'matlari – xizmat qilish va kamtar bo'lish ekanini o'rgatadi. Uning fikricha, haqiqiy buyuklik – kichik bo'lish va boshqalarga xizmat qilishda (22:24-27).

Ikkinchi bog'lanish – ishtirok. Xudo nafaqat ahd tuzgan, balki shu ahd orqali odamlariga Shohlikdan ulush ham bergan. Yermiyah 31–bobda “ahd tuzish” so'zi ishlatilsa, Luqo 22:29 da Iso “shohlikni vasiyat qilish” haqida gapiradi. U shogirdlariga shunday deydi: “Sizlar Mening sinovlarimda Men bilan birga bo'ldingizlar. Shuning uchun Otam Menga *vasiyat qilgani* kabi, Men ham sizlarga Shohlikni *vasiyat qilyapman*, toki sizlar Mening Shohligimdagi ziyofatda o'tirib yeb-ichinglar va taxtlarga o'tirib, Isroilning o'n ikki qabilasini hukm qilinglar” (Luqo 22:28-30).

Uchinchi bog'lanish shundan iboratki, shogirdlar kabi biz ham “eng buyuk” bo'lish haqida qayg'urishimiz shart emas (Luqo 22:24). Chunki Iso bizga O'z hukmronligining ulushlarini va'da qiladi (22:30). Qizig'i shundaki, Yermiyah 31–bobda asosiy urg'u birlashgan Isroilga qaratilgan – u yerda qabilalar butun dunyo ustidan hukmronlik qilish huquqiga ega bo'ladigan yagona xalq sifatida tasvirlanadi (Yermiyah 25:17-29 ga qarang).

Shu tariqa, ahd mavzusi orqali Luqo 22–bob va Yermiyah 31–bob o'rtasidagi bog'lanishlarni topganim Luqo 22:14-

30 asosidagi va'zimni ancha boyitdi. Shu tariqa va'zim faqat Rabbii bilan kechki ovqat haqidagina emas, balki uyimizda oilaviy kechki ovqat paytidagi odob-axloq haqida ham bo'ldi. Bu va'z faqat Xudoning najot ahdi haqida emas, balki men ham ishtirok etadigan va unda hukmronlikka sherik bo'ladigan ahd haqida ham bo'ldi.

O'xshatishlarni izlang

Va'z qiluvchilar eng ko'p qo'llaydigan, shu bilan birga, eng ko'p noto'g'ri ishlatishadigan usullardan biri — *o'xshatishlardir*. Bir tomondan, bu yo'nalish ancha murakkab tuyulishi mumkin, chunki u analogiya, tipologiya, allegoriya, metafora va boshqa ko'plab texnik atamalarni bir-biridan farqlashni talab qiladi. Albatta, men sizga bu atamalarga ortiqcha berilib ketmaslikni tavsiya qilgan bo'lardim. Chunki turli Muqaddas Kitob olimlari va voizlari ularni turlicha ta'riflaydilar.

Yana bir jihati shundaki, bunda osongina shu mavzuga haddan tashqari berilib ketish mumkin. Masalan, agar siz tipologiya degan tushunchani yaxshi o'zlashtirsangiz, undan keyin ko'rgan hamma narsangizga tipologiya asosida qaraydigan bo'lib qolasiz. Agar shunday qiladigan bo'lsangiz, siz aytadigan har bir va'zingizni ham majburan tipologiya qolipiga solib, uni o'ziga to'g'ri kelmaydigan bir shaklga keltirib qo'yasiz.

Analogiya esa ikki narsani taqqoslash yoki ular orasidagi o'xshashlik va farqni ko'rsatishning keng qamrovli usulidir. Yaxshi hikoyalar qahramonlar yoki predmetlarga boshidanoq muayyan xislat yoki vazifalarni yuklaydi, keyin esa bu narsalar

katta ma'noga ega bo'lib chiqadi. Yaxshi hikoyalar aynan shu jihati bilan qadrlanadi. Shu sababli biz kitobni yana qayta o'qishni yoki bir ko'rgan filmimizni ikkinchi marta ham ko'rishni istaymiz. Birinchi marta o'qiganingizda siz e'tibor bermagan kichik detallar, aslida, muallifning yashirin maqsadi ochilganidan keyingina haqiqiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Hikmatlarda aytilganidek: "Ishni yashirish — Xudoning shuhratidir, podshohlarning shuhrati esa buni izlab topishdir" (Hikmatlar 25:2). Aftidan, Xudo O'zining cheksiz donoligi bilan Isroil tarixidagi ba'zi odamlarning hayotiga, narsalarga va hodisalarga o'xshatish ma'nosini joylagan. Bu o'xshatishning haqiqiy mazmuni esa faqat Masihda to'liq namoyon bo'ladi. Shuning uchun Muqaddas Kitobdagi bunday o'xshatishlarni anglay olish yaxshi va'z qilish uchun juda muhim ko'nikma hisoblanadi.

Bu o'xshatishlar keng ma'noda bo'lishi mumkin – bunday holda biz ularni shunchaki **o'xshatish** deb ataymiz. Ammo Muqaddas Kitobdagi biror shaxs, voqea, muassasa yoki predmet Iso Masihning muayyan jihatini oldindan aniq ifoda etsa, bunday holat **tipologiya** deyiladi. Tipologiyada o'xshatish bashorat qilish xususiyatiga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan yanada chuqurroq ma'no kasb etadi.²⁷

Masalan, Shoh Dovud Masihning "tipi" sifatida ko'riladi. Bunda Dovud (tip) va Iso Masih (anti-tip) shohlik orqali o'zaro bog'lanadi. Lekin bu o'xshatish bir xil emas: Iso

27 G. K. Biyl, *Yangi Ahdda Eski Ahddan foydalanish qo'llanmasi: Ekzegetika va talqin* (Grand Rapids, Michigan: Baker Academic nashriyoti, 2012), 14–bet; [G.K. Beale, *Handbook on the New Testament Use of the Old Testament: Exegesis and Interpretation* (Grand Rapids, MI: Baker Academic, 2012), page 14].

Dovudga o'xshaydi, ammo U Dovuddan ulug'roqdir. Shohlik ma'nosi Iso orqali cheksiz darajada katta mazmun kasb etadi.

Keling, bir misolni ko'rib chiqaylik. Chikagoning Xayd-Park mavzesidagi Chikago universitetining yonida joylashgan jamoatimizda biz va'zlar jadvalini akademik o'quv yiliga moslab tuzamiz. Ko'pchilik odamlarimiz yozgi ta'tilga ketganligi sababli, yoz vaqtini maxsus va'zlar turkumi uchun ajratish biz uchun mantiqan to'g'ri yo'ldir. Bir necha bor yoz faslida Shomuilning (Shohliklar) birinchi va ikkinchi kitoblari bo'yicha va'zlar turkumini o'tkazishga qaror qilganmiz. So'ng menga Muqaddas Kitobdagi eng og'ir bo'limlaridan biri deb hisoblaydigan joydan – 1–Shohliklar 28–bobidan va'z qilishni topshirishdi. Bu men uchun sharaf edi.

Ayni shu bobning oxirida o'xshatish g'oyasi men uchun chinakkamiga jonlandi va butunlay boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ldi.

Shunda Shoul butun tanasi bilan yerga ag'darilib tushdi, chunki u Shomuilning so'zlaridan qattiq qo'rqib ketdi. Buning ustiga, bir kecha va bir kunduz non yemagani uchun uning kuchi ketdi. O'sha ayol Shoulga yaqinlashdi va uning qattiq qo'rqanini ko'rib dedi: -Mana, cho'ringiz ovozingizga quloq soldi va jonini xavfga qo'yib, siz menga buyurgan amringizni bajo keltirdim. Endi siz ham cho'ringizning ovozigga quloq soling – oldingizga ozgina non qo'yay, yeb oling. Bu yo'lingizda ketayotganingizda sizga quvvat bo'ladi. Shoul rad etib: -Yemayman! - dedi. Biroq uning xizmatkorlari ham, ayol ham

uni yeyishga unday boshlashdi. Shoul ularning so'zlariga quloq solib, yerdan turdi va to'shakka o'tirdi. Ayolning uyida semiz buzog'i bor edi. Ayol uni tezda so'ydi. Un oldi-da, xamir qorib, xamirturushsiz non yopdi. Taomlarni Shoul bilan uning xizmatkorlarining oldiga qo'ydi. Ular yeb-ichdilar va o'sha tundayoq turib, jo'nab ketdilar (1–Shohliklar 28:20-25).

Shoulning umri poyoniga yetib qolgan edi. U Endordagi jodugar ayolni chaqirib, u orqali Shomuilning ruhi bilan gaplashmoqchi edi. U jodugarni Shomuilning ruhini chaqirishga majbur qildi. U xuddi 1–Shohliklar 15–bobda Xudo Shoulga Shomuil orqali O'zining hukmini aytganidek, bu safar ham Shomuil unga Xudoning hukmini aytadi, deb o'yladi. Shomuil esa Shoulga uning umri tugaganini ma'lum qildi. So'ng Shoul ayolning qistovi bilan o'sha jodugar ayol va o'zining xizmatkorlari bilan non sindirib yedi. Avvaliga u ko'nmadi, biroq Xudoning so'zlaridan keyin umidsizlikka tushib, oxir-oqibat jodugarning aytganiga ko'ndi. Ular xamirturushsiz non va bo'rdoqi buzoqning go'shtidan tanovvul qildilar. Keyingi kuni Shoul o'z qilichiga yiqilib jon berdi.

Bu o'xshatish juda qiziq. Bir tarafdin, bu voqea Fisih bayrami ziyofatining mutlaqo teskarisiga o'xshaydi. Shoul va uning o'g'illari Xudoning hukmiga ko'ra qaytarib bo'lmaydigan o'lim jazosiga duch kelish arafasida edilar. Shu bilan birga, bu holat Iso Masih shogirdlari bilan o'tkazgan Qutlug' kechlikdan juda farq qiladi. Shoul o'zining bir nechta xizmatkori bilan o'limidan bir kun oldingi kechada dasturxonga o'tirdi. Iso

ham xuddi shunday, O'z shogirdlari bilan o'limidan avval non sindirib yegan edi. Ularning har ikkisi ham non sindirgan. Ammo mana shu yerda o'xshatishning mohiyati ochiladi: Shoul Masihning timsoli emas, aksincha, anti-Masihning timsolidir. Uning hayotidagi shu kecha Iso shogirdlari bilan non sindirib yegan kechaga mutlaqo teskari ma'noga "ishora" qiladi. Undan farqli ravishda Iso o'sha kecha O'z hayotini "ko'pchilik uchun fido" etishga tayyorlanayotgan edi.

Ba'zilar bu hikoyada Shoul va Masih o'rtasida tipologik bog'lanishni ko'rishi mumkin. Boshqalar esa bu voqeani Fisih mavzusi bilan bog'laydi. Qanday nomlasak ham, ikki holat o'rtasidagi bu o'xshatish 1–Shohliklar 28–bobni yanada chuqurroq anglashimizga, pirovardida, Iso Masihning ulug'vor qurbonligida tamoman boshqa ma'noda o'z ifodasini topadi.

Qo'lingizdagi mana shu vositalar Kalomiy ilohiyot butun Muqaddas bitiklardan Masih haqida va'z qilishning imkonini beradi. Buning qanday katta kuch ekanini yaqqol ko'rib turgandirsiz?! Shuning uchun doim yodingizda tuting – Kalomiy ilohiyotdan foydalanish uchun quyidagi uchta muhim qadamni bosishingiz kerak bo'ladi. Birinchidan, Kalomiy ilohiyotni asos sifatida qabul qiling. Ikkinchidan, imkoni bo'lganida, Eski Ahd matnlarini Yangi Ahd yordamida talqin qiling. Uchinchidan esa matnlarni Xushxabar bilan izchil bog'lash uchun yuqoridagi to'rtta vositadan foydalanishni boshlang.

TIZIMLI ILOHIYOTNING VAZIFASI

Ilohiyotga oid mulohazani o'rganishning eng yaxshi boshlang'ich nuqtasi bu Kalomiy ilohiyotshunoslik

hisoblanadi. Agar siz ko'p tajriba to'plab, va'z qilish borasidagi Kalomiy ilohiyot bo'yicha ko'nikmalaringizni rivojlantirsangiz, tayyorgarlikning bu bosqichida yo'lning katta qismini bosib o'tasiz. Lekin shu bilan birga, ilohiyotga oid mulohazada yana bir yo'nalish ham muhim ahamiyatga ega: bu — *tizimli ilohiyot*.

Agar Kalomiy ilohiyot sizga Xudoning Masih orqali qutqarish rejasi bosqichma-bosqich ochilayotganini anglashga yordam bersa, tizimli ilohiyot Muqaddas Kitobda aytilgan barcha haqiqatlarni yig'ib, ularni ta'limotlar (doktrinalar) shaklida umumlashtirishga yordam beradi. U Muqaddas Kitobni tarixiy yoki xronologik tartibda emas (Kalomiy ilohiyot shunday qiladi), balki mantiqiy va ierarxik tartibda joylaydi. Yangi Ahdni o'rganish bo'yicha taniqli mutaxassis D. A. Karson tizimli ilohiyotga shunday ta'rif beradi: “Bu — ilohiyotning bir yo'nalishi bo'lib, u butun Muqaddas Kitobni va shu bilan birga uning qismlari o'rtasidagi mantiqiy (shunchaki tarixiy emas) aloqalarni kengroq ochib berishga intiladigan ilohiyot sohasidir.”²⁸

Shu bilan birga, biz ehtiyotkor ham bo'lishimiz kerak, deb o'ylayman. Garchi men voizlik qilishda tizimli ilohiyotning rolini qo'llab-quvvatlasam-da, voizlikda tizimli ilohiyot bilan ta'lim berish tizimlari orasida farq bor. Simeon bu haqida shunday degan: “Xudo O'z haqiqatini tayyor bir tizim ko'rinishida oshkor etmagan; Muqaddas Kitobning

28 D. A. Karson, “Yangi Ahddagi birlik va xilma-xillik: Tizimli ilohiyotning imkoniyatlari,” *Muqaddas Bitiklar va haqiqat*, tahrirchilar D.A. Karson va Jon D. Vudbrij (Grend Rapids, Michigan shtati: Baker nashriyoti, 1983), 69-70—betlar; [D.A. Carson, “Unity and Diversity in the New Testament: the Possibility of Systematic Theology,” in *Scripture and Truth*, ed. D.A. Carson and John D. Woodbridge (Grand Rapids, MI: Baker, 1983), pages 69-70].

o'zida aslida bunday tizim yo'q." Demak, bunday qat'iy e'tiqodning xulosasi quyidagicha: "Tizinga emas, Muqaddas Kitobga e'tibor qiling. Uning so'zlarini hech qanday tizinga bog'lamang, shunchaki qabul qiling va bo'ysuning. Sizlar «tizimli» imonlilar emas, balki «Muqaddas Kitobga bo'ysunadigan» imonlilar bo'ling."²⁹ Simeon haq, biz tizimni va'z qiladigan voizlar bo'lmasligimiz kerak.

Shunday bo'lsa-da, tizimli ilohiyotni ilohiyotga oid mulohazaga qo'shishning uchta amaliy foydasi bor:

1. U sizga imonda mustahkam turishingizga yordam beradi.
2. U sizga muayyan janrlar orqali matnni Xushxabar bilan bog'lashingizga yordam beradi.
3. U sizda masihiy bo'lmaganlar bilan gaplashish qobiliyatini charxlaydi.

29 Ushbu iqtiboslar Charlz Simeon bilan Kembrij talabalari orasidagi "suhbat kechalari"da A. V. Braunning qaydlaridan olingan. Abner Uilliam Braun, *Kembrijdagi Triniti Jamoati cho'poni, Qirollik kolleji katta ilmiy hamkori, ruhoniy Charlz Simeonning suhbatlari xaqidagi xotiralar* (London: Hamilton, Adams, & Co nashriyoti, 1863), 269–bet; [Abner William Brown, *Recollections of the Conversation Parties of the Rev. Charles Simeon, M.A.: Senior Fellow of King's College, and Perpetual Curate of Trinity Church, Cambridge* (London: Hamilton, Adams, & Co, 1863), page 269].

1 - Tizimli ilohiyot imonda mustahkam turishga yordam beradi.

Tizimli ilohiyot haqida mulohaza yuritishning eng katta foydasi – u sizning va'zga tayyorlanish jarayoningizni nazoratda ushlaydi va yo'l-yo'riq beradi. U sizni to'g'ri ta'limotga yetaklaydi. Chunki oyatlarni talqin qilish chog'ida siz shubhasiz murakkab parchalarga duch kelasiz va qiyin (matn izohlashiga oid) qarorlar qabul qilishingizga to'g'ri keladi. Oramizda hech kim mukammal emas, shu bois xatolar ham qilamiz. Matnga oid xulosalar qilishga qiynalganimizda sog'lom ta'limot bizga yo'l boshchilik qiladi.

Aytaylik, Yoqub 2:14–26 ni yuzaki izohlasak, Yoqub bu oyatlar orqali Pavlusning “faqat imon orqali najot topish” haqidagi ta'limotiga qarshi chiqmoqda, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Lekin siz bu matnga tizimli ilohiyotga oid mulohaza nuqtai nazaridan yondashsangiz, Pavlusning najot haqidagi so'zlari Yoqub aytgan gaplar bilan qanday *uyg'un holda* ekanini anglashga harakat qilasiz. Hatto barcha savollarga javob topa olmasangiz ham, siz bir narsani – Muqaddas Kitob o'zini o'zi izohlay olishini tushunasiz. Ana shunda siz muqaddas matnning xatosizligi haqidagi to'g'ri ta'limotni inkor etib qo'ymaysiz.

2 - Tizimli ilohiyot muayyan janrlar orqali matnni Xushxabar bilan bog'lashga yordam beradi.

Rostini aytganda, ba'zi janrlarda Kalomiy ilohiyotdan foydalanish ancha qiyin bo'ladi. Chunki Kalomiy ilohiyot – ulkan hikoya bo'lib, u asosan hikoya uslubida kelgan janrlar bilan yaxshi uyg'unlashadi. Masalan, Eski Ahddagi she'riy

uslub (masalan, Zabur) butun Muqaddas Kitobning katta tarixiy qissasiga siz kutganingizdek keng yo'l ochmasligi mumkin. Yangi Ahddagi maktublar esa ko'pincha mantiqiy bahs va dalillarga asoslangani uchun ularni ham Kalomiy ilohiyot bilan Xudoning najot tarixiga (katta hikoyaga) bog'lash oson bo'lmaydi.

Biroq, diskursga (nutq) boy bo'lgan yoki she'riy shaklda yozilgan janrlar tizimli ilohiyot orqali Xushxabar bilan ancha oson bog'lanadi. Chunki bu janrlarda ko'p hollarda asosiy tushunchalar – imon, inoyat, oqlanish, gunoh kabi mavzular ko'tariladi. Shuning uchun, masalan, Zaburda gunohdan tavba qilish haqida so'z ketsa, yoki Pavlus imon va amallar haqida yozsa, bizda Xushxabarning asosiy ilohiy tushunchasiga olib boradigan haqiqiy eshik paydo bo'ladi.

3 - Tizimli ilohiyot masihiy bo'lmaganlar bilan gaplashish qobiliyatini charxlaydi.

Menimcha, masihiy bo'lmasa-da jamoatimizga kirib kelayotgan odamlarning ko'pchiligi Habashistonlik amaldor kabi Ishayo kitobini yaxshiroq anglashni chin dildan istaydigan odamlar emas. Aksincha, ular ko'proq yovuzlik muammosi, Xudo, aybdorlik, qutqarilish va shu kabi savollar berish uchun kelishadi. Bunday savollarga javoblar esa tizimli (ya'ni muayyan yo'nalishga solingan) ta'limot toifalaridan kelib chiqadi. Shuning uchun va'z paytida matnni tizimli ilohiyot bilan to'g'ri bog'lay olish – masihiy bo'lmagan kishini Xudoning Kalomiga jalb etishning eng samarali yo'li bo'lishi mumkin.

Masalan, tasavvur qilaylik, masihiy bo'lmagan bir odam va'zingizni tinglayapti va unda matnda kelgan “gunoh”

tushunchasiga oid savollar paydo bo'ldi. Unga bu tushunchani yoritishning yaxshi usuli – ilohiyotda “gunoh” qanday tasvirlanishini ko'rsatishdir. Tizimli ilohiyotda gunoh uch xil asosiy timsol bilan tushuntiriladi: og'irlik (yuki), qarz va dog'. Shunday qilib, tinglovchi siz o'qigan matnda “gunoh” tushunchasini darrov tushunmasa ham, siz va'zingizda gunoh tushunchasini kengroq tushuntirib berish orqali unga yordam bergan bo'lasiz.

YANA BIR QADAM QOLDI

Ushbu bobda biz ko'p narsani ko'rib chiqdik. Umid qilamanki, siz matnni faqat izohlab (ekzegeza) qilib, uning ma'nosini amalda qo'llashga shoshilmaslik, yoki hatto izohlash bilan cheklanib qolmaslik qanchalik muhimligini angladingiz. Shu bilan birga, matningiz ma'nosi sizni qanday qilib Xushxabar bilan bog'lashi mumkinligi haqida o'ylash uchun vaqt ajratish qay darajada muhimligini ham ko'rdingiz degan umiddaman. Tarixiy-tanqidiy usulni to'g'ri tushunish, Kalomiy ilohiyot va tizimli ilohiyot vositalaridan unumli foydalanish sizni muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Biroq, bu tugadi degani emas. Oldinda bizni zamonamizning qiyinchiliklari va talablari kutmoqda.

4-BOB

BUGUN

Va'zga tayyorgarlik ko'rishning oxirgi bosqichi bu uni *bugun* bilan bog'lash. Nihoyat, o'qigan matnimizni bugungi kunga qanday bog'laymiz, degan savolga ham yetib keldik. Qadimiy matnni "ularga/o'shanda" deb izohlab berilgan bosqichini ortda qoldirdik. O'sha qadimiy matnning tepaliklaridan ilohiyotga oid mulohazaning chizig'i ham ko'rinadi. Bu chiziq Iso Masihda Xudo belgilagan muddat bitganiga, Uning o'limi va tirilishiga diqqatimizni qaratadi. Endi oldimizda matndan o'rganganlarimizni *bugungi kunga* qo'llash masalasi turibdi. Biz va hozirgi kun. Jamoat. Xudoning xalqi va Uning So'zini va'z qilish orqali Uniki bo'ladiganlar.

To'g'ri va'z qilish sayohatimizning shu qismigacha biz kontekstuallashtirishni keyinga qoldirib keldik. Sababi, biz bu mavzuni jilovlamasak, u matnimizni izohlashda (tushuntirib berishda) yetakchilikni o'z qo'liga olishga moyil, biz esa, bilasizki, bu xatoni "ko'r-ko'rona ergashish" muammosi deb atadik. Ammo endi Muqaddas Kitob matnini o'rganish va izohlash ishlari yakuniga yetgach, bu masalaga o'zining haqli va zarur o'rnini berish vaqti keldi. Sog'lom Xushxabar xizmatining asosi doim matnning o'zi bo'lib kelgan. Shunday bo'lsa-da, u zamon va holatni ham inobatga olishi kerak. Kontekstuallashtirish Xudoning Kalomini bugungi kunda qay tarzda va'z qilishimizga ta'sir qilishi kerak. Bunga quyidagi

to'rt yo'nalish orqali erishamiz:

1. Tinglovchilar tarkibi
2. Mavzuni tartibga solish
3. Keltiradigan dalillar
4. Va'zning xabarini hayotga tatbiq qilish

Ushbu so'nggi bosqichni *sintez* (synthesis) sifatida tasavvur qilish foydali bo'ladi. "Sintez" so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, u ikki yoki undan ortiq alohida unsurlarni birga qo'yib, yangicha va yaxlit bir butun shakl yaratish degani.



Yosh va hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan ko'pgina voizlar va'z qilishning so'nggi bosqichida qiynaladilar. Ular bu bosqichdan qanday foydalanishni, aniqrog'i, undan to'g'ri

foydalanishni bilmaydilar. Shuning uchun ular bu bosqichda turli qismlarni alohida-alohida ko‘rib chiqadilar. Ba‘zilar, shubhasiz, ekzegetik jarayonning vazifalarini to‘liq amalga oshira oladilar. Boshqalar o‘qish strategiyalarini – ularni ilohiyot nuqtai nazaridan mulohaza qilishga undaydigan usullarni qo‘llagan bo‘lishlari mumkin. Biroq, ulardan “Mana shu bir nechta qismni birlashtirib, *bugungi kunga* to‘g‘ri keladigan bitta yaxlit va tushunarli xabarga aylantira olasizmi?” deb so‘rasangiz, nima deyishni bilmay qoladilar.

Ammo sintez amalga oshirilishi shart. Muqaddas Kitob tafsirchilari (izohlab beruvchilari) bu ishni qisman kontekstga, *tinglovchilarga, mavzuning tartibga solinishiga* va uni qanday qilib *hayotga tatbiq etishga* e‘tibor qilganlari uchun ham sintezni yaxshi qo‘llay oladilar.

1 - TINGLOVCHILAR TARKIBI

Bu mavzuga kengroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, kontekstualashtirishda ikkita xatodan birini qilmaslikka harakat qilishimiz kerak. Bir tomondan, agar va‘zimiz muntazam ravishda madaniyatga to‘g‘ri kelmasa, hali Masih haqida aytib ulgurmasimizdan tinglovchilar bizning xabarimizni rad qiladi. Boshqa tomondan esa agar xabarimizni tinglovchilarga to‘g‘ri kelishi uchun o‘zgartirsak (yoki hayot tarzimizni moslashtirsak), unda Xudoga foydali bo‘lishning asosini yo‘qotgan bo‘lamiz. Bizning vazifamiz, Muqaddas Kitobdan bexabar hamda diniy chalkashliklar va tushunmovchilikka to‘la bu dunyoga Xudoning o‘zgarimas xabarini yetkazishdir.

Ekzegetik va ilohiyotga oid harakatlarni targ‘ib qilish

yaxshi, ammo yaxshi tafsir qiluvchi (izohlab beruvchi) voizlar doimo bir narsani – bularning bari faqat insonlarning manfaati uchun ekanini doimo yodda tutadilar. Ayrim voizlarda bir noto'g'ri qarash bor – ularning fikricha, go'yoki jamoat ularning “Xudoning Kalomini yetkazish” xizmatini amalga oshirishlari uchun mavjud. Men bunday yondashuvni qabul qila olmayman. Ayniqsa, yosh voizlar shaxsiy manfaatlarga asoslangan xizmat yo'li borligidan yaxshi xabardor bo'lishlari va shu yo'lni tanlash vasvasasidan uzoqroq yurishlari kerak.

So'nggi o'n besh yil ichida jamoatimiz yetmishdan ortiq yigit-qizni masihiy xizmatga tayyorlash sharafiga ega bo'ldi. Ularning har biri butun umrini masihiy xizmatning turli sohalariga bag'ishlashni niyat qilgan. Ba'zan men ularga asosiy maqsadimiz *odamlar* ekanini eslatib turaman. Agar voiz Kalomni va'z qilishni istasa-yu, odamlarni sevmasa, ular uchun qayg'urmasa, unday odamlarga voizlik qilish huquqi berilmasligi kerak.

Shunday ekan, agar siz ham Muqaddas Kitob tafsirchisi (izohlovchisi) bo'lishni istasangiz, bir narsani unutmang – va'z qilish uchun eng avvalo voizda odamlarga nistbatan doim ortib boruvchi mehr-shafqat bo'lishi kerak. Xudo sizga bergan tinglovchilarni yaxshi tanib-bilishni va ularni sevishni o'rganing. Axir, Iso ham Butrusni dunyoga Xushxabar aytish uchun yuborishdan oldin unga aynan mana shu saboqni bermaganmidi?! Yuhanno 21–bobda Iso Jalila ko'lining qirg'oqida Butrus va boshqa shogirdlariga uchinchi marta ko'ringanda, Butrusdan uch marta shunday deb so'radi: “- Yonah o'g'li Shimon, sen Meni ulardan ko'ra ko'proq sevasanmi?” Iso har safar shunday deb so'raganda, tez orada

voiz bo'ladigan Butrus asabiylashib, “- Rabbiy, Sen hammasini bilasan, men Seni sevimni bilasan”, - dedi. Uning bu so'zlariga javoban Iso shunday dedi: “– Mening qo'ylarimni boqqin” (Yuhanno 21:17). Bu so'zlarning ma'nosi juda oddiy: Iso kimni Xushxabarni va'z qilishga tanlagan bo'lsa, ular o'zlarining Isoga bo'lgan muhabbatini Uning xalqini sevish orqali ko'rsatishlari kerak.

Shuning uchun Masihning xabarini va'z qilishni istayotgan har bir insonga shunday deyman: Isoni sevasizmi? Uni chindan ham sevasizmi? U holda Masihga bo'lgan sevgingizni U O'z jonini qurbon qilgan odamlarni “boqish” orqali ko'rsating. Odamlarni sevishni o'rganing.

Jamoat

Ekspozitsion va'zning birinchi va asosiy tinglovchilari bu jamoat, ya'ni Xudoning xalqidir. Sadoqatli voizlar bu haqiqatni doim yodda tutadilar. Ular Xudoning Kalomini ehtiyotkorlik bilan o'rganadilar, sababi, ular va'z qilayotgan Kalom jamoatga najot beradi va ularni mustahkamlaydi.

Adan bog'ida Xudo O'z xalqining manfaati uchun o'z Kalomini yubordi. Sinay tog'ida ham Xudoning ilohiy Kalomi yangradi. Bu safar U Kalomini toshga o'yib yozdi, toki endi qutqarilgan xalq U Zotni va Uning marhamatli yo'llarini tanib bilsin. So'ng Xudo odamlarni o'z huzuriga to'plash uchun dunyoga Iso Masihni – O'zining O'sha Kalomini yubordi. Hatto “Elliginchi kun” – Hosil bayrami kuni ham xuddi shu hol takrorlandi: havoriylar ta'limotiga sadoqat bilan o'zini bag'ishlagan muqaddaslar jamoasi Kalom orqali imonga keldi.

Qisqacha aytganda, men taniydigan har bir sadoqatli

voizning qalbida shunday bir mustahkam ishonch bor: **Xudoning Kalomi Xudo xalqini – Uning jamoatini – paydo qiladi va saqlab turadi.**

Bugungi kunda bu haqiqat sizning va'zingizga qanday ta'sir ko'rsatadi? Xususan, ekspozitsion va'z qiladigan voizlar Xudo bilan muloqot qilishga qanchalik muhtoj ekanini chuqur anglab yetishi kerak. Chunki faqat Uning O'zi oldimizga qo'yilgan buyuk vazifani bajara oladi. Biz Xudoning huzuriga ibodat bilan kelib, tayyorlaydigan har bir va'zimizni Uning qo'liga topshirishimiz kerak. Xudodan ajralgan holda va'z qilolmaymiz. Uning jamoatini paydo qilish va ularni mustahkamlash faqat bizning harakatimizga bog'liq deb o'ylasak qattiq yanglishamiz. Voizlar, eng avvalo, eng ko'p ibodat qiladigan insonlar bo'lishi kerak. Faqat shundagina biz jamoat qanday paydo bo'lishini va dunyoda qanday gullab-yashnashini chindan anglab yetgan bo'lamiz.

Bu esa biz voizlarni va'zga tayyorgarlikni faqat kitob varaqlash bilan emas, balki tiz cho'kib – ibodat bilan kirishishga ham majbur qiladi. Biz o'z tajribamizdan bilamizki, va'z orqali qila olmaydigan ishimizni Xudo bajarishi uchun yuzimizni polga qo'yib Unga iltijo qilamiz.

Qisqacha aytganda, biz Unga muhtojmiz. Biz va'zimizni Muqaddas Ruh O'z qudrati bilan boshqarishiga muhtojmiz. Shuning uchun ham ibodat qilamiz. Biz va'z qilishdan oldin ibodat qilamiz. Va'z qilayotgan chog'imizda ham ibodat qilamiz. Biz hatto va'zimizni yakunlaganimizdan so'ng ham ibodat qilamiz.

Shahar

So'nggi yillarda biz va'z qiladigan tinglovchilarni qayerdan topishimiz haqida ko'p yozildi. Bu yerda ko'p narsani qo'shimcha aytish shart emas. Bir narsa aniq: tez orada dunyo aholisining yarmi shaharlarda yashaydigan bo'ladi. Ekspozitsion va'z qiluvchi voizlar bu haqiqatdan bexabar bo'lmasligi kerak. Aksincha, va'zlarimizni shu haqiqatni hisobga olgan holda tayyorlashimiz kerak.

Bu yerda Xudo shaharda yashovchi odamlarni qishloqdagilardan ko'proq sevar ekan, degan be'mani fikr kelib qolmasligi kerak. Masala shundaki, biz shahar hayotining muammo va imkoniyatlariga e'tibor berishimiz shart. Chunki ko'pchilik va'z qiladigan jamoatlarimiz tabiiy ravishda turli millatli va turli dunyoqarashlardan iborat insonlarga to'lgan bo'ladi. Agar biz so'zlarimizga e'tibor qilmasak, ular ortiqcha tortishuv va ziddiyatga sabab bo'lishi mumkin.

Demak, va'zimiz turli tinglovchilarni hisobga olgan holda tayyorlanishi lozim. Bu esa o'zimizgagina xos so'zlar, iboralar va hazillarni tashlab, hammaga tushunarli qilib so'zlash deganidir. Axir siz shahar kengashi yig'ilishida do'stingiz bilan choyxonada aytgan hazillarni ayta olmaysiz-ku, to'g'rimi?! Bu va'z qilish ko'lamimizni kengaytirish masalasidir. Biz va'z qilar ekanmiz, go'yo butun dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlar eshitib turganday gapirishimiz kerak. Chunki ko'p hollarda aynan shunday odamlar ovozimizni eshitib turgan bo'ladi.

Xudo tinglovchilarimizning tarkibini kengaytirgani sayin, va'z qilishning ikki turdagi strategiyasiga murojaat qilishimiz foydali bo'ladi:

- Odamlar bilan yuzma-yuz muloqat qilish
- Turli usullarni birlashtirgan holda muloqot qilish

Bu ikkisini ham Pavlusning birgina Afinadagi nutqi misolida tushuntirish mumkin. Birinchidan, *yuzma-yuz muloqot qilish* masalasida Luqo Pavlusning afinaliklar bilan ham sinagogada, ham bozorda bahslashgani va suhbatlashganini aytadi. Aniqrog'i, uning va'z qilish usuli bir yo'nalishli emasdi. Uni faqat haftasiga bir marta minbar ortida turib so'zlaydigan odam bo'lgan deb o'ylash noto'g'ri. Aksincha, u turli muloqot usullaridan foydalanardi. Xatto bozorda u suhbatni muloqotga asoslangan, ikki tomonlama uslubda olib borardi. Shuningdek, biz ham bugun shaharlarda ana shunday shaxsiy muloqot strategiyasini qo'llashning turli yo'llari va imkoniyatlarini izlab topishimiz zarur.

Odamlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish strategiyasiga oid yana bir jihat shundaki, Pavlus o'zi tashabbus ko'rsatib, odamlarni uni eshitishga majbur qilmagan, aksincha, unga nufuzli odamlar oldida gapirish imkoni berilishini kutganga o'xshaydi. Masalan, Havoriylar faoliyatlarini 17–bobida Luqo shunday deb yozadi: “Shunda Pavlusni Areopagosga olib kelib, unga deyishdi: – Sen voizlik qilayotgan bu yangi ta'limotning nimaligini bilsak bo'ladimi?” (Havoriylar 17:19).

Bu yerdagi “olib kelib ...” degan so'zda katta ma'no bor. Demak, Pavlus o'zini boshqalarga tiqishtirmagan, Afina jamiyatining markaziga kuch bilan kirishga urinmagan, elita qatlamidan tinglovchi talab qilmagan. Odatda, u oddiy joylarga – sinagoga va bozorlarga borar edi (17:17). Areopagosdagi

nutq esa undan so'ralgani uchun aytilgan. Shubhasiz, biz ham jasoratli bo'lishimiz kerak. Biroq, shu bilan birga, shahar muhiti bizdan hurmat-ehtiromni ham talab qiladi.

Ikkinchidan, shaharlarning ahamiyati ortib borayotgani uchun ham biz *turli usullardan tarkib topgan suhbatlashish usulini* tanlashimiz kerak. Bu – madaniy odatlar bilan masihiy xabarni uyg'unlashtirish va ulardan to'g'ri foydalanish deganidir. Bunga misol qilib, Pavlusning Afinadagi nutqini olish mumkin. Bu parcha Havoriylarning faoliyatlari 17–bobda keltirilgan. Luqo Pavlusni diniy fanatizmga ayblamay, u afinaliklarning butlarini ko'rib ruhan iztirob cheksa-da, ularni yiqitmaganini ta'kidlaydi. Aksincha, Pavlus ulardan o'z apologetik maqsadi yo'lida foydalanganini ko'rsatadi:

O'shanda Pavlus Areopagosning o'rtasida turib, dedi: –Ey, afinaliklar! Men sizlarning hamma narsada juda dindor ekaningizni ko'ryapman. Zero men shahringizni kezib yurib va sajdagohlaringizni ko'zdan kechirib, ustida “noma'lum Xudoga” deb yozilgan bir qurbongohni topdim. Sizlar tanimasdan, sajda qilayotgan shu Xudoni men sizlarga voizlik qilmoqdaman. (Havoriylar 17:22-23)

Pavlus o'z nutqini “noma'lum Xudo” iborasi bilan boshlab, afinalik ziyoli tinglovchilarning aqliy didiga moslashdi. Axir, ko'p olimlar hali ham ko'p narsa noma'lumligini tan olishga tayyor. Darhaqiqat, Pavlus 17:23 da qo'llagan ibora “agnostitsizm” so'zidan kelib chiqqan. Kornelius Van Til bu haqda shunday degan: “Hatto ma'rifatli odamlar orasida ham

osmon va yerda ularning falsafalari hali qamrab ololmagan ko'p narsalar borligini tan olish yaxshi uslub sanalgan... Shu sababli ular noma'lum narsalar uchun ham joy qoldirishga tayyor edilar.”³⁰ Pavlus nutqini shunday boshlab aqlli va samarali ish qildi.

Tasavvur qiling, Pavlus Afinada yuqoridagiday aqlli ish qilmay, aksincha, ularning butlarini urib yiqitganda, oqibati qanday bo'lgan bo'lardi? U qo'lga bolg'a olib ularning qurbongohlarini va butlarini urib yiqitganda yoki ularning diniy bayramlariga qarshi boykot uyushtirganda, yo bo'lmasa, shaharning kiraverishiga “Afina noto'g'ri yo'lda” degan shiorni ilib qo'yganda, uning xabarini tushunish oson bo'lardi, shunday emasmi? Ammo bu bilan u Xushxabarni samarali tarzda yetkaza olmagan bo'lardi.

Balandparvoz va keskin usullar dunyodagi butlarga qarshi tashqi ta'sir qilishi, aniqrog'i, butlarni shaharlardan olib tashlashi mumkin, ammo masihiylar bunday yo'l tutganlarida, o'sha butparastlarning ongi va qalbini zabt etolmagan bo'lardi.

To'g'ri, bugun juda ko'p voizlar katta-katta shaharlarda va'z qilishga chaqiriladilar va agar ular o'tmishda qo'llangan ikki usulni: odamlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish hamda turli usullardan tarkib topgan muloqot usullarini qo'llasalar, xabarlari ularni eshitayotgan qalblarga yaxshiroq yetib borgan bo'lardi.

Tinglovchi va uning madaniyati

30 Kornelius Van Til, *Pavlus Afinada* (Filipsburg, Nyu Jersi shtati: P&R nashriyoti, 1978), 6-bet; [Cornelius Van Til, *Paul at Athens* (Phillipsburg, NJ: (P&R, 1978), page 6].

Tinglovchilarimizni qayerdan topishni bilish yetarli emas. Ularning kimligini va qanday urf-odatlariga ko'ra yashashini bilishimiz ham kerak. Bugun dunyoda Muqaddas Kitobni bilmaydigan, u haqida hech qachon eshitmagan odamlar ko'p. Shuning uchun, Muqaddas Kitobni va'z qilar ekanmiz, tinglovchilarimiz orasida shunday odamlar bo'lishi shart. Xushxabar voizlari Xudoning Kalomini aynan Xudoni bilmaydigan odamlar eshityshlari kerak deb hisoblashadi, sababi aynan ular Kalomning asosiy tinglovchilaridir. Agar bugungi tinglovchilar xabarimizni yaxshi tushunishlarini istasak, ularning madaniyatini ham hisobga olishimiz kerak. So'zlayotganimizda ular tushunadigan tilda tushuntirishimiz kerak. Xudoga shukurki, bu borada juda ko'p kitoblar va maqolalar yozilgan, mening aytayotganlarim ularda yozilganlariga qo'shimcha, xolos. Ammo bir narsa haqida ogohlantirmoqchiman, Muqaddas Kitobni yaxshi tafsir qiladiganlar (ekspozitsion talqin qiladiganlar) tayyorgarlikning chegaralarini bilishi kerak. Chunki kontekstuallashtirish qanchalik to'g'ri amalga oshirilmasin, bu va'zimizni oson tushunishlariga kafolat bermaydi. Eng muhimi, bu orqali madaniyat albatta o'zgaradi, degan kafolat ham yo'q.

Biz bunga ishonch hosil qilishimiz uchun yana Havoriylar 17:16-34 da Pavlusning Afinada so'zlagan nutqiga e'tibor qaratushimiz kerak. Pavlus o'z xabarini tinglovchilarga moslashtirish uchun qo'lid an kelganicha harakat qildi (biz ham shunday qilishimiz kerak). Biroq, Luqoning yozishicha, bu yaxshi va o'sha vaziyatda zarur bo'lgan ishning ta'siri cheklangan edi. Uni tinglab turgan afinaliklardan biri: "Bu

behuda so'zlovchi nima demoqchi o'zi?" – dedi (17:18). Bu oyatda ishlatilgan "behuda so'zlovchi" degan so'z "urug' teruvchi" yoki "axlat yig'uvchi" degani bo'lib, go'yoki, Pavlus bir yerdan bir fikrni, boshqa yerdan yana boshqa bir fikrni eshitib olib, ularni birlashtira olmayotgan odamday tasvirlanadi. Aslida esa bu misol xabarni madaniy sharoitga moslashtirish yetarli emasligini ko'rsatadi.

Luqoning qaydlariga yana e'tibor qilsangiz, kontekstuallashtirish borasida bizga yaxshi namuna bo'lgan Pavlusni ba'zilar masxara qilishdi. Sababi, uni yagona asosga ega bo'lmagan va jamoatchilik fikriga mutlaqo ta'sir o'tkaza olmaydigan xabarni va'z qilyapti, deb hisoblashgan (Havoriyalar 17:32 ga qarang). Pavlusning xabarini boshqacha qabul qilganlar ham bor edi: "U begona ilohlarni voizlik qilmoqda, shekilli", deyishdi. Chunki Pavlus ularga Iso va tirilish haqidagi Xushxabarni so'zlayotgan edi (18–oyat). "Begona ilohlar" degan ibora afinaliklar Pavlusning xabarini tushunmaganini ko'rsatadi. Aslida, afinaliklar birinchi marta Xushxabarni eshitganlarida, uni g'alati va notanish, o'z madaniyatlari va tushunchalariga to'g'ri kelmaydigan bir xabarday qabul qilishgan.

Mening Pavlusga nisbatan bunday ikki xil munosabatni keltirishimdan maqsad – siz atrofingizdagi zamonaviy insonning madaniyatini anglashga astoydil harakat qiling. Biroq, shu bilan birga, Muqaddas Kitobning talqini doim ham zamonamizdagi odamlarga tushunarli va ishonarli bo'lavermasligini ham unutmasligingiz kerak.

Nihoyat eng muhim nuqtaga keldim: va'zlarimiz muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nafaqat ibodatga, balki

Muqaddas Ruhning qudratiga ham muhtojmiz. Bu chindan ham bizning eng katta ehtiyojimiz. Voizlar haqiqiy qudratning manbaini yaxshi anglashlari kerak. Xudoning Kalomi orqali jamoatlarni bunyod etish va har qanday xalqlaru madaniyatlarining ustunligiga qarshi chiqishda Muqaddas Ruhning roli beqiyosdir. Biz o'z aql-zakovatimiz bilan tinglovchilarimizning ongi va qalblarida haqiqiy hayot va haqiqiy o'zgarishni paydo qilolmaymiz. Buni faqat Xudoning Kalomi va Muqaddas Ruhning qudrati qila oladi (Yuhanno 6:63).

Shuning uchun biz, Xudoning Kalomini to'g'ri talqin qilishga intilayotganlar, har qanday ko'z-ko'z qiluvchi soxta munosabatdan va riyokorlikdan voz kechishimiz kerak. Va'zdagi har qanday soxta uslublar va ko'rinishlarni bir chetga olib qo'yishimiz kerak. Go'yoki, o'zimizda kuch borday chiqish qilishni ham to'xtatishimiz kerak. Biz nutqimizning uslubi va uning qay darajada chiroyli chiqishiga e'tibor qilishni to'xtataylik. Biz minbarga chiroyli ko'rinish uchun emas, haqiqatni gapirish uchun chiqamiz. Shon-shuhrat, mashhurlik va mansabparastlik, manfaatdorlik va nafsdan voz kechishimiz kerak.

Zotan bizning nasihatimiz yanglishishdan, nopok maqsad va hiylakorlikdan emasdir. Biroq Xudo bizga Xushxabarini ishonib topshirish uchun bizni qanday loyiq topgan bo'lsa, xuddi shunday, biz buni insonlarga emas, balki yuraklarimizni sinovchi Xudoga ma'qul bo'lishimiz uchun voizlik qilmoqdamiz. Chunki o'z'laringiz bilasizlarki, sizlarga nisbatan bizda hech qachon

tilyog'lamalik ham, manfaatparastlikning turlari ham bo'lmagan. Bunga Xudo guvohdir! Biz sizlardan ham, boshqalardan ham insoniy shuhratni izlamadik. (1-Fessalonikaliklarga 2:3-6)

2 - MAVZUNI TARTIBGA SOLISH

Voiz har hafta bir xil muammoga duch keladi: Men baham ko'rmoqchi bo'lgan manba-ma'lumotlarni qanday qilib tartibga solsam ekan? Ularni qanday tartibda joylashtirsam ekan? Bular chindan ham juda muhim va o'rinli savollar.

Siz matnni chuqur tahlil qilib, uni ilohiyot nuqtai nazaridan o'rganib chiqqan bo'lsangiz, qo'lingizda odamlarga yetkazishga arziydigan, mazmunli va foydali ma'lumotlar to'plami bo'ladi. Bundan so'ng, tabiiyki, siz bu mehnatingiz samarasini boshqalar (tinglovchilar) bilan baham ko'rishni xohlaysiz. Shunda savol tug'iladi: Endi mendagi materiallarni qanday joylashtirsam ekan? Matnni tinglovchilarga to'g'ri yetkazishda kontekstualashtirishning qanday foydasi bor? Menimcha, tayyorgarlik ko'rish jarayonida quyidagi ikkita talabga e'tibor qilishingiz kerak:

- Aniq-ravshan
- Matnga asoslangan va'zning afzalliklari

Birinchi talab ko'proq kontekstualashtirishga tayansa, ikkinchisi Muqaddas Kitob parchasiga asoslanadi.

Aniq-ravshan

Men bir necha yil oldin Angliyada, Londonda Dik Lukas bilan ko‘rishib, u to‘xtagan mehmonxonada suhbatlashdim. Suhbatimiz o‘z-o‘zidan Xudo jamoatda qanday ishlar qilayotgani mavzusiga burildi. Ikkimiz ham yangi avlod voizlarida katta umid va salohiyatni ko‘rib quvondik. Shu ijobiy muhokamalar orasida u bir gapni qo‘shib qo‘ydi: “Ha, lekin biz ularga voizlik hech qachon juda oddiy bo‘lib qolmasligini eslatib qo‘yishimiz kerak.” Dik Lukas – Londondagi moliya markazida ishlovchi biznesmenlarga qariyb ellik yil davomida voizlik qilgan. U shu davr ichida juda muhim bir haqiqatni tushunib yetdi: Voizlar so‘zini qanchalik aniq aytsa, shuncha yaxshi. Chunki bizga murakkab so‘zlar emas, *aniqlik va tushunarlilik kerak.*

Men ham shu narsani kuzatdim. Bugungi kunda ko‘plab havaskor va umidli yosh voizlar bor. Lekin ularning ko‘pchiligi hali ham o‘z so‘zlarini aniq va lo‘nda qilib gapirishni o‘rganishlari kerak. Mana shu borada kontekstualashtirish juda katta rol o‘ynaydi va foydali bo‘ladi.

Matnni izohlaydigan voizlar matnni hafta davomida chuqur o‘rganadi, undagi har bir nozik va murakkab fikrning mag‘zini chaqib ruhlanadi, ammo voizlarni har hafta tinglaydigan odamlar voizlar olgan ochiqliklardan uncha ta’sirlanmaydi, voizlar bu holatni tan oladilar. Jamoatimizdagi bir (xudojo‘y) tadbirkor kelib menga shunday degan edi: “Deyv, bu hafta men nimani o‘rganaman? Iloji boricha 30 daqiqa gapirib, menga albatta biror narsani o‘rgating. Menga shunday gapiringki, har bir asosiy fikr alohida va aniq bo‘lsin (masalan, sarlavhalarga ajratilgan bo‘lsin).” So‘zlaringiz ham

aniq-ravshan va eshitgan odamni chalg'itmaydigan bo'lsin.

Yaxshi va'z qiladigan voiz o'zining jamoatidagilari qanday hayot kechirayotganini, ular qaysi "xandaq"larda – ya'ni qanday og'ir, haqiqiy sharoitlarda ishlayotganini biladi. Shuning uchun u tinglovchilarining ehtiyojlarini anglaydi va ular tushunadigan tilda gapiradi. Bunday voiz haftasining eng ko'p qismini jamoatda, yolg'iz o'tirib Kitob o'qib, uning ustida fikr yuritib o'tkazgan bo'lsa ham, o'z so'zlarini Masihga ishonadiganlarga ham, ishonmaydiganlarga ham birdek oson va tushunarli qilib yetkaza oladi.

Ma'lumotingiz (manbangiz)ni xalqqa moslab tuzish ishlarini boshlayotgan paytingizda, va'zingiz aniq va tushunarli bo'lishiga harakat qiling. Ishlatadigan so'zlaringizga va fikrlarni qanday yetkazayotganingizga e'tibor bering. Masihning shon-shuhratini tinglovchilarga aniq va ravshan qilib yetkaza olsangiz bas. Pavlus bizga dalda berib aytganidek:

Ibodat qilish dadoimiy bo'lib, unda minnatdorchilik bilan bedor bo'linglar. Shuningdek, bizlar uchun ham ibodat qilinglar: Xudo bizlarga O'z So'zi uchun eshikni ochib bersin, toki bizlar Masihning sirini voizlik qilaylik. Mana shu So'z uchun men kishanbandman. Men shu sirni munosib ravishda ochib berishim uchun ibodat qilinglar. (Kolosaliklarga 4:2-4)

Materialingiz aniq va tushunarli bo'lishi uchun quyidagi ikkita amaliy qadamdan foydalaning:

- Matnning asosiy mavzusini aytib o'ting
- Muallifning maqsadini bayon qiling

Muqaddas Kitobni tafsir qiladigan (izohlab, tuhuntirib beradigan) voizlar jamoatda va’z qilishga chiqishdan avval, matnning asosiy mavzusini *bir butun, aniq va mazmunli jumlada* ayta olishlari kerak. *Mavzu* – matndagi eng muhim fikr, asosiy muammo yoki muallif yetkazmoqchi bo’lgan g’oyadir. Masalan, men yaqinda Yoqub 4:1-12 bo’yicha va’z qilishni boshlashimdan oldin shunday dedim: “Xudo bugun bizdan so’zlarimizga e’tibor qaratishni, ularning jamoatdagi munosabatlarni buzadigan kuchi, ushbu kuchining manbai va bunday holatda nima qilish kerakligi haqida o’ylashimizni istaydi.”

Men bu fikrni juda oddiy va to’g’ridan-to’g’ri aytdim, lekin voiz o’z so’zini shunday aniq boshlashi kerak – muallifning asosiy maqsadini bitta jumlada ayta olishi so’zlaringizni ham sodda, ham aniq qiladi. Bu esa yaxshi uslubning asosiy belgilaridandir.

Ikkinchi amaliy qadam bu muallifning *maqsadini* aniqlash. Muallif bu matn orqali o’z (asl) tinglovchilariga nima demoqchi bo’lgan? Voiz matnni o’qib chiqqach, o’ziga shunday savol qo’ya olishi kerak: “*Muallif tinglovchilaridan nimani xohlayapti?*” “*Muallifning maqsadiga ko’ra, o’quvchi/tinglovchi nima qilishini yoki qanday fikr yuritishini istayapti?*” O’z va’zingizda bu maqsadni bir jumlagi yig’a olmasangiz ham va’z oldidan bu haqida o’ylab ko’rishingiz kerak. Siz va’z orqali muallif o’z o’quvchilaridan nimani xohlaydi, degan savolga javob bera olishingiz kerak.

Muallifning maqsadini aniqlash voizga juda katta foyda beradi. Ulardan biri, bu voizning matn asosidagi va’zini kontekstga to’g’ri joylashtirish ishini osonlashtiradi. Haqiqiy

ekspozitsion voizlar matnga qarab, o'rganganlarini qanday qilib bugungi kun o'quvchilariga dolzarb qilib ko'rsatish yo'llarini qidirmaydilar. Ular bunday qilishlari shart emas. *Muqaddas Kitob doim dolzarb bo'lib kelgan.* Aksincha, voizlar matndagi mavjud xulosalarni va uni amalda qanday qo'llanishini o'rganib, bugungi kunda jamoat yashayotgan madaniyatga tushunarli tarzda ifoda etib beradilar. Shu tarzda muqaddas matnning mazmuni va zamonga moslashtirish vazifasi (kontekstuallashtirish vazifasi) birgalikda ishlaydi. Ular va'z qilishda voizga juda qo'l keladi. Agar voiz ularga to'g'ri yondashsa, va'z nafaqat samarali va ta'sirli bo'ladi, balki tinglovchilar ham tushunishi oson bo'ladi.

Matnga asoslangan va'zning afzalliklari

Voizlar matn asosida o'z ma'ruzalarini shakllantirganda ham yana yuqoridagi o'sha faol hamkorlikka tayanishi kerak. Zamonga moslashtirish (kontekstuallashtirish) matndan ustun bo'lmasligi kerak. Va'zingizning tuzilishi, odatda, Muqaddas Kitob matnining tuzilishiga mos kelishi kerak. Sizning ekzegetik (tafsir qiluvchi), Muqaddas Kitob asosidagi hamda ilohiy yo'nalishdagi izlanishlaringiz asosida va'z rejangiz shakllanadi. Darhaqiqat, bu reja qilgan ishingizning kontekstini aks ettiradi.

Bu tamoyil tabiiy ravishda tafsirning (izohlashning) mohiyatidan kelib chiqadi. Biz Muqaddas Kitob matnini o'z rejamizga moslashtirmaymiz. Aksincha, Muqaddas Ruh allaqachon matnga joylagan narsani aytamiz. Shuning uchun biz Muqaddas Ruh joylashtirganiday qilsak, eng yaxshi ish qilgan bo'lamiz. Charlz Simeon ana shu maqsadga intilar

ekan, bu haqda shunday deydi: “Men Muqaddas Kitobni o‘qiganimda, unga hech narsani qo‘shmay yoki olib tashlamay, u menga o‘rgatayotgan fikrlarni tushunishga harakat qilaman. Men bu masalada juda ehtiyotkorman va unga jiddiy qarayman. Matnni va‘z qilayotgan paytimda Muqaddas Ruh o‘sha matndan menga ochib berganidan ko‘p ham, kam ham gapirmayman.”³¹

Men Muqaddas Kitobni tafsir qilishni (izohlab berishni) shunday ta‘riflayman: bu — muqaddas matnning shakli va urg‘usini to‘g‘ri anglab, va‘zning tuzilishi va mazmunini unga mos holda tayyorlaydigan hamda Xudoning qudrati bilan amalga oshiriladigan voizlikdir. Bu ta‘rifim bilan nima demoqchi ekanimni kalit so‘zlar orqali tushuntirib bersam, foydali bo‘ladi, deb o‘ylayman. “Shakl” va “urg‘u” deganda Muqaddas Kitobdagi har bir tabiiy ravishda va‘zga asos bo‘laoladigan bo‘lakning (ya‘ni mustaqil mazmunga ega qismga) tuzilishi (shakli) va asosiy urg‘usini Muqaddas Ruh allaqachon belgilab qo‘ygan. Voizning vazifasi ana shu tuzilish va urg‘uni topish. Buni faqat ekzegetik va ilohiyotga oid (teologik) mulohazaning qat‘iy intizomi asosida to‘g‘ri bajarish mumkin. Voiz ushbu shakl va urg‘uni aniq tushunib olsagina, va‘zning umumiy tuzilishi haqida o‘ylashga tayyor bo‘ladi.

Ekspozitsion va‘zning boshqa ruhiy suhbatlardan farqi shuki, voiz matnning “*shakl va urg‘u*” qoidasiga *to‘g‘ri bo‘ysungan holda* mavzuni tartibga soladi. Biz unga qandaydir tashqi rejani majburan tiqishtirmaymiz. Shu bilan birga,

31 Xendli Karr Glin Moul, *Charlz Simeon* (London: Methuen & Co. nashriyoti, 1892), 97–bet; [Handley Carr Glyn Moule, *Charles Simeon* (London: Methuen & Co., 1892), page 97].

matnda bo'lmagan ma'lumotni ham unga qo'shishga harakat qilmaymiz. Ana shu ikki jihatni biz "to'g'ri bo'ysunish" deb atashimiz mumkin. Bizga Xushxabarni aniq va sadoqat bilan va'z qiladigan voizlar kerak.

Afsuski, oramizda juda ko'pchilik o'zini tartib-intizomliday ko'rsatsa-da, aslida, tartib va intizomga amal qilmaydi. Ko'pincha, va'zdagi xabarlarimiz Muqaddas Kitob matniga mos kelmaydi. Biz tayyorlagan xabarlarining mazmuni matndagi haqiqiy ma'nodan boshqacharoq bo'lib chiqadi. Ularning shakli ham boshqacha. Bu esa va'z tayyorlashda intizomning yetarli emasligini ko'rsatadi. Biz va'zlarimizning rejasi va urg'ularini matnga moslashtirmaymiz – aksincha, har hafta matni o'z istagimiz, kayfiyatimizga qarab o'zgartirishga urinamiz. Buning oqibatida ma'noni yetarli darajada ochib bera olmaymiz, natijada, tinglovchilarimiz Xudoning ovozini emas, faqat bizning kamchilikka to'la ovozimizni eshitadi. Shuning uchun, men sizlarga shunday demoqchiman: "Muqaddas Kitobdan shakl va mazmun jihatdan matnga muvofiq keladigan haqiqiy va'zlar tayyorlaylik." Nihoyat, bu Kalomiy izohdir va qo'lingizdagi kitobchanning qo'shimcha sarlavhasida yozilganidek, *bugun biz ekspozitsion orqali Xudoning So'zini aytamiz.*

Biz *tinglovchilarni e'tiborga olish va matni to'g'ri tartibga solishda* kontekstualashtirishning afzalliklarini ko'rib chiqdik. Endi bular sizning *va'zingizni amalda qo'llashga* qanday yordam berishini ko'rib chiqamiz.

3 - KELITRADIGAN DALILLAR

Har bir va'z muayyan bir dalilga ega bo'lishi lozim. Aslida,

siz dalilsiz hech qanday shogird orttira olmaysiz. Esingizdami, Matto 28:19-20 da Iso shogirdlariga: “Men sizlarga buyurgan barcha narsalarga rioya qilishni o‘rgatinglar”, deb topshiriq bergan edi. Ya’ni, ular odamlarni itoatkorlikka da’vat qilishda axloqiy ta’sir kuchi bilan so‘zlashlari kerak edi. Voiz inson xulqini o‘zgartirish bilangina cheklanib qolmasligi kerak — u odamlarni ishontirishi va yuraklariga yo‘l topishi zarur. Chunki voizning vazifasi faqat so‘zni ravon ifodalash emas, balki dalil keltirish hamdir. Xushxabarda shunday jihat borki, u insonning faqat tuyg‘usini emas, ongini ham ajoyib tarzda jalb etadi.

Bu masala bo‘yicha uchta muhim narsani qisqacha aytib o‘tmoqchiman. Birinchisi, Muqaddas Kitobda va’zda dalil keltirishga oid ko‘plab misollar bor. Masalan, Havoriylar faoliyatlarini 17:2-3 ga e’tibor bersangiz, Pavlusning xizmat doirasi kengayganini ko‘rasiz. Bu oyatlarda uning xizmati haqida shunday deyiladi: “Pavlus o‘z odatiga ko‘ra ularning oldilariga kirib, uch shabbat kuni ular bilan Yozuvlar bo‘yicha *mulohaza qildi*. Masihning azob chekishi va Uning o‘liklardan tirilishi lozim bo‘lganini *ochib berib* hamda buni *isbot qilib*, u: ““Shu Masih – men sizlarga voizlik qilayotgan Isodir”, – deb aytar edi” (Havoriylar 17:2-3). To‘rtinchi oyatda esa ularning ba’zilari “imon keltir” ganlari haqida yozilgan.

Demak, Pavlus “munozara qildi” (aynan shu so‘zdan «dialog» atamasi kelib chiqqan). U shunchaki nutq so‘zlamas edi, balki tinglovchilari bilan bahs-munozaralarga kirishar va va’zlarida ichki muloqot uslubidan foydalanar edi. U odamlarga aytmoqchi bo‘lgan xabarini *tushuntirar*, aniqrog‘i, tinglovchilarining ongini ochardi. Iso ham Luqo 24–bobda

shogirdlari bilan suhbatda shunday qilgan – ularning ongini ochgan. Buning uchun Iso Muqaddas Yozuvlarning bir-biriga uyg'un va izchil ekaniga dalil keltirgan. Bu usul masihiylar go'yo aqlga tayanmaydi, degan noto'g'ri tasavvurni yo'q qiladi. Pavlus ham, Iso ham masihiylar eng ochiq fikrli va mulohazali kishilar ekanini amalda isbotlab berishgan. Havoriylar 17:3 da Pavlusning “*isbot qilib*” bergani haqida yozilgan. Ma'joiy ma'noda bu so'z biror bir taomni dasturxonga (odamning ko'z oldiga qo'yish) ma'nosida ishlatiladi (Luqo 9:16, 10:8 va boshqalar). Tom ma'noda, Pavlus o'z dalillarini odamlarga taqdim qildi. Natijada, odamlar *ishondi*. Pavlus ularni ishontira oldi. Ba'zilar hatto chin dildan imon keltirdi. Voiz sifatida inson o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'ya bilishi kerak. Biz 1–Korinfliklarga 1–bobni noto'g'ri tushunganimiz uchun “ishontirish” g'oyasiga qarshilik bildirishimiz mumkin. Biz 1–bobni noto'g'ri tushunganimiz uchun bu dunyoning hikmatini rad etamiz. Lekin bu biz odamlarga ta'sir o'tkazishda qo'limizda bor barcha imkoniyat va vositalardan foydalanmasligimiz kerak degani emas. Biz ishontirishga harakat qilishimiz kerak. So'zlarimiz ta'sirli bo'lishi kerak. Pavlus Havoriylar 26:26-28 da o'zini to'liq xatarga qo'yib, shoh Agrippa va uning butun saroy ahlini ishontirish istagida jasorat bilan ochiqchasiga so'zladi. U shunchaki muloqotda ishtirok etish bilan kifoyalanmadi. Shuningdek, u masihiylikni odamlarga yoqadigan ko'rinishda ko'rsatishga ham urinmadi. Uning maqsadi butun insoniyatni Xushxabar xizmatiga da'vat qilish edi.

Ikkinchisi, haqiqiy muloqot uslubiga asoslangan xizmat o'ziga xos ahamiyatga ega. Buni muloqot uslubidagi va'z bilan

adashtirmaslik kerak. Muqaddas Kitobda “va’z” tushunchasi – biror haqiqatni e’lon qilish, ya’ni xabarni jonkuyarlik bilan yetkazish ma’nosida keladi va ko’pincha monolog shaklida bo’ladi. Lekin insonlarni ichki muloqotga undab, qalbiga ta’sir qiladigan tarzda gapirishni juda samarali bir usul deyish mumkin. Pavlus aynan shunday usulda xizmat qildi: u odamlar bilan ochiq muloqot qilgan, biroq va’z aytganida, u to’g’ridan-to’g’ri monolog shaklida so’zlagan. Uning va’zlari chin ma’noda axloqiy kuchga, ruhiy ta’sirga ega bo’lgan va’zlardan iborat edi.

Shuning uchun, biz ham savol-javob va haqiqiy muloqot uchun imkoniyat izlashimiz kerak. Shu tarzda mulohaza yuritish va fikrlashga undaydigan uslublarni voizlikka olib kirishimiz kerak. Chunki va’z – bu faqat tushuntirish emas, balki ishontirish va hayotga tatbiq qilish hamdir.

Uchinchisi, dalilingizdagi eng muhim mavzularga e’tibor qarating. Havoriylar 24:24-25 da shunday yozilgan: “Bir necha kundan keyin, Feliks yahudiy xotini Drusilla bilan kelib, Pavlusni chaqirtirdi va Iso Masihga imon haqida uni tingladi. Pavlus haqlik, o’zini tiyish va kelayotgan hukm haqida so’zlagani uchun Feliks qo’rquvga tushib: «Endi borgin, vaqt topganimda seni yana chaqirtiraman», – dedi.”

Pavlus Feliksga 1) Iso Masihga bo’lgan imon, 2) solihlik, 3) o’zini tiyish hamda 4) kelajakdagi hukm haqida so’zlab berdi. Bular insoniyat bilishi kerak bo’lgan to’rtta muhim mavzudir. Biz aynan shular haqida asosli bahs yuritishni o’rganishimiz kerak. Agar e’tibor qilsangiz, Pavlus Rimliklarga 1-3–boblarda ham shular haqida fikr yuritadi.

Har bir va’zingizda dalillar qo’llashni o’rganing. Bu oson

emas, lekin tushunarli va oddiy qoida.

4 - VA'ZNING XABARINI HAYOTGA TATBIQ QILISH

Qo'llash masalasiga kelganda, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Muqaddas Kitobni ekspozitsion va'z qiladigan voizlarning asosiy maqsadi — *insonlarning qalblarini o'zgartirishdir*. Shubhasiz, tinglovchilarimizning ongiga Xudoning haqiqatlarini singdirish juda muhim vazifa. Biroq, biz faqat shu bilan cheklanib qolmaymiz. Shu bilan birga, biz insonlarning qo'l va oyoqlarini ishga solish, ya'ni ularni faol xizmatga undash bilan ham kifoyalanmaymiz — bu ham zarur, lekin yetarli emas. Aksincha, biz tinglovchilarimizning qalblariga yo'l topishni maqsad qilamiz. Chunki haqiqiy va'z insonning faqat aqlini yoki harakatlarini emas, balki butun irodasi va his-tuyg'ularini Xudoga qaratishi kerak. Chunki qalb — insonning haqiqiy qudrati mujassam bo'lgan maskandir. Shu sababdan, aynan qalbni haqiqiy o'zgarishlarning manbai deyish mumkin. Agar insonning qalbi o'zgarsa, o'zi ham o'zgaradi.

Insonni qalbidan o'zgartiruvchi hayotga tatbiq qilish bosqichi kamida to'rt jihatdan kontekstualashtirish bilan uyg'unlashadi. Bunday tatbiq quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- Qalbni tavnaga yo'naltiradi.
- Ibodatli qalbga asoslanadi.
- Qalb ehtiyojlarini tushunishdan boshlanadi.
- Muqaddas Kitob matnining asl mohiyatidan kelib chiqadi.

Qalbni tavbaga yo'naltirish

Keling, yana Pavlusning Afinada so'zlagan nutqiga qaytamiz. U yerda Pavlus *tavba qilish* haqida so'zlagan edi. U Afinada yashovchilarni “bilimsizlik davrlarini chetga qo'yib”, “tavba qilish”ga chaqirgan (Havoriylar 17:30). Pavlus o'sha vaqtda Afina aholisi ongini, qalbini va irodasini to'liq Xudoga qaratishlarini istagan.

Va'zga tayyorgarlik ko'rar ekansiz, tanlagan matningizni hayotga qanday tatbiq qilish haqida o'ylang. Shu qismga kelganda o'zingizga quyidagi savollarni bering:

- Men qalban o'zgarishga undayapmanmi?
- Men va'zim orqali tinglovchilarni to'liq tavbaga chaqiryapmanmi?
- Mening xabarim faqat aqliy ma'lumotdan iborat bo'lib qolmadimi?

Yodingizda bo'lsin: kontekstualashtirishdan maqsad Muqaddas Kitob xabarini yana bir qiziqarli ma'lumot tarzida berish emas. Aksincha, biz tinglovchilarimizning qalbini Masihning haqiqatiga burishga intilamiz. Shunda ular Masih loyiq bo'lgan barcha ulug'vorlikni chin qalbdan Unga bera oladilar. Bu oliy vazifani bajarishimiz uchun esa aynan Xudoning Ruhi Xudoning Kalomini tinglovchilarning qalbiga yetkazishi kerak bo'ladi. Chunki bilamizki, inson qalbini Xudodan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi. Bu haqiqatni Isoning dushmanlari ham anglab yetishgan (Mark 2:7–oyatga qarang).

Ibodatli qalbgaga asoslanish

Bilamizki, va'zning asosiy maqsadi tinglovchilarning qalbini to'liq tavgaga yo'naltirish va buni faqat Xudo amalga oshira oladi. Shu sababdan ham, va'z matnini hayotga tatbiq qilish bosqichiga tayyorgarlik ko'rayotganimizda, biz bu ishni tiz cho'kib to'g'ridan-to'g'ri Xudoning huzuriga olib kelishimiz lozim. Bizning qalbimiz ham doimo ibodatga tayyor bo'lishi kerak.

Luqo 11:1-13 bizni aynan shunday qilishga undaydi. Shogirdlar Isoning oldiga kelib, "Ustoz, Yahyo shogirdlariga o'rgatganiday, bizga ham qanday ibodat qilishni o'rgating" degan murojaat bilan kelganlarida, Iso ularga qanday ibodat qilishni o'rgatdi (Luqo 11:1-4 ga qarang). Keyin U shogirdlarni ibodat qilishga undash maqsadida Otaning yaqin do'stdan ham yaqinroq ekanini tasvirlash uchun bir masal so'zlab berdi. Ehtimol, zarur ish bilan tunda do'stingizning uyiga borib uyg'otsangiz, unga malol kelar. Axir do'stlikning ham chegarasi bor! Lekin Otamiz Xudo unday emas. U har doim yordam berishga tayyor. So'rang, olasiz. Taqillating sizga eshik ochiladi. Xudo bizga aniq nimani va'da qilayotganiga e'tibor qiling; "... osmondagi Ota Undan so'rganlarga Muqaddas Ruhni beradi" (Luqo 11:13). Hatto Yahyo cho'mdiruvchining shogirdlari ham Muqaddas Ruh haqida bilmasdilar (Havoriylar 19:1-2). Ammo, Xudoga shukurki, biz buni bilamiz. Xudo bizga Muqaddas Ruhni berishni va'da qilgan.

Qalb ehtiyojlarini tushunish

Biz tinglovchilarimiz uchun ibodat qilar ekanmiz, o'z qalbimizni Xudoga ochishimiz kerak bo'lganiday,

ularning yuragi nima bilan urishini ham bilishimiz kerak. Kontekstuallashtirishni to'g'ri qo'llay olsak, u bizga atrofimizdagi odamlarning qalbi nimaga to'lib-toshganini ko'rishga yordam beradi. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, agar va'zimizdagi amalda qo'llash qismida tinglovchilarimizning qalbini Xudoga qaratishni maqsad qilgan bo'lsak, u holda biz ularning qalbi nima bilan to'lib-toshganini bilishimiz kerak. Buni bilish uchun esa biz ularni diqqat bilan kuzatishimiz, ularning ichida mustahkam ildiz otgan qadriyatlarini, nimaga qattiq ishonishlarini bilishimiz kerak. Eng muhimi, Isoga ishonishga, Unga itoat qilishga hamda to'g'ri, tartibga solingan hayot kechirishga nimalar halal berishini bilib olishimiz kerak.

Ilohiyotshunos va faylasuf Avgustinning asarlari hamda Pavlusning maktublari (Havoriylar faoliyatlari kitobidagi Pavlusning va'zlari haqida yozilgan parchalarda ham) voizlarga kontekstga moslashtirish bosqichida chuqur fikr yuritishga yordam beradigan bebaho manbalardir. Aslida, Muqaddas Kitobni tafsir qiluvchi (izohlab beruvchi) uchun mana shu ikkita qo'llanmaning o'zi kifoya qiladi. Bu vazifani bajarish uchun oddiygina gazeta yoki ommaviy axborot vositalaridan iqtibos keltirishning o'zi yetarli, deb o'ylash bema'nilik. Bu turdagi ma'lumotlar olamda bo'layotgan ishlardan xabar berishdan boshqasiga yaramaydi. Biz odamlar *nima uchun* boshqacha emas, aynan u yoki bu tarzda harakat qilishlarini tushunishimiz kerak. Buning asosiy sababi *yurakda!* Bu masalada Avgustin va Pavlusdan o'tadigani bo'lmasa kerak. Ular sizga yangiliklardan *qanday qilib* samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Yaxshiyamki, bizda Avgustin va Pavlusning namunalari

bor. Masalan, tarixchi olim Piter Braun Rim haqidagi tadqiqotlarida inson qalbiga nazar solish haqida ta'kidlaydi. U Rim aholisidagi “amor civicus”, ya'ni o'z shaharlariga va uning fuqarolariga bo'lgan mehr-muhabbati haqida yozadi. U shunday deydi:

O'sha zamonda bunday mehr-muhabbatni namoyon qilgan boy-badavlat inson “amator patriae” – o'z ona shahrini sevadigan inson sifatida nom qozongan. Bu esa boy odam ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng sharafli muhabbat hisoblanardi. “Amor civicus”, ya'ni fuqarolik muhabbati degan ibora ibodatxonalar, forumlar, jamoatchilik binolari, arkalar, ustunlar va xalq uchun mo'ljallangan keng ko'lamli tomosha joylari – teatrlar, amfiteatrlar va sirkka o'xshash stadionlarda yozib qo'yilgan edi. Bu inshootlar hali-hamon Rim qadimiy yodgorliklarini tomosha qiluvchi sayyohlarni G'arbiy Yevropaning va Shimoliy Afrikaning deyarli barcha hududlarida hayratga solmoqda.³²

Braun Rim xalqini “qalbi vataniga bog'langan” xalq deb ta'riflaydi. Ularni “Vatanparvar oshiqlar”, “Yuragida Rim bo'lgan muhabbat sohiblari” deb nomlaydi.³³ Agar Piter Braun haqiqatan Rim xalqiga va'z aytganda edi, aynan mana shu kabi

32 Piter Braun, *Igna teshigidan* (Prinston: Princeton University nashriyoti, 2012, 64–bet; [Peter Brown, *Through the Eye of a Needle* (Princeton: Princeton University Press, 2012), page 64].

33 Ilgari keltirilgan manbadan, 96-101–betlar.

bilim va hissiyotlar uning ibratli va'zlarida juda foyda bergan bo'lardi. Qadimgi Rim kabi bugungi shaharlarimiz ham turli dunyoqarashlar to'qnashadigan joylardir. Ammo, shu bilan birga, insonlarga qarasangiz, ularning qalbi, hissiyotlari ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Shuning uchun siz ham, biz ham Piter Braun juda yaxshi namoyon qilgan tinglash va qalbni anglash mahoratini o'rganishimiz lozim.

Xudoning Kalomini bugungi kunda teran va ta'sirli tarzda qo'llashni istasak, odamlar nimani sevishini, nimani qadrlashini va nimalarni barcha narsadan ustun qo'yishini bilishimiz zarur. Siz buni o'rgandingizmi? O'z atrofingizdagi odamlarning qalbi nimaga intilishini seza olasizmi?

Muqaddas Kitob matnining asl mohiyatidan kelib chiqish

Har qanday voiz odamlar qalbini his qila bilishi kerak, ammo yaxshi, Xushxabarga bog'langan va'zning amalda qo'llash qismini ishlab chiqish uchun, shuning o'zi yetarli, deb o'ylasangiz adashasiz. Unutmang, Muqaddas Kitob asosida sog'lom va samarali xizmat doimo mahalliy sharoitni hisobga olgan, biroq matnga asoslangan bo'lishi kerak.

Ba'zi voizlar shunchalik tinglovchilarga, zamon va jamiyat sharoitlariga moslashishga berilib ketadilarki, va'zning amaliy qismiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida matnning asosiy g'oyasini unutadilar! Eshitishimcha, hatto ba'zi voizlar va'z qilishga ilhom kelishini kutib, xonasida ko'zini yumganicha, boshini orqaga tashlab, yuzini shiftga qaratib o'tirar ekanlar.

To'g'ri, kontekstuallashtirishning ham o'z o'rni bor, bu narsa va'zning asosini egallamasligi kerak. O'z birodarlariga

xizmat qilmoqchi bo'lgan voiz hushyor ko'zlar bilan butun diqqatini *matnga qaratishi kerak*. Eng muhimi – va'z uchun kerakli amaliy qo'llashlar har doim Muqaddas Kitobning *asosiy g'oyasi bilan bog'liq bo'lishi kerak*. Asosiy g'oyani topish uchun esa voiz avvalo odamlar haqida emas, matnning o'zi haqida samarali savollar bera bilishi lozim.

Men parchani o'qish jarayonida har doim bir savolni beraman: muallif bu parcha orqali o'z o'quvchilariga nima demoqchi? Har doim shunday savol bilan boshlash yaxshi. U fikrlarimni muallifning asosiy maqsadi bilan uyg'unlashtiradi. Matnning maqsadini aniqlash uning qanday ahamiyat kasb etishi, ya'ni o'quvchilarimiz uchun qanday foydali bo'lishi haqidagi tushunchani topishimga yordam beradi.

Ba'zan muallif matnda o'z maqsadini ochiq aytadi va bunday paytda u bizga amaliy qo'llanmani ham qo'limizga tutqazganday bo'ladi. Masalan, Dovud bilan Goliyot haqidagi hikoyada shunday deb yozilgan:

Hozir Rabbiy seni mening qo'limga topshiradi va men seni o'ldirib, boshingni tanangdan judo qilaman. So'ngra filistin qo'shinining jasadlarini ko'kdagi qushlarga va yerdagi hayvonlarga beraman. Shunda Isroilda Xudo borligini butun yer bilib oladi. Shuningdek, mana bu butun yig'in - Rabbiy na qilich, na nayza bilan qutqarishini bilib oladi, zero bu urush Rabbiynikidir va U sizlarni qo'limizga topshiradi. (1–Shohliklar 17:46-47)

Bu parcha bizga hikoyaning asosiy mazmunini ochib

beradi: Dovud bilan Goliyot o'rtasidagi bu jang Xushxabarga yetaklovchi mavzu sifatida xizmat qiladi ("Shunda Isroilda Xudo borligini butun yer bilib oladi") va ta'lim-tarbiya berish maqsadida – Xudoning xalqini Unga ishonishni o'rgatadi ("Rabbiy na qilich, na nayza bilan qutqarishini bilib oladi, zero bu urush Rabbiynikidir va U sizlarni qo'limizga topshiradi").

Matnning asosiy g'oyasini tushunish uchun berilishi kerak bo'lgan ikkinchi foydali savol quyidagicha: matnda keltirilgan qahramonlar Xudoning haqiqatlariga yoki Uning Tanlanganiga qanday munosabatda? Doim bo'lmasa-da, ayrim hollarda qahramonlar tinglovchilar uchun o'ziga xos oyna vazifasini bajaradi. Men bir safar ikki shoh – Shoul va Dovud (1–Shohliklar 22–bob) o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi parchadan va'z qilgan edim. Bu ajoyib bob bo'lib, bu hikoyada ikkita ko'zga ko'ringan shoh bilan birga yana ikkita ikkinchi darajali qahramon tilga olinadi. Ulardan birinchisi bu edomlik Doeg ismli kishi bo'lib, Shoulga tarafdorlik qiladi. Ikkinchi qahramon Abiatar esa Dovudning izidan borishni tanlaydi. Doeg va Abiatar kabi shaxslar voizlikda amaliy xulosalar chiqarish uchun juda foydali obrazlarga aylanadi. Va'z jarayonida savol tug'iladi: Biz Xudoning Tanlangani zaif ko'rinsa ham yoki ta'qibda bo'lsa ham uning ortidan ergashishni tanlaymizmi yoki Doegga o'xshab, oxiri barbod bo'ladigan, dunyoviy kuch va manfaatga ega shohning ortidan ergashamizmi?

Uchinchi foydali savol: ushbu amaliy qo'llash matnning asosiy ma'nosiga tegishlimi yoki shunchaki ehtimoliy bir talqinmi? Umumiy qoida sifatida, avval matnning asosiy mazmunini ochib bermasdan turib, ikkinchi yoki uchinchi

darajali amaliy qo'llashlarga o'tmaslik kerak. Sizing asosiy maqsadingiz Muqaddas Ruh matn orqali yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oyaga mos kelishi lozim.

Bu masalani shunday tasavvur qiling: har bir amaliy qo'llash narvondagi bir pog'onaga o'xshaydi. Pog'ona qancha balandda bo'lsa, ya'ni matnning aslidan qancha uzoqlashgan bo'lsa, unga yetishga uringan odam shunchalik ko'p xato qiladi. Chunki u juda uzoq va zaif bo'lib qoladi. Bunday holda, yaqin, mustahkam, aniq va asosiy amaliy qo'llashlarga tayanib harakat qilish siz uchun ma'qulroq bo'ladi.

Men matnga bir nechta amaliy xulosa beradigan bo'lsam ham har doim eng asosiysidan boshlayman. Agar tahlil chog'ida matndan uzoqlasha boshlasam, jamoatga "Hozir aytmoqchi bo'lgan qo'llashlar matndan bir oz chetlashgan talqinlar", deb ochig'ini aytaman. Kitobimizning boshida (1–bobda) 1–Shohliklar 2–bob bo'yicha muhokamani eslab ko'ring. Undagi ba'zi amaliy xulosalar farzand tarbiyasiga oid edi, esladingizmi? Lekin matnni diqqat bilan o'rganganimizda, bunday amaliy qo'llashlar ikkinchi, hatto uchinchi darajali ekanini anglagan edik.

Matndan chetga chiqib ketmayotganingizni tekshirish uchun yana bir foydali, tekshiruvchi savol bor: Amaliy xulosalarim matn doirasida qolyaptimi yoki yo'qmi? Chunki matndan birorta amaliy xulosaga kelish, bu muallif shuni nazarda tutgan, degani emas. Shunga yaqin yana bir muhim savol bor. O'ylab ko'ring, mening amaliy qo'llashim Muqaddas Kitobning boshqa matnlariga zid kelmayaptimi? Agar zid keladigan bo'lsa, u holda bu xulosadan foydalanmang. 1–Shohliklar 21–bobda Dovud oziq-ovqat va qurol-yarog' olish

maqsadida ruhoniy Aximelekni aldagani voqeasini eslang. Siz bu parchani Xudoga xizmat qilish yo'lida "bir oz bezarar yolg'on ishlatish mumkin", degan xulosani berish uchun ishlatadigan bo'lsangiz, u holda Kolosaliklar 3:9-10 ni talqin qilayotganingizda, jiddiy muammolarga duch kelishingiz aniq. Yuqoridagi oxirgi savol voizni Muqaddas Kitobning bir parchasini ikkinchi parchasiga qarshi qo'yishdek xatardan saqlaydi.

Oxirida, va'zga tayyorgarlik jarayonidagi ishimni tekshirish uchun o'zinga shunday savol beraman: Mening amaliy qo'llashlarim Xushxabar asosiga qurildimi? Men tinglovchilarimga Xushxabar asosidagi amaliy qo'llanmani taqdim etyapmanmi yoki shunchaki ularning yelkalariga yana ko'proq amrlarni yuklash xavfi ostida turibmanmi?

Aytaylik, Yoqub 3:1-12 asosida va'z qilganda, oddiygina qilib, "Tilingizni tiying!" deb aytish mumkin. Ammo faqat shu bilan cheklansak, bu axloqiy ta'limga aylanib qoladi. Bu bobning asl mazmuni esa quyidagidan iborat: tilni to'liq nazorat qilish imkonsiz. Bizga Xudoning inoyati kerak. Yoqub bu fikrni 13-18-oyatlarda davom ettiradi. U yerda u bizga "yuqoridan keladigan donolik" kerakligini ta'kidlaydi.

SO'NGGI SO'Z

Bugungi kunda Xudoning So'zini ta'sirli va samarali qilib yetkazish uchun voizlar kontekstuallashtirishni Muqaddas Kitob matni bilan uyg'unlashtirishlari kerak. Bundan tashqari, biz mana shu ikki usulni birgalikda qo'llaganimizda, bunday va'zdan foyda ko'ramiz. Ular *tinglovchilarimizni* shakllantiradi, manba (ma'lumot)

ni *tuzishga*, *dalillar* keltirishga va yetkazmoqchi bo'lgan xabarimizni *amalda qo'llashga* yordam beradi.

Va nihoyat, so'nggi so'z – shu bilan yakun yasaymiz. Muqaddas Kitobning eng yaxshi tafsirchilari (izohlab beruvchilari) harchand *bugungi kun* masalalariga jiddiy yondashsalar-da, o'z voizlik ishlarini (ekzegetika bo'ladimi, ilohiyotga oid mulohaza yoki kontekstualashtirish bo'ladimi) hamisha *o'sha kun* – ya'ni Isoning qayta kelish kuni – nuri ostida amalga oshiradilar. Chunki o'sha kuni har bir narsa, hatto voizning niyati ham oshkor bo'ladi. O'sha kun haqidagi bilimingiz sizga doimo ibodatda va sadoqatda qolishga yordam bersin hamda mo'l-ko'l hosilni – samarani Xudoning qo'liga topshirishingizga sabab bo'lsin.

XULOSA

QURIGAN SUYAKLAR

Charlz Simeon Trinity Sunday (Muqaddas Uchbirlik Yakshanbasi) jamoatiga rasmiy ravishda xizmatchilikka tayinlangandan so'ng, ta'tilda bo'lgan cho'ponning o'rniga o'sha jamoatda va'z aytdi. O'shanda Simeon bor-yo'g'i yigirma ikki yoshda edi. Oradan o'nlab yillar o'tib, u o'zining birinchi va'zlari haqida shunday deb yozgan:

Janob Atkinson bilan tanishib qolganimdan so'ng, u kishi ta'tilda bo'lgan vaqtda uning jamoatida xizmat qilishni zimmamga oldim. U yerda yaxshi xizmat qildim, degan umiddaman. Bir oy yoki olti hafta ichida jamoat tinglovchilarga to'lib-toshdi. Qutlug' Kechlikka doimgidan uch barobar ko'proq odamlar qatnashdi va "qurigan suyaklar"ning ham harakati ko'zga tashlana boshladi.³⁴

Voiz sifatida menga Charlz Simeon o'zining ilk va'zlari haqida aytgan qisqacha ta'rifining har bitta gapi yoqadi. Bu ta'rifda u o'zining xizmati oddiy boshlanganini, ta'tilda bo'lgan cho'ponning o'rniga xizmat qilgani hamda ta'rif davomida

34 Uilyam Karus, *Ruhoniy Charlz Simeonning hayoti xotiralari* (London: Hatchard and Son nashriyoti, 1847, 24-bet; [William Carus, *Memoirs of the Life of the Rev. Charles Simeon* (London: Hatchard and Son, 1847), page 24].

u yerda qilgan ishi foydali bo'lganiga umid qilishini ham oddiygina qilib eslatib o'tadi. Xudo uning xizmatini ajoyib tarzda boshlagan! Bilasizmi, Men Xudo uning ilk va'zlarini ataylab samarali qilganiga ishonaman. Kelgusida uning xizmatlariga ruhiy madad bo'lsin, deb shunday qilgan. Axir, u tez orada Kembrijda anchagina sinovlarga duch kelardida. Ammo menga o'zining qilgan va'zining ta'sirini qanday ta'riflagani yoqadi: "Qurigan suyaklarning ham harakati ko'zga tashlana boshladi".

Ishonchim komil, Xudoning inoyati bilan Charlz Simeonning davrida sodir bo'lgan voqealar bugun ham takrorlanadi. Ehtimol, bu jarayon sizdan boshlanar! Voizlik haqida qo'lingizdagi ushbu kitobchani yozayotganimda, men o'sha yigirma ikki yoshli yigit haqida o'yladim. Shunday ekan, siz yigirma ikki yoshda bo'lasizmi, yoki sakson ikki yoshdami, Xudo siz orqali shunday ish qilsinki, hammamiz "yaxshi xizmat qilyapti", deb umid qilaylik.

ILOVA

VOIZLAR BERADIGAN SAVOLLAR

Quyidagi tashxis savollar va'zingizni boshidan oxirigacha to'g'ri tayyorlashga yordam beradi.

EKZEGETIKA

Tayyorgarlikka kirishishdan oldin Xudoning madadini so'rab ibodat qildimmi?

Tuzilish (Struktura)

- Muallif ushbu matnni qanday tashkil qilgan? Tematik qismlar qaysi oyatlardan bo'lingani aniq ko'rsatilsa, foydali bo'ladi.
- *Umumiy*: Matnda qaysi so'z, ibora yoki g'oya takrorlanib kelyapti?
- *Hikoya*: Matn qanday sahnalarga bo'lingan? U manzara (joylar) o'zgarishi asosida tashkil qilinganmi yoki qahramonlar o'zgarishi asosidami? Syujet nima? (To'qnashuv yoki dramatik tanglik nimadan kelib chiqyapti? Kulminatsiya yoki burilish nuqtasi qayerda? To'qnashuv hal bo'ldimi? Agar hal bo'lgan bo'lsa, qanday hal bo'ldi?)
- *Diskurs*: Grammatik qurilish yoki mantiqiy izchillik g'oyalarning oqimini qanday namoyon etadi?

- *She'riy matn*: Bu matnning kayfiyati yoki mavzusi qayerda o'zgaradi?
- Matnning tuzilishi muallif qaysi g'oyaga e'tibor qaratayotganini qanday ochib beradi?

Kontekst

- Bu parcha atrofida joylashgan matnlar, ya'ni undan oldin va keyin keladigan qismlar uning ma'nosini qanday yetkazib beradi? Nima sababdan bu parcha aynan shu yerga joylashtirilgan? Muallif bu bilan nimani maqsad qilgan?
- Bu matnni ilk tinglovchilar yoki o'quvchilar (janriga qarab) qanday tarixiy vaziyatda eshitganlar?
- O'qiyotgan parchaningiz kattaroq bir bo'lim (bob yoki butun bir kitob) ichida qanday o'rin egallaydi?

Matn ohangi

- Bu kitobning mohiyati nimadan iborat?
- Ushbu parcha kitobning umumiy ohangini qanday aks ettiradi yoki kitobning mohiyati uni qanday to'ldiryapti?
- Matnning mavzusi nimada?

ILOHIYOTGA OID MULOHAZA

- Bu parcha Xushxabarga qanday ishora qiladi? Xushxabar bilan bog'liqmi?
- Kalomiy ilohiyot menga matndan Xushxabarni ko'rishimga qanday yordam beradi? Muallif

bashoratning ro'yobga chiqishi, tarixiy yo'nalishi, umumiy mavzular yoki o'xshatishlarni qanday ishlatgan?

- Tizimli ilohiyot menga matndan Xushxabarni ko'rishimga qanday yordam beradi? Bu mening imonda mustahkam turishimga yordam beradimi? Meni Xushxabarga yanada chuqurroq bog'laydimi? Yoki Masihni bilmaganlar bilan muloqot qilishda mening gapirish mahoratimni charxlayaptimi?

BUGUNGI KONTEKSTUALLASHTIRISH

Tinglovchilar kim?

- Men tayyorlagan va'zimni tinglaydigan odamlarni yaxshi bilamanmi? Ularni sevishga qaror qilib, o'zimni shu ishga bag'ishlaganmanmi? Va'zga tayyorgarlik ko'rish jarayonida ular uchun ibodat qildimmi?

Va'zning tuzilishi

- Men aytadigan va'z qanday shaklda bo'ladi va va'zda nimaga urg'u beraman? Va'zning shakli va asosiy mazmuni matnning tuzilishi va asosiy g'oyasiga mos keladimi?

Hayotga tatbiq etish

- Men tayyorlagan va'z eng avvalo o'zimni va shu bilan birga tinglovchilarimni yurakdan o'zgartiradimi?

Mening va'zim tinglovchilarni Xudoning oldida kamtar qiladimi? Najotkorni ulug'lab, tinglovchilarni muqaddas hayot kechirishga undaydimi?

- Muallif men va'z qilayotgan matn orqali o'quvchilarga nimani aytishni niyat qilgan yoki maqsad qilgan?
- Hikoya: Matn qahramonlari Xudoning haqiqatiga yoki Tanlanganga qanday munosabatda bo'lyapti?
- Nutq/Diskurs yoki She'riy: Muallif matn orqali o'quvchilarida qanday munosabat uyg'otishni istagan?
- Mening amaliy xulosalarim muallifning maqsadiga asoslanganmi?
- Amaliy qo'llashlarim matnning asosiy g'oyasini aks ettiradimi yoki ehtimoliy talqinlardan birimi?
- Amaliy qo'llashlarim matnning mohiyatini kamaytirmayaptimi? U boshqa Muqaddas Yozuvlarning mazmuniga zid kelmaydimi?
- Men va'zimda keltirayotgan hayotga tatbiq etish taklifi Xushxabarga asoslanganmi yoki shunchaki tinglovchilarimning yelkalariga yana ko'proq talablarni yuklayaptimi?
- Men Muqaddas Kitob matniga tayanib, o'zim aytmoqchi bo'lgan fikrlarni aytyapmanmi? Yoki faqat matnda bo'lgan va Xudo aytmoqchi bo'lgan fikrni ochib beryapmanmi?

ALOHIDA MINNATDORCHILIK

Xudo mening hayotimga qo'ygan ikki cho'pon – Kent Xyus va Dik Lukaslar menga ekspozitsion va'z qilishda namuna ko'rsatdilar. Bu ikki inson hafta davomidagi vaqtlarini Xudoning Kalomini tushunishga va tushuntirishgagina sarflab qolmay, menga ham bor bilganlarini o'rgatib, hayotimga ruhiy sarmoya kiritdilar. Shuning uchun ham men ulardan juda minnatdorman. Ular men uchun doim yaqin do'st va ishonchim komilki shunday bo'lib qoladi. Qo'lingizdagi ushbu kitobcha aynan ular tufayli yanada yaxshiroq bo'ldi.

Shuningdek, men yaqindan hamkorlik qiladigan ikki cho'pon – Jon Dennis va Artur Jeksonga ham alohida minnatdorligimni bildirmoqchiman. Sizlarning ko'p yillik sadoqatli xizmatigiz meni ruhlantiradi. Men Chikagodagi Hayd Parkda joylashgan Muqaddas Uchbirlik Jamoati [Holy Trinity Church] oldida ham qarzdorman. Mana, oradan o'n besh yil o'tibdi hamki, hamon sizlar Xudoning Kalomini men orqali xursandchilik bilan qabul qilib kelyapsizlar. Faqat shugina emas, har hafta, Masihning Kalomi orqali qalblarimiz mehr-muhabbat bilan bog'landi, Uning sadoqatini har doim yangilab turdik. Men bundan juda minnatdorman, Masihning hokimiyati ostida Xudo bizga bergan shodlik uchun ham shukrona aytaman.

Shuningdek, men do'stlarim Mark Dever va Jonatan Limandan ham minnatdorman. Faqat ularning xushmuomalalik bilan bergan taklifi va bu g'oyalarni qog'ozga tushirish haqidagi qat'iy tavsiyalari sababli men yozishga

vaqt topa oldim. Aziz do'stlarim, menga shu ishda sizlar bilan yelkadosh bo'lish imkonini berganingiz uchun rahmat. Hamda, Crossway nashriyotining muharriri Tara Devisning mehnati uchun ham minnatdorlik bildiraman. Aynan uning tahriri tufayli bu kitobning matni yanada mukammal bo'ldi. Rahmat.

Yana yaqinlarim haqida gapiradigan bo'lsam, Masih yo'lida hamrohim va do'stim Robert Kinni uchun Xudodan juda minnatdorman. Odatdagiday, qo'lyozmamni yanada mukammal qilishdagi beminnat yordaming uchun va ayni damda Charlz Simeon Trast tashkiloti rahbarligi mas'uliyatini ko'tarishda doim yelkadosh bo'lganing uchun rahmat.

Nihoyat, Liza, azizam, men bilan umrbod muhabbat rishtalarini bog'laganing uchun, o'ttiz yildan beri mendan mehringni ayamaganing uchun rahmat. Ayniqsa, menga borgan sari qalbingdan Xudoning Kalomi uchun ko'proq joy berayotganing yoqadi.



Charlz Simeon Trast

Devid Helm Charlz Simeon Trast tashkilotining raisi. Bu tashkilot Xudo Kalomini to'g'ri va ma'suliyat bilan talqin qilish va undan foydalanish borasida sizning ishonchingiz va malakangizni oshirishni maqsad qilgan. Biz o'z vazifamizni quyidagi ikkita muhim usulda amalga oshiramiz:

Muqaddas Kitobni talqin qilish bo'yicha seminarlar tashkil qilish

Seminar quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi: *tamoyillar* (Muqaddas Kitobni talqin qilish va o'rgatish yoki va'z qilish bo'yicha oddiy mashg'ulotlar), *va'z qilish* va *amaliy mashqlar* (avvaldan berilgan matnlar asosida mahoratni oshirish uchun interaktiv kichik guruh mashg'ulotlari). Bunday seminarlar har yili Amerika Qo'shma Shtatlari hamda butun dunyo bo'ylab 30 dan ortiq joylarda o'tkaziladi.

Simeon kursi: Muqaddas Kitobni talqin qilish

Ushbu kurs Xudoning Kalomini va'z qilish va o'qitish amaliyotiga bag'ishlangan bo'lib, faqat onlayn platformada olib boriladi. Butun dunyo bo'ylab eng yaxshi Muqaddas Kitob tafsirchilari (izohlovchilari) va o'qituvchilarining veb-translyatsiyalari va HD sifatdagi video yozuvlari kutubxonasidan foydalangan holda, biz kurs ishtirokchilariga o'z mahoratlarini oshirishga yordam beramiz.

Biz taqdim etadigan uchta kursdan har biri magistrlik darajasi uchun kredit sifatida qabul qilinishi mumkin: *Voizlik va adabiy janr* (30 ta mashg'ulot), *Va'z qilish va Kalomiy ilohiyot* (15 ta mashg'ulot) va *Va'z qilish va tizimli ilohiyot* (15 ta mashg'ulot).

Ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun
quyidagi saytga murojaat qiling:

www.simeontrust.org

MUQADDAS KITOBGA IQTIBOSLAR

| | | | |
|---------------|-----------|------------------|----------|
| Ibtido | | Yermiyah | |
| 1-2..... | 11, 105 | 25:17-29..... | 108 |
| Chiqish | | 31 | 107, 108 |
| 3:5 | 10-11 | 31:31-34..... | 107 |
| Qonunlar | | Habaquq | |
| 18:15-22..... | 103 | 3 | 92-93 |
| 1-Shohliklar | | Matto | |
| 2 | 150 | 2:14-15..... | 102 |
| 2:12-21..... | 31-33, 34 | 7:28 | 13 |
| 15 | 112 | 13:35 | 102 |
| 17:46-47..... | 148-149 | 26:53-56..... | 102 |
| 21 | 150 | 28:19-20..... | 139 |
| 22 | 149 | Mark | |
| 28 | 111, 113 | 2:7 | 143 |
| 28:20-25..... | 111-112 | 4:19 | 35 |
| Nehemiyah | | Luqo | |
| 8:8 | 10 | 1:72 | 106 |
| Sanolar | | 2:25, 37 | 95 |
| 41-42..... | 81 | 2:28-32, 38..... | 95 |
| 111:9 | 41 | 3:21-22..... | 95 |
| 137:2 | 12 | 7:28 | 108 |
| Hikmatlar | | 9:16 | 140 |
| 25:2 | 110 | 9:18-20..... | 94 |
| Voiz | | 9:28-36..... | 94 |
| 12:1-8..... | 105 | 9:30-31..... | 106 |
| | | 9:48 | 108 |
| | | 10:8 | 140 |
| | | 11:1-13..... | 144 |

| | | | |
|---------------|--------------|---------------|-------|
| 11:13 | 144 | 17:23 | 127 |
| 11:1-4..... | 144 | 17:24 | 99 |
| 13:30 | 108 | 17:24-25..... | 99 |
| 14:11 | 108 | 17:26-28..... | 99 |
| 17:7-10..... | 108 | 17:29-30..... | 99 |
| 22 | 108 | 17:30 | 143 |
| 22:14-30..... | 106, 108-109 | 17:31 | 100 |
| 22:20 | 106 | 17:32 | 130 |
| 22:24 | 108 | 18:4 | 87 |
| 22:24-27..... | 108 | 18:19 | 87 |
| 22:28-30..... | 108 | 19:1-2..... | 144 |
| 22:29 | 108 | 19:8 | 87 |
| 22:30 | 108 | 24:24-25..... | 141 |
| 24 | 93, 96, 139 | 26:26-28..... | 140 |
| 24:17-47..... | 9 | | |
| 24:25-27..... | 86 | Yoqub | |
| 24:26 | 87 | 2:14-26..... | 116 |
| 24:44-45..... | 86 | 2:23 | 103 |
| 24:46-47..... | 86-87 | 3:1-12..... | 151 |
| | | 3:13-18..... | 151 |
| Yuhanno | | 4:1-12..... | 135 |
| 6:63 | 38, 131 | | |
| 21:17 | 122-123 | 1-Petrus | |
| | | 1:23 | 11 |
| Havoriylar | | | |
| 3:18 | 103 | Yahudo | |
| 3:22-26..... | 103 | 1 | 71-73 |
| 11:27-30..... | 42 | 1:1 | 71 |
| 13:27 | 103 | 1:3 | 72 |
| 17:2-3..... | 87, 139 | 1:6 | 71 |
| 17:3 | 140 | 1:13 | 71 |
| 17:16-34..... | 129 | 1:21 | 71 |
| 17:17 | 87, 126 | 1:24 | 71 |
| 17:18 | 129-130, 130 | | |
| 17:19 | 126 | Rimliklar | |
| 17:22-23..... | 99, 127 | 1 | 105 |
| 17:22-31..... | 9, 99 | 1-3..... | 141 |

| | |
|------------------|---------------------|
| 1–Korinfliklar | Filippiliklar |
| 1140 | 1:1248 |
| 1:4-7.....61 | 4:1347, 48 |
| 2:1046 | |
| 3:161 | Kolosaliklar |
| 3:1-2.....60 | 3:9-10.....151 |
| 3:751 | 4:2-4.....134 |
| 5:261 | |
| 11:25106 | 1–Fessalonikaliklar |
| 12:160 | 2:3-6.....131-132 |
| 12:460 | 2:1312-13 |
| 12:960 | |
| 12:2860 | 2–Timotiy |
| 12:3060 | 2:1515 |
| 12:3160 | 4:3-4.....26 |
| 1360, 61 | |
| 14:160 | Ibroniylar |
| 14:3760 | 1:311 |
| 16:1-4.....42 | 3:738 |
| | |
| 2–Korinfliklar | |
| 5:17105 | |
| 6:1366 | |
| 6:14-15.....65 | |
| 7:266 | |
| 8-9.....39, 40 | |
| 9:6-7.....40, 41 | |
| 9:6-9.....40 | |
| 9:841 | |
| 9:941, 43 | |
| 11:542 | |
| 11:642 | |
| 11:742 | |
| 11:942 | |
| 12:1142 | |
| 12:14-15.....42 | |

SOG'LOM JAMOATLARNI KO'TARISH HARAKATIDA

SIZNING JAMOATINGIZ SOG'LOMMI?

9Marks (9 Belgi) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Ekspozitsion va'z qilish
2. Xushxabar ta'limoti
3. Yuqoridan tug'ilish va Xushxabar tarqatish bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha
4. Jamoat a'zoliqi bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha
5. Kalomga asoslangan jamoat tartib-intizomi
6. Kalomga asoslangan shogirdlik va ruhan o'sish
7. Kalomga asoslangan jamoat yetakchiligi
8. Ibodat bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha va uni amalda qo'llash
9. Elchilik xizmati bo'yicha Kalomga asoslangan tushuncha va uni amalda qo'llash

9Marks (9 Belgi) da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug‘vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

60dan ortiq tillardagi kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro‘yxatdan o‘ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to‘liq ro‘yxatini quyidagi havola orqali ko‘rishingiz mumkin:

www.9marks.org/international



marvaridresurslari.org

Jamoat masalalari bo‘yicha savollar to‘plami

Ko'proq kitobchalarni va maqolalarni o'qish va tinglash
uchun **Marvarid Xizmatlarining ilovasini** yuklab oling!



YAXSHI VA'Z QANDAY BO'LADI?

Qo'lingizdagi ushbu kitob voizlar va kelajakda voiz bo'ladiganlar uchun oson va tushunarli tarzda yozilgan. Bu kitobda cho'pon Devid Helm Xudo Kalomini va'z qiladiganlar o'z vazifalarini sadoqat bilan bajarishlari uchun nimalarga ishonishlari va nima qilishlari kerakligini bayon qiladi.

Ushbu uncha katta bo'lmagan kitob voizlar uchun amaliy, bosqichma-bosqich ko'rsatmalar berishdan tashqari, har birimizga yaxshi va'zni farqlay olishni o'rgatadi.

"Devid Helm tomonidan ekspozitsion va'z haqida yozilgan ushbu kitob, men o'qigan kitoblar orasida eng foydali, qisqa va aniq qilib tushuntirilgan kitobdir."

METT CHENDLER, Texas, Dallas, The Village Church jamoatining bosh cho'poni

"Agar men va'z aytish dars beradigan bo'lib, talabalarimga faqat bitta kitobni o'qib chiqishni tavsiya qilishim kerak bo'lsa, men faqat mana shu kitobni tavsiya qilgan bo'lardim. Bu kitob va'z qilishni endi o'rganayotganlarga anchagina ma'lumot beradigan, shu bilan birga tajribali voizlarga ham bemaol yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan noyob kitobdir."

MARK DEVER, Washington DC, Capitol Hill Baptist Church jamoatining bosh cho'poni

"Muallif Devid Helm ushbu kitobda Xudoning Kalomini ishonch bilan va'z qilish uchun voiz nimalarni tushunishi va nimalar qilishi kerakligini juda aniq va ishonarli tarzda bayon qilgan. Shuning uchun bu juda muhim kitob."

R. KENT HYUZ, Illinoys, Uiton shahri, College Church jamoatining faxriy katta cho'poni

DEVID R. HELM (Gordon-Conwell seminariyasining ilohiyot bo'yicha magistri) Chikagodagi Holy Trinity jamoatida bosh cho'pon sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u voizlik bo'yicha amaliy ta'limni targ'ib qiluvchi Charles Simeon Trust tashkilotining raisi hisoblanadi. Helm "Kalomni va'z qilish: Ekspozitsion va'z qilish borasida maqolalar to'plami"ning muallifi, shuningdek, Muqaddas Kitob hikoyalarda nomli [*The Big Picture Story Bible*] bolalar kitobining muallifidir. Bundan tashqari, u Crossway nashriyotida chop etilgan "Kalomni va'z qilish" turkumidan joy olgan Butrusning birinchi maktubi, Butrusning ikkinchi maktubi va Yahudo kitoblariga sharhlar yozgan.

*Ushbu kitob "9 Belgi: Sog'lom jamoatlarni ko'tarish harakatida" turkumiga kiritilgan.